

65  
150

D.D.Alimova, D.X.Jumayeva

# SUG'URTA ISHI



Toshkent – 2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

D.D.Alimova, D.X.Jumayeva

# SUG'URTA ISHI

O'quv qo'llanma

*Texnikumlarning 5.32.12.01-Statistika mutaxassisligi  
talabalari uchun mo'ljallangan*

“TURON NASHRIYOT”

Toshkent – 2021

UO'K 368.01(075.8)  
BBK 65.271ya73  
A50


Sug'urta ishi [Matn] : o'quv qo'llanma / D.D. Alimova,  
D.X. Jumayeva . -Toshkent: "Turon Nashriyot", 2021. -120 b.

Ushbu o'quv qo'llanma "Sug'urta ishi" fanidan Davlat ta'lim standartlari talablariga asosan O'zbekistonda bozor infratuzilmasi qaror topayotganda sug'urta bozori, uning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, sug'urtaning tasniflash tushunchalari, davlat va sug'urta kompaniyalarining o'zaro munosabatlarini o'rganishdir. Sug'urta ishi fanining predmeti bo'lib, korxonalar va tashkilotlar mulki, inson hayoti, sog'lig'i va javobgarligiga rahna solishi mumkin bo'lgan xavf-xatar va baxtsiz hodisalar hisoblanadi. Fanni kasbiy pedagogik ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak muallim – menejer – talabalarga o'qitishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti hisoblanmish uning uzluksizligi va to'xtovsizligini ta'minlash maqsadida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar, xavf-xatarlar va baxtsiz hodisalardan himoyalalanishni va ularni imkon qadar boshqarishni o'rgatishdan iborat.

Texnikumlarning 5.32.12.01 – Statistika mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:** Rahmatullayeva F.M. – BuxDU «Iqtisodiyot»  
kafedrasini mudiri, dotsent  
Sh.N.Xayitov – BMFI, «Menejment»  
kafedrasini mudiri, dotsent

ISBN – 978-9943-7612-8-5



© "Turon nashriyot", 2021

## I BOB. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari, atama va tushunchalari.

1.2. Sug'urta bozori va uning tarkihiy tuzilishi.

### 1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari, atama va tushunchalari

Sug'urta ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalaridan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas hamrohiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi «qo'rquv» («strax») so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va ijtimoiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv his etganlar. Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishning asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi. Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi. Sug'urta – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzluksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimo yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan, rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Geoge E.ning fikricha, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir, ya'ni zararlarni boshqarishning huquqiy tamoyillari, mulk va javobgarlik sug'urtasi, hayot va sog'liq sug'urtasi, mehnat huquqi, ijtimoiy sug'urta va moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Inson va tabiat o'rtasidagi

qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishning sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.<sup>1</sup>

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli xil oldini olish qaratilgan tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ish kuchini ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo moliya to'raligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarnigina qamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini olib boruvchi belgilarni quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yozib bo'lmaydigan holatlar, ya'ni sug'urta hodisalari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

2. Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lishi ehtimoligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni yetarli bo'lganda.

Zararni hunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadli yo'naltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining bazalari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtasida

ishlatiladi, sug'urta bazasining hajmi esa har bir qatnashchining zararini qoplashdagi ulushini bildiradi. Shuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta bazasining hajmi shuncha oz va sug'urta ham samarali bo'ladi.

3. Sug'urta zararini qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchilar o'rtasida sug'urta fondini hududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarli katta hudud va sug'urtalashga tegishli obyektlar talab qilinadi.

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatiga uning funksiyalari mos keladi.

Sug'urtaning to'rtta funksiyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik.
2. Oldini olish.
3. Jamg'arish.
4. Nazorat.

Tavakkalchilik funksiyasining amal qilishi davomida sug'urta ishtirokchilari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisalari oqibatlarini bog'liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi ro'y beradi.

Oldini olish funksiyasi sug'urta fondi mablag'larining bir qismi hisobidan sug'urta tavakkalchiligini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Hayot sug'urtasida sug'urta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan hayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bo'yicha mablag'larni jamg'arishda ancha yaqinlashadi. Hayot sug'urtasi orqali pul mablag'larini jamg'arish oilaviy sharoitida sug'urtaviy himoyaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir.

Sug'urtaning nazorat funksiyasi sug'urta fondining qat'iy maqsadli shakllantirilishi va uning mablag'laridan to'g'ri foydalanishidan iborat. Mazkur funksiya yuqoridagi o'z-o'ziga xos funksiyalardan kelib chiqadi va konkret sug'urta munosabatlarda ular bilan birga namoyon bo'ladi. Sug'urta ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning faoliyat doirasi ichki, tashqi yoki aralash sug'urta bozorlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga rivojlangan sug'urta bozori

sharoitida ham davlat ichkarisida, ham chetda amalga oshirilishi mumkin. Bu sug'urtaning tashkiliy turkumlanishidir. Ammo sug'urta munosabatlarining mazmuni sug'urta obyekti va xavf-xatari turlari bo'yicha turkumlanishi yordamida namoyon bo'ladi. Sug'urta sug'urtalanuvchilarning turli toifalarini qamrab oladi.

Uning shartlari sug'urta mas'uliyatining hajmlari bo'yicha farq qiladi: u qonun kuchida va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin.

**Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar.**

Sug'urta faoliyatini tashkil qilish bilan bog'langan atamalar sug'urta faoliyati haqidagi qonunda ko'rsatilgan. Bu atamalarga quyidagilar kiradi:

- *Sug'urtalanuvchi*
- *Sug'urtaning obyekti.*
- *Sug'urta himoyasi.*
- *Sug'urta manfaatdorligi.*
- *Sug'urta javobgarligi.*
- *Qayta sug'urta qilish.*
- *O'zaro sug'urta qilish.*
- *Sug'urta vakillari.*
- *Sug'urta guvoohnomasi.*
- *Sug'urta qoplamasini oluvchi.*

Quyida har bir atamaga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

**Sug'urtalanuvchi.** Sug'urta qiluvchi tashkilot tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta haqidagi qonun yoki sug'urta shartnomasi asosida shartlar ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar. Sug'urta tashkilotlarining «O'zagrosug'urta», «Kafolat», «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi kabi turlari mavjud. Shuningdek xususiy sug'urta tashkilotlari kiradi.

O'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildirgan korxonalar, xo'jalik tashkiloti yoki o'z hayotini sug'urtalovchi fuqarolar sug'urtalanuvchi hisoblanadilar. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tashkiloti ro'yxatidan o'tgan mol-mulk egalari yoki ixtiyoriy sug'urta bo'yicha

shartnoma tuzib, sug'urta hadalini to'laganlar sug'urtalanuvchilar qatoriga kiradi.

**Sug'urtaning obyekti.** Mulk sug'urtasida obyekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk ko'zda tutilsa, Shaxsiy sug'urtada fuqarolarni hayoti sog'ligi va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti ana shu obyektlarni tarkibiy qismlaridir. Masalan, qishloq xo'jaligi sug'urtasi obyekti bo'lib, ekinlar hosili, chorva mollarining soni mol-mulk turlari, binolar, inshootlar, transport vositalari sug'urta predmeti hisoblanadi.

Uy-joyda saqlanuvchi mol-mulklar obyekt bo'lsa, uy ro'zgor buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta predmeti bo'lib, ma'lum yoshga yetish, mehnat qobiliyatini yo'qotish va vafot hodisalari misol bo'ladi.

**Sug'urta himoyasi.** Sug'urta himoyasi favqulodda ko'zda tutilmagan ofatlardan himoya qilishni muhim shartlaridan hisoblanadi. Qadim zamonlardan shaharlar tashkil etilganda hujumlardan himoya qilish uchun devorlar qurilgan va sug'urta himoyasi ham bo'lgan. Bu moddiy jihatdan sug'urta fondidir. Sug'urta himoyasi faqat fond emas, balki yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida mujjassamlashtiradi. Bu munosabatlar respublika shahar, tumanlar miqyosidagi obyektlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan himoyalashni ko'zda tutadi. Bunday himoyalash aholiga tegishli mulklarni har xil sug'urta hodisalaridan asrashga yordam beradi. Bunday himoyalash sug'urtaning ogohlantirish funksiyasida o'z ifodasini topadi.

**Sug'urta manfaatdorligi.** Sug'urta masalalari bilan shug'ullanish unga nisbatan manfaatdorlikdan boshlanadi. Ishlab chiqarishni xavf-xatardan holi emasligi sababli sug'urtalash masalalariga qiziqish boshlanadi, chunki sug'urta obyekti zararlanganida sug'urtalanuvchiga zarar summasi beriladi. Bu summani sug'urta qoplamasi deb ataladi. Sug'urtalanuvchi ko'rgan zarar uchun olgan qoplamasi sug'urtalanuvchida sug'urta summasini olishdan manfaatdor bo'ladi.



**Sug'urta javobgarligi.** Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan javobgarligi, o'z zimmasiga olgan majburiyatlari, vazifalari. Agar ko'rsatilgan hodisalardan biri sodir bo'lsa, u holda sug'urta organlari o'z zimmasiga olgan majburiyat asosida sug'urta qoplamasi to'laydilar, masalan hayotni aralash sug'urtasida 3 xil sug'urta javobgarligi belgilangan. Shulardan biri shartnomada ko'zda tutilgan yoshga yetish, baxtsizlik hodisalaridan birining sodir bo'lishi vafot hodisasidir. Bu hodisalardan biri sodir bo'lsa, sug'urta tashkiloti sug'urta qoplumasini to'lash uchun javobgar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'zda tutilgan javobgarlik xususiy sug'urta tashkilotlarida ko'zda tutilgan javobgarlikdan farq qiladi. Bundan tashqari har bir sug'urta tashkiloti sug'urtaning har bir turi bo'yicha o'z javobgarligini o'zi belgilaydi.

**Qayta sug'urta qilish.** Sug'urtalovchi shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ga o'tkazish yoki qayta sug'urta qilish.

Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligini to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib, qayta sug'urta qildirishdir. Sug'urta voqeasi (sug'urta hodisasi) yuz berganda qayta sug'urtalagan tashkilot shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida javobgar bo'ladi.

**Birgalikda sug'urta qilish.** Birgalikda sug'urta qilishda ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkiloti bitta sug'urta shartnomasi tuzadi. Bunda shartnomada har bir sug'urtalovchining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlar bo'lishi lozim.

**Sug'urta agenti.** Sug'urta tashkilotining uning nomidan va uning topshirig'i bilan shartnomalar tuzuvchi shtatsiz xodimi.

**Sug'urta guvohnomasi.** Sug'urta tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjat. Ixtiyoriy sug'urtada bunday hujjatlar birinchi badal to'langandan keyin beriladi. Sug'urta guvohnomasida sug'urtalangan shaxsning ismi, familiyasi, sug'urta summasi yoki

qoplamasi sug'urta ta'rifi, sug'urta badali va boshqa ma'lumotlar ko'zda tutiladi.

**Sug'urta qoplamasini oluvchi.** Sug'urta qoidalari yoki shartnomalarda ko'zda tutilgan, sug'urta hodisalari sodir bo'lganda yoki boshqa sabablar tufayli sug'urta tashkilotlaridan ma'lum miqdorda qoplama oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar. Shirkat va fermer xo'jaliklarida bu mablag'lar ularning hisob raqamlariga o'tkaziladi.

Sug'urta fondi asosan sug'urta badallari hisobidan shakllanadi. Sug'urta badali milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida ajralib chiqib, maxsus sug'urta fondi tarkibiga kiradi.

Yuridik shaxslar, fuqarolar o'z daromadlarining bir qismini sug'urta to'lovi sifatida sug'urta tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazadilar.

Sug'urta fondining sug'urta badallari hisobidan shakllanishi o'ziga xos jarayon bo'lib, u badal miqdorini aniqlash bilan bog'liq qator tushunchalarga egadir. Bu tushunchalarga quyidagilar kiradi:

- sug'urtaviy baholash;
- sug'urta ta'minoti;
- sug'urta summasi;
- sug'urta ta'rifi;
- sug'urta muddati;
- sug'urta yoshi;
- sug'urta boqimandasi;
- sug'urta to'lovi.

Sug'urtaviy baholashi mol-mulk sug'urtasida qo'llaniladi. Sug'urtaviy baholash asosida sug'urta obyektlarining qiymati aniqlanadi. Bu asosda sug'urta hadallari hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

O'rtacha hesh yillik yoki uch yillik hosil. Bu ko'rsatkich ekinlarga nisbatan qo'llaniladi. O'rtacha hosil belgilangandan keyin u natura o'lchovidan pulga aylantiriladi.

Balans qiymatida (chorva mollariga nisbatan qo'llaniladi).

Balans bahosida (eskirgan miqdorini chiqarib tashlab) - binolar, mashinalar, transport vositalari.

Inventarizatsiya bahosida fuqarolarning turar joylari, kommunal xo'jaligi organlari tomonidan aniqlanadi.

**Sug'urta ta'minoti.** Sug'urta ta'minoti – bu sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mavjud belgilangan tartib asosida zararlarni hisoblash va bu asosda qoplama miqdorini belgilash usulidir. Amalda sug'urta ta'minotining 3 tizimi mavjud:

- *Sug'urta ta'minotining nisbiy (proporsional) tizimi.*
- *Birinchi xavf tizimi.*
- *Chegaralangan sug'urta ta'minoti*

Birinchi tizimda sug'urtalanuvchi ko'rgan zararining hammasi emas, balki sug'urta qilingan qismi to'lanadi, ya'ni zararining sug'urtaviy bahosiga nisbatan nisbiy qismi belgilanadi. Masalan, savdo tashkiloti magazinidagi tovarlar 50 ming so'mlik ulardan 40 ming so'mlik tovarlar (ya'ni 80 foiz) sug'urtalangan. Yong'in natijasida 20 ming so'mlik mol yonib ketgan. Sug'urta ta'minoti 20 mingning 80 foizi, ya'ni 16 ming so'mga teng. Qolgan 20 foizini savdo tashkilotining o'zi qoplaydi.

Birinchi xavf tizimida sug'urtalanuvchi shaxs o'z mulkining hammasini yoki bir qismini sug'urta qildirishi mumkin. Ayrim hollarda zarar miqdori sug'urtalangan summadan ortiq bo'lishi mumkin. Ana shu ortgan qismiga sug'urta ta'minoti berilmaydi. Masalan, uy-ro'zgor buyumlarining qiymati 50000 so'm. Mazkur anjomlarning 30000 so'mi sug'urtalangan. Lekin yong'in natijasida 40000 so'm zarar yetgan. Sug'urta ta'minoti 30000 so'mni tashkil qiladi va uni birinchi xavf deb ataladi. Qolgan qismi 10000 so'm sug'urta yo'li bilan qoplanmaydi. Uni ikkinchi xavf deb ataladi. U uy-ro'zgor egasiga havola qilinadi.

**Sug'urta summasi.** Sug'urta obyektining haqiqatda sug'urtalangan qismining pul shaklidagi hajmi. Majburiy sug'urtada sug'urta summasi sug'urta obyektining hajmi va sug'urta ta'rif asosida hisoblanadi. Ixtiyoriy Shaxsiy sug'urtada summasi sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanib chipta bahosi tarkibiga kiritiladi.

Mulkiy sug'urtasida bu atama sug'urtasi ta'minotining pullik ifodasi hisoblanadi. Masalan, binoning umumiy bahosidan amortizatsiya miqdori chegirib tashlansa, sug'urta summasi 30 ming

50'm deb faraz qilayliq. Agar mulkka yetkazilgan zararni 100 foizini tashkil qilsa, sug'urta summasi 30 ming so'mni tashkil qiladi.

**Sug'urta ta'rif.** Sug'urta summasi miqdoriga qarab hisoblanadigan badalning foiz stavkasi. Ta'rif miqdori asosan foiz yoki summa miqdorida belgilanadi. Maxsus adabiyotda bu stavka brutto ta'rif deb ataladi, u 2 qismga bo'linadi: 1. Netto ta'rif. 2. Yuklama. Netto ta'rif asosida hisoblangan qoplama zararlarni qoplashga sarflanadi. Yuklama hisobidan sug'urta bo'yicha boshqarish xarajatlari mablag' ajratiladi. Sug'urta ta'rif asosida sug'urta to'lovlari hisoblanadi, sug'urta to'lovlari bir yo'la yoki bo'lib to'lanishi mumkin.

**Sug'urta muddati.** Sug'urta obyektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani. Majburiy sug'urta mol-mulkka nisbatan muddatsiz sug'urta hisoblanadi. Mol-mulkdan qancha muddatga foydalanilgan bo'lsa, shu muddatga sug'urtalangan hisoblanadi. Ixtiyoriy mulkiy va Shaxsiy sug'urtada sug'urta muddati qancha vaqtga sug'urta qilingani shartnomada ko'rsatiladi, shunga qarab sug'urta to'lovlari hisoblanadi. Lekin sug'urta muddatidan uning amal qila boshlash muddatining boshlanishi tushunchalarini farq qiladi. Sug'urta muddati sug'urta to'lovining birinchi badali to'langan davrdan boshlanadi.

**Sug'urta yoshi.** Sug'urta yoshi deganda sug'urtalanuvchi fuqarolar yoki chorva mollarining yoshi (biologik kattaligi) ko'zda tutiladi. Har bir shaxsiy sug'urta obyekti bo'yicha masalan fuqarolarning qaysi yoshidan boshlab qaysi yoshgacha sug'urta qilinishi, chorva mollarining qaysi yoshidan sug'urtalash boshlanishi ko'zda tutiladi. Qo'shimcha pensiya tayinlash bo'yicha sug'urta badallari har bir yosh bo'yicha ko'rsatiladi. Maktab o'quvchilarini sug'urtalashda ularni yoshlari emas, balki sug'urtalangan yili ko'zda tutiladi. Hozirda aralash sug'urta bo'yicha shartnoma 16 yoshdan 70 yoshgacha bo'lib, shartnoma 3 yil muddatga tuziladi. Chunki sug'urta chegarasi 75 yosh qilib belgilangan.

**Sug'urta hoqimandasi.** Sug'urta badallarini to'lash muddatlari majburiy sug'urta bo'yicha dastur amalda, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha esa sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Agar

badal belgilagan to'lov muddatida to'lanmasa, u holda to'lov boqimandaga aylanadi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanmagan to'lov shartnomani bekor qilinishiga asos bo'ladi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lov muddatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'z vaqtda to'lanmagan to'lov boqimandaga aylanadi, har bir kun uchun peniya hisoblanadi.

**Sug'urta to'lovi.** Sug'urta ta'rifi asosida hisoblangan sug'urta badali. Sug'urta to'lovi sug'urtalangan mol-mulkning xususiyati va egaligiga qarab bir yoki bir necha obyekt bo'yicha hisoblanish mumkin. Shirkat yoki fermer xo'jaliklarida sug'urta to'lovlari hosil, chorva mollari, imoratlar va boshqa mol-mulklar bo'yicha hisoblanib, ularning jami sug'urta to'lovining umumiy miqdorini tashkil qiladi. Agar bir hovlidagi turar joylarda bir necha kishi egalik qilsa, obyektlarni hajmiga qarab sug'urta to'lovi taqsimlanadi. Sug'urta tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri hisoblangan sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash hamda, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urtalanganlarni muddatidan oldin ogohlantirishdan iborat.

**Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'liq atamalar.**

Respublikamiz hududida har yili majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari hisobiga ulkan sug'urta fondlari shakllanadi. Bu fondlarning sarflanishi dastlab xavf-xatarga bog'liq. Agar sug'urta hodisalari ro'y bermasa, zararni qoplashga sarflanadigan mablag'lar kam miqdorni tashkil qiladi, agar yirik miqyoslarda sug'urta hodisalari sodir bo'lsa, ularning yetkazilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta fondidan mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Demak, sug'urta fondi mablag'larini sarflash uchun ularni qanday maqsadlarda foydalanish, sug'urta hodisalarini ko'p yoki kamligiga qarab sug'urta samaradorligi haqida fikr yuritish uchun dastlab quyidagi atamalar mazmuni bilan tanishish lozim bo'ladi:

- Sug'urta xavf-xatari.
- Sug'urta hodisasi.
- Sug'urta dalolatnomasi.
- Sug'urta rentasi.

- Sug'urta qoplamasi.

**Sug'urta xavf-xatari.** Rizq so'zining bir qancha mazmun va ma'nosi mavjud. Bularning hammasi xavf-xatar va unga nisbatan javobgarlikni ifoda qiladi. Shu munosabat bilan uni xavf-xatarining turlari deb tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Bu tushuncha sug'urtalangan mulk, sug'urta hodisasi, sug'urta xavfi va boshqa tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi.

**Sug'urta hodisasi** – sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulodda tasodiflardan hirortasi sodir bo'lishi. Bunday hodisalarga mulk sug'urtasida tabiiy ofatlar, yong'in falokat, portlash va boshqalar. Shaxsiy sug'urtada esa ma'lum yoshga yetish sodir bo'ladigan baxtsizlik hodisalari, vafot hodisalari kiradi. Baxtsizlik hodisasi deganda, sug'urtalanganing sog'ligiga va hayotiga zarar keltiruvchi favqulodda hodisalar ko'zda tutiladi. Sug'urta hodisasi natijasida ko'rilgan zarar helgilangan miqdorda sug'urta fondi hisobidan qoplanadi.

**Sug'urta dalolatnomasi (akti)** – sug'urta hodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini isbotlab beruvchi rasmiy hujjat. Mulk sug'urtasida dalolatnoma asosida zarar miqdori va unga to'lanadigan qoplama miqdori aniqlanadi. Hujjat qoplama olishda asos bo'ladi. Shaxsiy sug'urtada sug'urta dalolatnomasi baxtsizlik hodisasini tasdiqlash, uning sug'urtalanuvchini bu hodisa xizmat vazifalarini bajarishda yoki yo'lda bo'lganida sodir bo'lganini aniqlashga imkon beradi. Sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha dalolatnoma talab qilinmaydi, tibbiyot tashkilotining ma'lumotnomasi yetarli bo'ladi.

**Sug'urtada zarar.** Sug'urtada zarar deganda sug'urta bahosida ishlab chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk bahosi tushuniladi. Yetkazilgan zararning to'la yoki qisman sug'urtalanuvchiga to'lanishi sug'urta qoplamasi deb ataladi.

**Sug'urta rentasi.** Qo'shimcha pensiya sug'urtasi asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan daromad. Qo'shimcha pensiya sug'urtasida agar badallarni o'z vaqtida to'lab berilgan bo'lsa, pensiya yoshiga chiqqan oydan boshlab, qo'shimcha pensiya to'lanadi.

**Sug'urta qoplamasi.** Sug'urta hodisasi sodir bo'lgani tufayli yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag'.

**Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy sug'urta atamalari.**

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tadbirlarini kengaytirish, xorijiy tajribalardan samarali foydalanishni taqazo etadi. Bu tadbirni amalga oshirishining dastlabki shartlaridan biri xalqaro sug'urta atamalarini o'rganish va ularning mazmuni bilan yaqindan tanishishdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan xalqaro atamalarning soni kun sayin ortib bormoqda. Lekin ularning ko'plari o'zbek tilida o'z ekvivalentlariga ega emaslar. Shu munosabat bilan xorijiy sug'urta atamalarini tanlashda birinchi navbatda hozirgi amaliyotda qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilayotgan atamalarga izoh berib o'tamiz.

Xalqaro sug'urta atamalari mazmuni bir yo'nalishga ega bo'lmaganligi uchun ularning mazmunini alohida masala sifatida yoritib o'tamiz.

**Sug'urta hozori nima.** Sug'urta bozori bir necha sug'urta tashkiloti bilan shakllanib, undagi har bir sug'urta tashkiloti vakili o'z sug'urta tashkilotining faoliyati, taklif qilinadigan sug'urta turlari va shartlari haqida bo'lajak sug'urtalanuvchilarni tanishtiradi va ularning birortasini tanlashga yordam beradi. lozim bo'lganda sug'urta shartnomasini rasmiylashtiradi. Sug'urta bozori bir shahar, mamlakat miqyosida emas, balki bir necha mamlakat miqyosida, xalqaro sug'urta hozori sifatida shakllanadi, shuningdek, qayta sug'urtalash tadbirlarini ham amalga oshirishda yordam beradi.

**Sug'urta portfeli.** Sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan badallar yig'indisi yoki tuzilgan va to'langan shartnomalar soni.

**Sug'urta bonusi.** Transport sug'urtasida qo'llaniladigan atama bo'lib, bu orqali uzoq yillar davomida falokatsiz ishlagan sug'urtalanuvchilarga sug'urta badali hisobidan beriladigan yengilliklar. Bu yengilliklar 2-3 oyga sug'urta badalidan ozod qilish yoki sug'urta badaliga nisbatan foiz hisobidan yengilliklar berish tarzida amalga oshiriladi.

**Kargo sug'urtasi.** Transport vositalaridagi barcha tashiladigan yuklarni transport vositalarsiz sug'urta qilinishi. Bunday sug'urta tashkiloti faqat sug'urtalangan yuklar uchun javobgar hisoblanadi.

**Kasko sug'urtasi.** Kasko sug'urtasida faqat transport vositalari sug'urta qilinadi. Agar transport vositasi egasiga qarashli bo'lsa, u holda har ikki sug'urta vositasi kargo va kasko turlaridan foydalanish mumkin.

**Pul deb ataluvchi sug'urta tashkiloti.** O'z miqyosi jihatdan ulkan obyekt jihatdan xavfli sug'urta hodisalari birgalikda himoya qilish uchun tuzilgan tashkilot. Tashkilot sug'urta kompaniyalariga vagona polis berib, bu hujjatda har bir a'zoning sug'urtalashdagi hissasi ko'rsatiladi.

**Shomaj nima.** Ishlab chiqarish turli hodisalar oqibatida yong'in to'xtab qolishi natijasida olinishi kutilgan foyda miqdori kamayib ketishi mumkin. Shomaj ko'riladigan zararlarni ko'zda tutib sug'urtalash usuli.

**Sug'urta franshizasi.** Turli sabablar bilan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti hisobidan qoplanmaydigan qismi, franshiza qo'llanilganda zarar miqdori ikkiga bo'linadi: birinchisi sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadigan qismi, ikkinchisi qoplanmaydigan qismi. Bu nisbat sug'urta dastur amalda ko'rsatiladi, masalan, franshiza miqdori 100 dollar miqdorida qo'llanilsa, keltirilgan zarar 90 dollar bo'lsa, zarar qoplanmaydi. Agar 100 dollardan oshsa, ya'ni 200 dollarni tashkil qilsa, u holda 100 dollar qoplanib, qolgan qismini franshiza tashkil qiladi. Hozirda mamlakatimizda mol-mulk ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha franshiza qo'llanilishi bu haqidagi dastur amalda ko'rsatilgan.

**Sug'urta brokeri.** Sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchining sug'urtalash va sug'urta shartnomasini bajarishda o'zaro munosabatlarni o'rnatuvchi shaxs. Broker sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urtalanuvchilar bilan bevosita ish olib boradi, sug'urta shartnomasi tuzishda, sug'urta hodisasi natijasida moddiy zarar yetganda qoplama miqdorini aniqlashda, hatto sug'urta qoplamasini sug'urtalanuvchiga topshirishda unga yordam beradi.

**Sug'urta auditori.** Sug'urta auditori hissadorlik jamiyatlari va boshqa xususiy hissadorlik uyushmalarini moliyaviy xo'jalik faoliyatlari ustidan mustaqil tekshirishga vakil qilingan shaxs. Maxsus tashkilot yoki shaxs, auditor mustaqil ish ko'ruvchi firma



sifatida sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini yuqori saviyada har tomonlama tekshirib, o'z xulosasini taqdim etadi.

Ayrim sug'urta tashkiloti yoki sug'urtalanuvchi haqida aniq ma'lumotlar lozim bo'lganda auditorlik tashkilotiga murojaat qilinadi. Auditor vazifasini bajargan shaxs, o'z xulosalari uchun javob beradi. Auditorlar lavozimini egallash uchun maxsus tayyorgarlik va ko'p yillik tajriba talab qilinadi. Auditorlar qisqa muddatli ko'rsalarda o'z malakalarini oshiradilar.

**Auderrayter.** Turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. U shartnomalarni tuzish, risklarni baholash va sug'urta ta'rif stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'ladi.

**Binder.** Sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vaqtincha tuzilgan shartnoma. Bu kelgusida shartnoma tuzish uchun asos bo'ladi.

**Yashil karta.** Avtotransport egalari uchun fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi haqida xalqaro shartnomalar tuzish.

**Lloyd.** Londonda joylashgan xalqaro bozori. London Sitida joylashgan (1688-yil).

**Ritorno.** Sug'urtalanuvchi tomonidan shartnoma bekor qilinadi. Badalning bir qismini ushlab qolinishi.

## 1.2. Sug'urta hozori va uning tarkibiy tuzilishi

Sug'urta munosabatarining turlichaligini tartibga solish va o'zaro bog'liq yagona tizimini shakllantirish uchun sug'urtani turkumlash zarurdir.

Sug'urtani sohalarga bo'lish asosida ularning obyektlari bo'yicha farqlanishi yotadi. Bu omilga mos ravishda barcha sug'urta munosabatlari yig'indisini to'rtta tarmoqqa bo'lish mumkin.

1. Mulkiy sug'urta.
2. Shaxsiy sug'urta.
3. Javobgarlik sug'urta.
4. Tadbirkorlik tayakkalchiliklari sug'urtasi.

Mulkiy sug'urta obyekti bo'lib moddiy qiymatliklar hisoblanadi. Shaxsiy sug'urtada — fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati. Javobgarlik sug'urtasida — obyekt bo'lib


sug'urtalanuvchilarning turli javobgarliklari, ma'suliyatlari hisoblanadi. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa, obyekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi.

Sug'urta bozori – bu sug'urta holatlari ro'y berganda jismoniy va huquqiy shaxslarni mulkiy manfaatlarini sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy shartli sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalanuvchilarning mavjudligidir. Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashkiliy-huquqiy va hududiy jihatlari bo'yicha bo'linishi mumkin. Tashkiliy-huquqiy jihatdan aksioner, birgalikdagi, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi. Hududiy jihatdan esa milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori birdan-bir mamlakat hududidagi sug'urta kompaniyalarini va ularning faoliyatini qamrab oladi. Bunga O'zbekiston sug'urta bozorini misol qilib olishimiz mumkin. Hozirgi kunda milliy sug'urta bozorimizda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yiriklari davlat mulki davlat mulki ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari bo'lib, ular «O'zagrosug'urta» DASK, «Kafolat» DASK, «O'zbekinvest» EIMSK, va «Madad» sug'urta agentliklaridir. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushunilarining qariyb qirq foizidan AQSh hissasiga to'g'ri keladi.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda, savdo-iqtisodiy va hoshqa jihatlardan o'zaro yong'in munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlar hududlarini qamrab oluvchi bozor tushuniladi. Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi mamlakatlarning sug'urta bozori tushuniladi. Sug'urta bozori bozor munosabatlari subyektlarining mustaqilligini, ularning sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha teng huquqli hamkorligini ko'zda tutadi.

Sug'urta bozorining subyektlari quyidagilardan iborat:

1. O'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urtalanuvchilar).



2. Bunday xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar (sug'urtalovchilar).

3. Mazkur shaxslar o'rtasidagi vositalar (sug'urta agentlari va brokerlar).

4. Sug'urtalangan shaxslar.

5. Manfaatdor shaxslar (naf oluvchilar).

6. Uchinchi shaxslar.

Ichki sug'urta bozorini moliyaviy tarkibini sug'urta tashkilotlarining moddiy va moliyaviy resurslari tashkil qiladi. Sug'urta bozorining asosiy vazifasi sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish (marketing, reklama), shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini sotish, maqsadga muvofiq va egiluvchan ta'rif siyosatini olib borish, o'z infratuzilmasini tartibga solish hisoblandi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering?
2. Sug'urtaning funksiyalari nimalardan iborat?
3. Sug'urtani turkumlashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Sug'urta tarmoqlar bo'yicha qanday guruhlar bo'linadi?
5. Sug'urta bozorining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntirib bering?
6. Sug'urta bozorining qanday turlari mavjud?
7. Sug'urta atamasi deganda nimani tushunasiz?
8. Sug'urta tushunchalari nimalardan iborat?
9. Majhuriy sug'urta deb nimaga aytiladi?
10. Ixtiyoriy sug'urta deb nimaga aytiladi?
11. Sug'urta fondi deganda nima tushuniladi?

## II BOB. SUG'URTA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TASHKILIY- HUQUQIY SHAKLLARI

2.1. Sug'urta huquqi va uning mazmuni.

2.2. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni: uning tuzilishi va mazmuni.

### 2.1. Sug'urta huquqi va uning mazmuni

Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o'z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo'ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya'ni fuqarolar va tashkilotlarning xatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to'latigacha sug'urtaga ham taalluqlidir. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug'urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sug'urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

✓ fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;

✓ sug'urta tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar;

✓ fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;

✓ sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga

asoslanadi. Bunda bir tomondan sug'urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug'urta tashkiloti oldidagi hurch va majburiyatlari paydo bo'ladi. Ya'ni, tuzilgan shartnomaga ko'ra, fuqaro o'z vaqtida sug'urta mukofotini to'lashi shart. Sug'urta hodisasi ro'y berganda esa, sug'urta tashkiloti sug'urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug'urta qoplamasi (summasini) fuqaroga to'lab berishi lozim. Ko'rinib turibdiki, shartnoma fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning o'zaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti.

Sug'urta tashkilotlarining bir-birlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sug'urta pulini va qayta sug'urta qilish bilan bog'liq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, sug'urta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni ta'minlash binobarin, sug'urtalanuvchilar oldida o'z majburiyatini bajarishini ta'minlash maqsadida sug'urta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sug'urta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin» deb alohida qayd etilgan.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida hoshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sug'urtalanuvchilar bo'lgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bog'liqdir. Amaliyotda shunday holatlar bo'ladiki, sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchiga sug'urta

hodisasi tufayli ko'rilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda o'z manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sug'urtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sug'urta tashkilotlariga nishatan paydo bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sug'urta faoliyati» to'g'risidagi Qonunda o'z aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat bo'lganda esa, sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sug'urtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sug'urta munosabati qatnashchilarining xatti-harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan ko'rib bo'lmaydigan sug'urtaviy himoya qilish uchun ko'pchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sug'urta faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig'indisiga sug'urta huquqi deyiladi.

Sug'urta huquqi bu inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar hamda talofatlarni jismoniy va yuridik shaxslar tulagan sug'urta badallari (sug'urta puli)dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to'liq va qisman qoplash yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug'urtalanishini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi, o'z ichida ommaviy hamda xususiy huquq me'yorlarini mujassam etgan tuzilmadir. Sodaroq qilib aytganda sug'urta huquqi o'z huquq me'yorlaridan iborat bo'lib, bu me'yorlar sug'urta munosabatlariga qirishuvchi barcha sug'urta subyektlarining xatti-harakatlarini

tartibga solishga xizmat qiladi. Ya'ni sug'urta huquqi – bu sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy meyorlarlar tizimidir.<sup>2</sup>

Hozirgi kunga kelib dunyo olimlari o'rtasida sug'urta huquqining huquq tizimidagi o'rni mavzusida bahs ketmoqda. Ko'pgina sivilist olimlar sug'urta huquqini alohida huquq tarmog'i sifatida baholashsa (K.A. Grave, L.A.Lunts, Yu.K. Tolstoy), V.N. Yakovlev va O.V. Krasavchikov sug'urta huquqiga huquq instituti deb baho berishadi.

Sug'urta huquqi turli xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kompleks tuzilma sifatida fuqarolik huquqining alohida institutlarini, hamda davlat, ma'muriy, moliyaviy huquqlarning yuridik normalarini o'z ichiga kamrab oladi. Masalan, sug'urta huquqi subyektlari yoki sug'urta shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar masalasi bevosita Fuqarolik huquqi bilan tartibga solib bo'lingan masalalar. Majburiy sug'urta yoki sug'urta tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashtirish masalalari bevosita davlat huquqi bilan bog'liqligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Ya'ni, sug'urta huquqi hali alohida tarmoq sifatida emas balki, yana bir bor qaytarib o'tamiz, kompleks tuzilma sifatida O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida o'z o'rnini egallab turibdi. Davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi, xususiy mulkning, kichik va o'rta biznesning, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlarning avtonomiyasiga olib kelishi, ya'ni sug'urta huquqining alohida huquq tarmog'i sifatida shakllanishiga olib kelishi aniq.

Sug'urta huquqining alohida tarmoq sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun hozirgi kunda zamin mavjudligi uning boshqa huquq tarmoqlari singari, avvalambor, o'z predmeti borligida namoyon bo'ladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini sug'urta qilish orqali himoya qilishdan kelib chiqadigan ijtimoiy (iqtisodiy) munosabatlari sug'urta huquqi predmeti hisoblanadi. Soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, o'z mulkiy manfaatlarini sug'urta qilmokchi bo'lgan shaxsning (xoh yuridik, xoh jismoniy), unda bu istak paydo

bo'lgan davrdan to sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan barcha huquq va majburiyatlar bajarilgunga qadar, o'z mulkiy manfaatlarini sug'urta orqali himoya qilish uchun amalga oshiradigan barcha xatti-harakatlari sug'urta huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Bunda sug'urta munosabati qatnashchilarining huquqiy holati, sug'urta shartnomlari va ulardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar va shu kabi boshqa masalalar yuzaga chiqadi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi sug'urta huquqi to'g'risida gapirar ekanmiz, uni hali endi shakllanib borayotgan, lekin respublikamiz iqtisodini rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan huquq tarmog'i sifatida baholashimiz mumkin.

## 2.2. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni: uning tuzilishi va mazmuni

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ikki turga bo'lish mumkin:

- ✓ sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar;
- ✓ sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlar.

Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002-yilning 5-aprelida qabul qilingan va shu yilning 28-mayida amaliyotga joriy etilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni hamda 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi Qonuni sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993-yili Oliy Majlis "Sug'urta to'g'risida" Qonun qabul qilgan edi. O'tgan yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun o'sha paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu qonun sug'urta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi. Jumladan, unda sug'urta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning sug'urtalanuvchilar o'ldiridagi majburiyatini bajarish tartibi to'liq yoritilmagan.

<sup>2</sup> George E.Rejda "Principles of Risk Management and Insurance", 10th ed p cm,2008

Shuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi o'z aksini topmagan hamda davlat sug'urta nazorati organining sug'urta tashkilotlariga nisbatan ta'sir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablarini hisobga olgan holda, amaldagi "Sug'urta to'g'risida"gi Qonunni yangilash va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. SHuni e'tiborga olib, 2002-yilning 4. 5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

Ma'lumki, sug'urta sohasini huquqiy tartibga soluvchi 2002-yil aprel oyigacha amalda bo'lgan qonun "Sug'urta to'g'risida" deb ataladi.

Holbuki, biz fikr-mulohaza yuritmoqchi bo'lgan qonunning nomi esa "Sug'urta faoliyati to'g'risida" deyiladi va shubhasiz, bu holat diqqatimizni o'ziga jalb etdi. Ko'pchilik muhtaram talabalarimizda haqli savol tug'ilishi mumkin: sug'urta va sug'urta faoliyati tushunchalari o'rtasida farq bormi? Savolga javoban biz mutaxassislar aytamizki: farq bor. Sug'urtaning mohiyatini oddiy til bilan ifodalaydigan bo'lsak, oldindan ko'rib bo'lmaydigan har xil hodisalar ro'y berishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslar ko'radigan zararlarni sug'urta tashkiloti tomonidan qoplash bilan bog'liq munosabat. Shuni esdan chiqarimaslik lozimki, sug'urta tashkiloti o'z xizmatini mijozlarga tegishli haq – sug'urta mukofoti to'lash evaziga ko'rsatadi.

Sug'urtalovchi mijozlardan kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etadi va bu jamg'arma mablag'lari faqat sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplaydi. E'tibor bergan bo'lsangiz, sug'urta munosabatlarida ikkita tomon ishtirok etyapti: sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) va yuridik hamda jismoniy shaxslar (sug'urtalanuvchilar). Endi, sug'urta faoliyati tushunchasiga kelsak, qonunda ta'kidlanishicha, u sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faqatgina sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchidan iborat emas. Unda qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, sug'urta brokerlari va agentlari ham ishtirok etadi.

Yangi qonunning e'tiborga molik tomonlaridan biri, unda, aniqroq aytadigan bo'lsak, uning 4-moddasida sug'urtalovchilarning sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi qayd etilgan. Qayd etish joizki, sug'urta faoliyati ham tadbirkorlikning bir ko'rinishi Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kechayotgan va tadbirkorlik harakatlariga keng yo'l ochilayotgan bir paytda, tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan-sug'urtalovchilar uchun bunday cheklovning qonun yo'li bilan belgilanishiga sabab nima? O'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'pgina sug'urta tashkilotlari "sug'urtalovchi" niqobi ostida turli tijorat operatsiyalarini, xususan, savdo-vositachilik ishlarini amalga oshirdilar.

Yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urta qilish hisobiga kelib tushgan sug'urta mukofotlari, qoidaga ko'ra, sug'urta qoplamalarini to'lashga mo'ljallangan zaxira jamg'armalarini tashkil etishga sarflanmasdan, balki sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga sarflangan holatlar ham bo'lgan. Sug'urtaning eng asosiy prinsiplaridan biri – sug'urtalovchilarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni ta'minlaydigan sug'urta zaxiralari ega bo'lishidir. Taassufki, ba'zi sug'urtalovchilarimiz, bunday zahiralarni shakllantirmaganliklari oqibatida murakkab moliyaviy holatni boshidan kechirganligi sir emas. Ayniqsa, bu ko'p ming sonli sug'urtalanuvchilar uchun noqulay vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida» Qonunning diqqatga sazovor joylaridan yana biri, uning 10-moddasida sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini aniq ko'rsatib qo'yilganligidir. Ma'lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga ulinganlar. Ammo



uzoq vaqt. aniqrog'i. 1998-yilning birinchi yarmigacha sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug'urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan tashkilotlarning faoliyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatiga olishda muammolar paydo bo'lgan.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun 29 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga bag'ishlangan. Unda jami 47 ta modda mavjud. Kodeks sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun sug'urta tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

3. Qonun osti hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning normativ hujjatlari kiradi.

Mustaqillik davrida sug'urta faoliyati bilan bog'liq bir qancha Prezident farmonlari qabul qilingan. Ulardan biri 1995-yilning 26-iyulida tashkil etilgan «Madad» sug'urta agentligi faoliyati bilan bog'liq Prezident farmonidir. Ushbu farmonga ko'ra, agentlikning faoliyat yo'nalishlari ko'rsatilgan hamda uni 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etilganligi ta'kidlangan. SHu erda qayd etish kerakki, «Madad» sug'urta agentligini tashkil etish bilan bog'liq Prezident Farmonini ijrosini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan.

Shu bilan bir qatorda 1997-yil 18-fevralda «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini, 1997-yilning 25-fevralida esa «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish bo'yicha Prezident farmonlari qabul qilingan. Bu farmonlarda qayd etilgan kompaniyalar 5 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2002-yil 31-yanvarda «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida» Farmon qabul qildi. Bu farmon sug'urta

xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, respublikada sug'urta bozorini taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug'urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilinganligini alohida ta'kidlash joiz. Shuningdek, farmonda 2002-yilning 1-fevralidan boshlab, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, sug'urta tashkilotlari 3 yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilinishi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar aniq maqsadni ko'zlagan holda mazkur tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mintaqalarda keng tarmoqli agentlik shaxobchalarini tashkil etishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirilishi aniq belgilab qo'yilgan.

Shunisi e'tiborliki, soliq olishdan bo'shaydigan mablag'larni tarkibida davlat ulushi bo'lgan sug'urta tashkilotlari ustav jamg'armalarini ko'paytirishga yo'naltirish chog'ida mazkur mablag'lar davlatga tegishli ulush miqdoriga qo'shib hisoblaydi. 2002-yilning 1-fevralidan boshlab to'rt yil mobaynida sug'urta tashkiloti tugatilgan yoki u sug'urta faoliyatini to'xtatgan hollarda daromad (foyda) solig'ining summasi ushbu farmonga muvotiq berilgan butun imtiyozli davr uchun to'liq miqdorda undirib olinadi.

Farmonda belgilab qo'yildiki, yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-xarajatlari daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish chog'ida qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chegirib tashlanadi. 2002-yilning 1-fevralidan boshlab xo'jalik yurituvchi subyektlar xaridorlarga xizmat qiladigan hanklarning kafolatlari yoki eksport shartnomalarining, siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda oldindan haq olmasdan va akkreditiv ochmasdan erkin almashtiriladigan valyutaga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilishlari mumkin.

4. Sug'urta faoliyati klassifikatori – sug'urtalovchilar hamda sug'urta brokerlari sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayonida ularning faoliyat yo'nalishlarini belgilashda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladigan me'yoriy hujjatdir. Sug'urta faoliyati

klassifikatorida keltirilgan klasslar yordamida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmat turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari tuziladi.

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

- ixtiyoriy;
- majburiy.

Sug'urta faoliyati klassifikatorida ikkala turda amalga oshiriladigan sug'urta turlari ham mavjud bo'lib, ular: javobgarlik sug'urtasi, mulkiy sug'urta va hayot sug'urtasiga bo'linadi.

Mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlari bo'yicha klassifikator ham 2002-yil 27-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizomga 1-ilova sifatida sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan.

Mazkur sug'urta faoliyati klassifikatorining qabul qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta faoliyatini amalga oshirishda asos hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati uchun litsenziya olishda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarda ham faoliyat yuritmoqchi bo'lgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta shartnomalaridan nusxa taqdim etilishi shart hamda arizada sug'urta klasslari nomlari ham keltiriladi. Keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha boshqa talablar ham o'rnatilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizom haqida bo'lib, uning sug'urta faoliyati klassifikatorining tarkibi hamda tannog'i kelirilgan.

Ushbu qonun 2002-yil aprel oyida bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan bo'lib, sug'urta munosabatlari professional ishtirokchilarining faoliyatini tartibga solishga

qaratilgan. Qonunda sug'urta tashkilotlarini tashkil qilish, ularni ro'yxatga olish, faoliyatini litsenziyalash kabi masalalar ko'rib, bu masalalarning tartibga solinishi respublika sug'urta bozorini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Qonunda yana bir muhim masala, ya'ni chet el fuqarolarini, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni, chet el yuridik shaxslarini sug'urta qilish masalasi tartibga solinishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu masalalarning yechimi chet el sarmoyalarini olib kirishini faollashtirish davrida e'tiborlidir.

Qonunning maqsadi sug'urta faoliyatidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Qonun 29 maddadan iborat bo'lib, unda sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi huquq va majburiyatlari, sug'urtaning sohalari va uning turlari, sug'urta obyektiga ta'riflar, sug'urta shartnomasini tuzish tartibi, sug'urta bozori qatnashchilari, sug'urta kompaniyalarini tashkil etish tamoyillari, ularning ustav fondi, sug'urta faoliyatini litsenziyalash va chet el sug'urta tashkilotlari faoliyati ko'rsatib o'tilgan.

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi mutaxassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchining boshlang'ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar mutaxassislardan tomonidan shakllantirilgan bo'lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo'lmashligi kerak.

Aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining faoliyati «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun bilan bir qatorda «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunga muvofiq huquqiy tartibga solinadi. Aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari yuqori va ochiq turda tashkil etilishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sug'urta

hozorida boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishmoqda. Ular jumlasiga aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan «O'zagrosug'urta» va «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarini, «Kapital sug'urta» ochiq aksiyadorlik jamiyatlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin

#### Nazorat uchun savollar:

1. Sug'urta huquqi nima?
2. Sug'urta huquqi mazmunini tushuntirib bering.
3. Sug'urta tashkilotlarining qanday mulkiy shakllari mavjud?
4. Sug'urta qonunchiligi va uning tarkibiga kiruvchi qanday asosiy qonunchilik hujjatlarini bilasiz?
5. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni: uning tuzilishi va mazmuni.

### III BOB. SUG'URTA TA'RIF SIYOSATI VA SUG'URTA FAOLIYATI KLASSIFIKATORI

- 3.1. Sug'urta ta'rifi va unga ta'sir etuvchi omillar.
- 3.2. Sug'urta stavkasi turlari va ularni hisoblash.
- 3.3. Umumiy sug'urta tarmog'i va unga oid asosiy sug'urta klasslari.

#### 3.1. Sug'urta ta'rifi va unga ta'sir etuvchi omillar

Sug'urta ta'riflarini optimal darajada belgilash sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaraladi.

Sug'urta ta'riflarini belgilash qator uslubiyatlarga, xususan, ehtimollik nazariyasiga binoan sug'urtachilarda shakllantirilgan ma'lumotlar bazasiga asoslangandir.

Xususan, ta'riflarni belgilashda har bir shartnoma bo'yicha quyidagi:

- sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli;
- sug'urta mukofotining o'rtacha kattaligi;
- to'lanishi ehtimoli bo'lgan sug'urta qoplamasining o'rtacha summasi kabi omillar e'tiborga olinadi.

Risklar transferi bo'yicha ta'riflarni aniqlash uslubiyatlarida obyektlarning o'ziga xosligi to'liq aks etmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'riflarni belgilashda unga ta'sir etuvchi qator omillar qat'iy e'tiborga olingan uslubiyatning samarasi kutilgan darajada bo'lishi mumkin. Xususan, bunday uslubiyat:

- sug'urta obyektlarini tasniflash (guruhlash);
- har bir guruhning o'ziga xos tomonlarini aniqlashtirish;
- o'ziga xos xususiyatlarini son jihatdan baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- har bir guruh obyektlarining umumiy tomonlarini aks ettirgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- ta'riflarni hisoblashning dasturiy ta'minotini yo'lga qo'yish kabi bir qator sa'y-harakatlarni amalga oshirish talab etadi.

Sug'urta faoliyatida zararlilik ko'rsatkichlari o'zgarishi sug'urtachining sug'urtalanuvchilardan undirgan mukofotlari

summasi jamlashi va ularni investitsiyalar bozorida joylashtirishi jarayonidagi vositachi sifatidagi roli bilan ham izohlanadi.

Investitsion faoliyatdan olingan foyda summasi sug'urta kompaniyasining ta'rif siyosatiga ta'sir etuvchi muhim omil sanaladi. Qayd etish lozimki, sug'urta operatsiyalaridan ko'rilgan zararni investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisobidan subsidiya qilinishiga bo'lgan munosabat ham turlichadir. Xususan, bunday faoliyat, bir tomondan, mablag'lar taqchilligida raqobatga mos bo'lgan ta'rif siyosatini yuritish uchun aynan investitsiyalar bozorida qulay kon'yunkturaning yuzaga kelishi hisobiga zaxirani talab darajasida shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltirsa, boshqa tomondan, aynan shunday faoliyatdan olingan daromad hisobiga texnik natijalarni tenglashtirish uchun sug'urta fondidan jalb etiladigan mablag'lar yetarli darajada bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida qaralayotganligini ham qayd etib o'tish lozimdir. Mazkur holat sug'urtachining o'z javobgarligiga qabul qilgan risk bo'yicha nazorati sustlashuvining omili bo'lmasligi lozim.

Hozirga qadar, sug'urta amaliyotida majburiyatlar hajmi, erkin aktivlarning tuzilishi va bahosi, moliyaviy kafillik ta'minlanganligi, sug'urta portfelining ratsional shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan risklar taqsimoti, sug'urta zaxiralari shakllantirilishi borasida yagona bir kontseptsiya ishlab chiqilmagan. Shu bois sug'urta tashkilotlari bu muammolarni emperik tarzda hal etishga majbur bo'lmoqda.

### 3.2. Sug'urta stavkasi turlari va ularni hisoblash

Har qanday sug'urta turi bo'yicha ta'riflar hisob-kitobi (aktuar hisob-kitoblar)da aniq sug'urta obyektining qiymati hisoblab chiqiladi. Umuman, aktuar hisob-kitoblar yordamida sug'urta xizmatini hamda sug'urtachi tomonidan sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan xizmatining qancha turishi aniqlanadi.

Sug'urtani amalga oshirish xarajatlarini hisoblash (actuary) deb ataladi. Uning yordamida shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotlari hamda sug'urtachining ish yuritish xarajatlari summasi, ya'ni mazkur xizmat tannarxi hisoblab chiqiladi. Sug'urta faoliyatida

aktuar hisob-kitoblarning o'ziga xos tomonlari ham mavjud va ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- baholanayotgan risklar doimo ehtimollik xarakteriga ega bo'lishi;

- ayrim yillarda umumiy qonuniyatlarga zid turkum tasodifiy hodisalar yuz berishi, ularning ta'siri, o'z navbatida, sug'urta tashkilotidan talab etiladigan sug'urta qoplamasi to'lovi summasining sezilarli o'zgarishini taqozo etadi;

- sug'urtachi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat tannarxi sug'urta munosabatlari yig'indisidan keltirilib chiqarilishi;

- sug'urtachi ixtiyorida bo'ladigan maxsus zaxirani ajratish, uning optimal taxmini aniqlash talab etilishi;

- sug'urta shartnomalari ko'rsatkichlarini (inglizcha «storno») hashorat qilish hamda ular bo'yicha ekspert bahosi talab etilishi;

- qarz (ssuda) foizlari me'yorlarini va uniq vaqt oralig'ida ularning o'zgarish an'alarini tadqiq etish taqozo etilishi;

- sug'urta hodisasi bilan bog'liq holda to'liq yoki qqisman zararlar yuzaga kelishi hamda ular kattaligining kenglik va vaqtda taqsimlanishiga maxsus jadvallar yordamida o'zgarishlar kiritish talabi namoyon bo'lishi;

- ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta mukofotlari va sug'urta tashkiloti tomonidan ta'rif davrida ko'rsatilayotgan sug'urta ta'minoti o'rtasida o'zaro tenglik o'rnatilishi taqozo etilishi;

- umumiy sug'urta doirasida risklarni aniqlashtirish va ularni guruhlash talab etilishi kabilar.

Sug'urta to'lovlari hajmining hisob-kitoblari aynan bir mamlakat, alohida bir hududning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, shuningdek, risk yuz berishi ehtimolining vaqt va kenglikdagi xilma-xilligi asosida aniqlanadi. Masalan, sug'urtalangan obyektlar soni 100 ta, har bir obyekt bo'yicha sug'urta summasi 2 mln so'm bo'lsa, risk ehtimoli 2 foiz darajasida ( $0,02 \times 100 \times 2 \text{ mln so'm}$ ) hamda zarar sug'urta summasiga teng yoki undan katta bo'lganida, mazkur umumiy sug'urta doirasidagi bu sug'urta turi bo'yicha yillik sug'urta qoplamasi, ya'ni netto-stavka aynan 4 mln so'mni tashkil etadi.

Aniqlangan sug'urta qoplamasini sug'urtalangan obyektlar soniga bo'lsak, umumiy sug'urta zaxirasiga har bir sug'urtalanuvchi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti 40 ming so'm (0,02 x 2 mln so'm) ekanligi aniqlanadi. Har bir sug'urtalanuvchi aynan shuncha sug'urta mukofotini to'lashi kerak. Sug'urta summasining birligi sifatida 1000, 100 yoki 1 so'm olinishi mumkin.

Ta'rif stavkasi yordamida har bir sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti aniqlanadi. Buning uchun shartnomada qayd etilgan sug'urta summasi ta'rif stavkasiga ko'paytiriladi. Masalan, ta'rif stavkasi har 100 so'mdan 2 so'm darajasida belgilangan bo'lsa, shartnoma bo'yicha sug'urta summasi 5 mln so'mga teng bo'lganda, sug'urta mukofotining kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

$$(2 \text{ so'm} \times 5 \text{ mln so'm}) : 100 \text{ so'm} = 100 \text{ 000 so'm.}$$

Sug'urta ta'rif stavkasi sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Uning to'g'ri hisoblab chiqilganligi muhimdir. Sug'urta sug'urta ta'rif asosida undirilgan sug'urta mukofotlari hisobidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq hajmda bajarilishini ta'minlaydi, ya'ni sug'urta faoliyatini amalga oshirish xarajatlarini qoplaydi.

Sug'urta risklari sezilarli darajada kam yuz bergan yoki sug'urta hodisasi oqibatida ko'rilgan zarar ko'lumi katta bo'lmagan yillar hisobiga sug'urtachining daromad (foyda) olish ehtimoli ortadi. Shuni ham nazarda tutish lozimki, aniq natijalar hisob-kitobida hisobot davri davomida xabar qilingan, ammo sug'urta qoplamasi amalga oshirilmagan zarar sug'urta tashkiloti faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlariga ham sezilarli ta'sir etadi. Sug'urta ta'rifining risk yuz berishi ehtimoliga nisbatan yuqori darajada ko'rsatilishi bir tomondan, mijoz bilan sug'urta shartnomasi tuzilmay qolishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urtaning sug'urta bozoridagi raqobatbardoshligiga ham salbiy ta'sir etadi. Va aksincha, ta'rif stavkasining past darajada belgilanishi sug'urtachi mablag'ining taqchilligini keltirib chiqarishi oqibatida, sug'urtalanuvchi ko'rgan zararining sug'urta qoplamasi amalga oshirilmay qolinishiga olib kelishi mumkin, ammo bunday holat amaliyotda deyarli uchramaydi. Sug'urta mukofotlarining stavkalari

ta'rif davri uchun hisoblab chiqiladi, ya'ni ta'rif hisoblari asosida belgilangan davr uchun ekvivalentlik ta'minlanadi. Shunday qilib, har qanday sug'urta turi bo'yicha ta'rif stavkasi brutto-stavka sifatida haraladi va u ikki qismdan: netto-stavka (sug'urta qoplamasi to'lovlari uchun zaxira summasi) va sug'urtachining faoliyat yuritish xarajatlaridan (odatda, u «yuk» deb ataladi) iborat bo'ladi. Brutto-stavkada bu ikkala qismning nisbati, ularning mohiyatidan kelib chiqib, turlicha foizlarda belgilanishi mumkin. Netto-stavka brutto-stavkaning asosini tashkil etadi va uning hissasiga, sug'urta turiga qarab, 60-95 foizgacha ulush to'g'ri kelishi mumkin. «Yuk» hisobiga esa, shunga mos ravishda odatda 5-40 foiz ulush belgilanadi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha qancha sug'urta turi sug'urtalanayotgan bo'lsa, netto-stavka ham shuncha qismdan iborat bo'ladi. Masalan, hayotni saqlash sug'urtalash bo'yicha netto-stavka belgilangan davrgacha yashaganligi uchun, o'lim holati yuz berganligi uchun mehnat faoliyatini yo'qotish holati uchun netto-stavkalardan tashkil topadi.

«Yuk»da sug'urta ishini olib borish xarajatlari aks etadi.

U quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

– ma'muriy-xo'jalik xarajatlari (uning asosini tashkilot shtabidagi xodimlarga to'lanadigan maoshlar summasi tashkil etadi:

– sug'urta polislarini joylashtirganligi uchun haqlar;

– sug'urta agentlari, menejerlar uchun haqlar.

To'lov shakllari, odatda, brutto-stavka yoki «yuk»ka nisbatan foizlarda aniqlanadi. Foiz to'lovlaridan tashqari rag'batlantirishlar ham amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha «yuk» sug'urta ishini yuritish xarajatlari tashqari ogohlantirish zaxirasiga ajratmalar qilish va rejalashtirilgan foyda summalarini ham o'zida aks ettiradi. Brutto-stavkani hisoblashda dastlab netto-stavka aniqlab olinadi, so'ngra unga «yuk» (odatda, brutto-stavkaga nisbatan foizlarda) qo'shib hisoblanadi. Brutto-stavka quyidagicha aniqlanadi:

Bu yerda, MS – brutto-stavka;

NS – netto-stavka;

Yuk(%) – yuk (foizlarda ifodalanadi).

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha ta'riflar me'yoriy hujjatlar bilan o'rnatilsa, ixtiyoriy sug'urtada esa sug'urtachi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Ta'rifni aniqlash uslubiyati, ta'rif stavkasi va uning dastlabki ma'lumotlar manbasi, netto-stavka va «yuk» ulushlari ko'rsatilgan holda ta'rif hisob-kitoblari maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi. Mazkur organ tomonidan ruxsat berilganidan so'ng sug'urta tashkiloti o'zi hisoblab chiqqan sug'urta ta'rifini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Har hir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta ta'rifining hajmi sug'urta obyektini tavsiflovchi qator holatlarni hisobga olgan holda tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilanadi.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha ta'rif stavkasini aniqlashda netto-stavka hisob-kitobi muhim hisoblanadi. Aynan uning hisobidan sug'urtalanuvchilar ko'rgan zararining qoplama to'lovlari amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Sug'urta tashkiloti mukofot undirilishi hisobiga sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug'urtalanuvchi ko'rgan zararni qoplash uchun yetarli miqdordagi summani jamlab olishi muhimdir. Masalan, har yili sug'urtaga qabul qilingan 1000 xonadondan 6 tasi butunlay yonib ketishi hodisasi ro'y beradi deb faraz qilsak, har bir xonadonning bahosi 1 mln so'm bo'lsa, bu holatda sug'urtachi (1 mln. x 6) 6 mln so'm miqdordagi pul fondiga ega bo'lishi talab etiladi. Bu sug'urta qoplamasi summasini sug'urtalangan obyektga soniga bo'lish orqali har bir sug'urtalanuvchiga to'g'ri keladigan (6 mln so'm : 1000=6 ming so'm) sug'urta mukofoti aniqlanadi. Aynan shu summa aniq bir sug'urta obyektini uchun hisoblab chiqilgan netto-stavkadir.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari tomonidan netto-stavkani hisoblash amaliyotda birmuncha murakkabroqdir. Negaki, sug'urtalangan obyektning (bir qismi yoki batamom) zarar ko'rganligi darajasi, sug'urta hodisalari (yong'in, suv toshqini va boshqa) sonining yillar bo'yicha tafovuti, shuningdek, boshqa qator dalillarni ehtimollikka asoslanib, bashorat qilish va hisobga olish kerak bo'ladi. Mol-mulk (bino, uy hayvonlari,

qishloq xo'jaligi ekinlari)ning nirli sug'urta hodisalari (yong'in, kasalliklar, sovuq va shu kabilar) yuz berishi oqibatida zarar ko'rish yoki halokatga uchrashi ehtimoli turlichadir. Shundan kelib chiqib, obyektlarning shartnomada qayd etilishi nazarda tutilayotgan sug'urta hodisalaridan sug'urtalash bo'yicha ta'rif stavkalari ham turlicha belgilanishi mumkin.

Netto-stavka ikki qismdan – sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi va risk «yuki» dan shakllantiriladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi – eng katta ehtimollikka ko'ra, sug'urtalangan obyektlar summasining to'langan sug'urta qoplamasi summasi nisbatidan kelib chiqadi. Masalan, bir avtomobilning narxi 10 mln so'm, uni ta'mirlash 3 mln so'm, yo'l halokati hodisasi doimiyliги koeffitsienti (DAN ma'lumotiga ko'ra) 0,2 bo'lsa, sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi (SSK – 3 mln so'm : 10 mln. x 0,2 x 100 = 6 so'm yoki 6%) 6 foizni tashkil etadi.

Risk qoplamasi to'lovining kattaligi sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolliги darajasiga bog'liq bo'ladi. Risk bo'yicha sug'urta mukofuti uning yuz berish ehtimolliгining vaqt va kenglikdagi holatidan keltirib chiqariladi. Hayot sug'urtasi tarmog'ida risk ehtimoli mijozlar jinsi va yoshiga kop jihatdan aloqador bo'lsa, umumiy sug'urta tarmog'ida esa, nishattan doimiy risk mavjuddir. Ammo ma'lum vaqt oralig'ida risk kattaligi o'zgarishi ham kuzatiladi.

### 3.3. Umumiy sug'urta tarmog'i va unga oid asosiy sug'urta klasslari

Umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taaluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Umumiy sug'urta qilish quyidagi klasslarga bo'linadi:

1 klass. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish: quyidagi hollarda:

a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sug'urtaning qattiq shikastlanishi yoxud;

b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud;

v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklarini, biroq II klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasining yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

II klass. Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish: Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kompensatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda.

III klass. Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish: Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

IV klass. Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish: harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari.

V klass. Aviatsiya sug'urtasi: havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari.

VI klass. Dengiz sug'urtasi: Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari.

VII klass. Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish: Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari.

VIII klass. Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish. Yong'in, portlash, bo'ron, devul, jala, ko'chki, tuproqning

cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7 klasslarda ko'rsatilgan bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari.

IX klass. Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish: VIII klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va hoshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshlab) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari.

X klass. Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish. Yer usti transporti vositalari va hoshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagacha kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XI klass. Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish. Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagacha kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XII klass. Dengiz sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish. Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlagacha kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XIII klass. Umumiy fuqarolik javobgarlikni sug'urta qilish: 10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XIV klass. Kreditlarni sug'urta qilish: Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati hajarilmasligi (nochorlikdan

tashqari) natijada sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XV klass. Kafolatlikni (kafolatlarni) sug'urta qilish: Sug'urta qildiruvchining o'ziga bergan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XVI klass. Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish:

b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari);

v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

XVII klass. Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish. Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari.

## SUG'URTA FAOLIYATI KLASSIFIKATORI

### 1. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: – sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; – sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilish davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno



II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetgunigacha qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tuzayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

## 2. Umumiy sug'urta tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kash kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining helgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami. hiroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
5-klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, hajar va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, hiron, dovul, jala, ko'chki, taproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (5 va 7-klasslarda ko'rsatilganlur bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l. qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi. huzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi. uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlagi kiradi. uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmastligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi ma'buriyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'tani kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nuhudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

#### Nazorat uchun savollar:

1. Sug'urta riski to'g'risida o'z fikringizni bayon eting.
2. Ta'rif stavkasining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Brutto va netto stavkalari to'g'risida ma'lumot bering.
4. Brutto stavkasining aniqlanish usuli to'g'risida tushuncha bering.
5. Netto stavkasining aniqlanish usuli to'g'risida tushuncha bering.
6. Sug'urta ta'rifiga ta'sir etuvchi omillar.

## IV BOB. HAYOT SUG'URTASI VA SHAXSIY SUG'URTA.

4.1. Hayot sug'urtasi haqida tushuncha va uning jamg'arilish funksiyasi.

4.2. Hayot sug'urtasining asosiy turlari (klasslari).

### 4.1. Hayot sug'urtasi haqida tushuncha va uning jamg'arilish funksiyasi.

Ijtimoiy taraqqiyotimizning ilk davrlaridan boshlab, sug'urtaning turli shakllari vujudga kelgan. Jumladan, hayot sug'urta insonning hayoti, uning tug'ilishi, balog'at yoshiga yetish davri, nikohni rasmiylashtirish, baxtsiz hodisalardan, umrbod sug'urtalash bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro sug'urta tajribasida hayot sug'urta obyektini inson hayoti va uning sog'lig'i, mehnatga layoqatliligi hamda uning vafoti bilan bog'liq jarayonlarni o'zaro mujassamlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni (2001-yil 7-dekabr) loyihasi 9-moddasida hayotni sug'urta qilish jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va qo'shimcha pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish ekanligi, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etishi va sug'urta summalarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni (annuitetlarni) o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarni qamrab olishi alohida ko'rsatib o'tilgan. Respublikamizning jahon sug'urta bozori bilan bog'langanligi mamlakatimizda milliy sug'urta bozorini kengaytirish va hayot sug'urtasini rivojlantirish imkonini bermogda.

Hayot sug'urtasi jamg'arma tarzida amalga oshadi hamda u tavakkalchilik xususiyatiga ega bo'ladi. Hayot sug'urtasi tajribadan ma'lumki, uzoq muddatga aralash, alohida hamda umrbod sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi. Hayot sug'urtasi qator vazifalarni bajarishi, uning jamg'arilgan summasini boshqa kishiga berilishi, bolaga stipendiya fondi sifatida qoldirilishi ham mumkin.

Hayot sug'urtasining tavakkal darajasi uzoq yashash, o'lim, jarohat, fuqarolik shaklining o'zgarishi, ya'ni nikohdan o'tish va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Sug'urta tizimi. o'z navbatida, pensiyalar bilan ham chambarchas bog'liq hisoblanadi:

- turli mulk shaklidagi korxonalarining sug'urta badallari;
  - fuqarolar, shu jumladan, advokatlar va tadbirkorlarning sug'urta badallari:
  - respublika byudjetidan harbiy xizmatchilarga pensiyalar to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar;
  - davlat bandlik fondidan pensiya fondiga kelib tushadigan mablag'lar;
  - yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;
  - tijorat operatsiyalardan keladigan daromadlar pensiya fondining yuzaga kelish manbalari hisoblanadi.
- Pensiya fondida to'plangan mablag'lar quyidagi maqsadlar uchun yo'naltiriladi:
- turli pensiyalarni to'lash uchun;
  - qariyalar, mehnatga layoqatsiz fuqarolarga yordam ko'rsatish uchun;
  - yosh onalar bolalariga qaraganligi uchun ularga nafaqa to'lovlarini berish;
  - boshqaruv organlarini saqlash va pensiya fondi modiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun;
  - pensionerlar, nogironlar hamda bolalarni ijtimoiy himoyalash dasturlarini moliyalashtirish uchun;
  - pensiya fondi tijorat operatsiyalarini bajarish uchun;
  - pensiya fondi ustav faoliyatida ko'zda tutilgan boshqa tadbirlar uchun.

Mamlakatimizda pensiya fondiga alohida e'tibor berilayotgani, mamlakat miqyosida har bir pensionerga pensiya puli o'z vaqtida to'lanib kelayotganligi diqqatga sazovordir. Respublikamizda hozirgi paytda ko'plab xayriya fondlari qizg'in faoliyat olib bormoqda. O'z navbatida xayriya jamg'armalari rivojlanishida quyidagi omillar samarali ta'sir etadi:

- xayriya tadbirkorlikning bir qismiga aylanganida;
- turli xayriya fondlariga mablag' ajratish orqali yirik pul mablag'lari egalari soliqlardan ozod etilganida yoki ularga turli imtiyozlar berilganda;

- yirik mulk egalari o'z kapitallarini daromad solig'i va merosdan olinadigan soliqdan ozod qilishga erishganida.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yirik mulk egalari va korporatsiyalar xayriya fondlarini tashkil etish orqali maorif, ilmiy-tekshirish institutlari, madaniyat markazlari, maohitlar, madrasalar va turli jamoat tashkilotlarini moliyalashtirish uchun pul mablag'lari ajratudilar.

Xayriya fondlariga pul mablag'lari berilishi yirik pul tushumlari yoki aksiyalar paketi ko'rinishida amalga oshadi. Bular hisobidan xayriya fondlari kapital bozorida turli qimmatli qog'ozlar olish yoki olgan qimmatli qog'ozlari uchun dividendlar olish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Shu asosda ularning kapitallari ko'payib boradi.

Xayriya fondlarining passiv operatsiyalari pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi xayriya tushumlaridan iborat bo'ladi. Aktiv operatsiyalar deganda mablag'larni turli qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk uchun yo'naltirish tushunuladi.

AQSh dunyoda xayriya fondlarini tashkil etish bo'yicha yetakchi o'rin egallaydi. Bu mamlakatda xayriya fondlari Karnegi, Ford, Rokteller va boshqa boy oilalarning shaxsiy mablag'lari hisobidan urushgacha bo'lgan davrdayoq tashkil etila boshlangan edi. Xayriya fondlari keyinchalik Yevropa mamlakatlari hamda Yaponiyada tashkil etildi va bu fondlar hozirga qadar qizg'in faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

#### 4.2. Hayot sug'urtasining asosiy turlari (klasslari)

Hayotni sug'urta qilish quyidagi klasslardan iborat:

I klass. Hayot va annuitetlar. Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majhuriyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami:

- sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgunigacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi;

- sug'urta qilinuvchining vafot etishi;

Shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno.

II klass. Nikoh va tug'ilish. Nikohga kirishda yoki bola tuqilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami.

III klass. Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish. Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami.

IV klass. Sog'liqni sug'urta qilish. Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summolari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibga bekor qilinishini yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

Evropa ittifoqi mamlakatlarida hayotni sug'urta qilishning quyidag ixtimollari ham bor:

V klass. Tontinlar;

VI klass. Zayom sotib olinishi uchun sug'urta;

VII klass. Nafaqa sug'urtasi.

### Hayot sug'urtasida shartnomalarni tuzish va unda ta'riflarning tabaqalashtirish

Hayot sug'urtasini tuzishdan oldin, ya'ni shartnoma imzolashgacha sug'urtalanuvchi vrach ko'rigidan o'tishi SPIDga harshi testdan o'tishi kerak. Sug'urtalanuvchining tibbiyot kartochkasi puxta o'rganilib, uning sog'lig'i talabga javob bergan taqdirda sug'urta shartnomasi tuziladi.

Hozirgi paytda hayotni sug'urtalash bo'yicha shartnomalar mamlakatimiz fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan 16 yoshdan hoshlab 1-3 yilga, 5-10 yilga, 15-20 yilga tuziladi. Shuni ta'kidlash lozimki, shartnoma tugash muhlati kelganda, sug'urtalanuvchining yoshi 80 dan oshmasligi lozim. 1-guruh nogironlari bilan hayotni sug'urtalash uchun shartnomalar tuzish maqsadga muvofiq emas, deb qaraladi.

Sug'urta turlari uch guruhga bo'linadi:

- umrbod sug'urtalash (16 yoshdan 80 yoshgacha);

- vafot etishni sug'urtalash;

- aralash hayot sug'urtasi.

Umrbod sug'urtalash shartnoma bo'yicha sug'urtalanadi. Sug'urta summasi sug'urta shartnomada ko'zga tutilgan muddat kelganidan boshlab sug'urtalanuvchiga qaytarilib beriladi. Shuning uchun shartnomada sug'urtalanuvchining necha yoshgacha sug'urtalanishi ko'rsatib o'tilgan bo'lishi lozim.

Vafot etish sug'urtalanganda sug'urta hodisasi yuz bermaguncha sug'urtani qoplash summasi to'lanmaydi. Sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta badallari hisobga olinadi. Sug'urta hodisasi yuz berishi bilan sug'urta summasi birdaniga to'liq to'lanadi.

Aralash sug'urtalash juda ommaviydir. Bunda sug'urta hodisasi ko'rsatilgan muddatda yoki muddatdan oldin yuz berganida ham sug'urta qoplash summasi to'liq to'lanadi.

Insomning tug'ishi murakkab jarayon bo'lib, bunda asosiy xavf-xatar ayollar zimmasiga tushadi. Farzand kutayotgan har bir ayol bolasi yoru? dunyoga kelishi uchun o'z hayotini xatarga qo'yadi. Shuning uchun ham farzand kutayotgan ayollarga oila, jamiyat, davlat moddiy-ma'naviy yordam berishi kerak.

Mamlakatimizda ayolarga katta hamxo'rlik ko'rsatilmoqda. Ammo qishloq ayollariga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki qishloq joylarda shaharga nisbatan tug'ilish bir muncha yuqori hisoblanadi. Ammo qishloqdagi turmush sharoiti shahardagi darajadan birmuncha past.

«O'zagsug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining 1999-yil 9-martdagi 39-sonli ko'rsatmasida sug'urta puli va sug'urta badalarini to'lash tartibi: sug'urta puli miqdori sug'urtalanuvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanishi, ammo sug'urta puli miqdori shartnoma tuzilayotgan paytda O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan eng kam oylik ish haqining 100 barobaridan kam bo'lmashligi ta'kidlanadi.

Sug'urta shartnomasini tuzgan sug'urtalanuvchi sug'urta badalini quyidagi foizda to'lashi lozim:

- 1-bola tug'ishda sug'urta pulidan 0.5 foiz;
- 2-bola tug'ishda sug'urta pulidan 0.4 foiz;
- 3-bola tug'ishda sug'urta pulidan 0.3 foiz;
- 4-bola tug'ishda sug'urta pulidan 0.2 foiz;

Albatta, bu jahon andozalari darajasida bo'lmasa ham, mustaqil davlatimiz uchun katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir.

- Ayollarning tug'ruqxonada tug'ish davrida olgan jarohatlari:
- Tug'ish paytida ayolning tos suyaklari yoki qovurg'a bilan qorin o'rtasidagi mushaklari uzilishi yuz bersa;
- ayolning tug'ishi jarayonida jarrohlik aralashuvi qayd qilingan bo'lsa;
- bola ayolning qomini kesish (keserevo) orqali olinganda;
- ayol bachadoni olib tashlanganligi qayd etilganda;
- bola o'lik tuqilganda va 1 oy ichida o'lsa;
- tug'adigan yoki tuqqan xotin tug'ruqxonada filatik shokdan vafot etsa, bu sug'urta hodisasi hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bolalar hayotini sug'urtalash muhim yo'nalish hisoblanadi. Sug'urta orqali har bir oilaga yordam ko'rsatish, bolalar kelajagini o'ylab, ijtimoiy siyosat olib borish respublikamizda ham tadqiq etilishi lozim. Bolalarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash shartnomasi o'ziga xos xususiyatlar bilan hoshqa bitimlardan ajralib turadi. Sug'urtalanuvchi bolalarning yoshi 1 dan 16 yoshgacha bo'lishi lozim. Nogiron bolalar bundan mustasno.

Sug'urta shartnomalari sug'urtalanuvchining yozma arizasiga binoan bir yilga tuzilganida, ayrim hollarda uch yilga va undan ortiq muddatga tuzilganida shartnoma muddati tugaganidan keyin ham bir oy ichida bola sug'urtalangan hisoblanadi.

Sug'urta shartnomalari qonun bo'yicha quyidagi holatlarda amal qilishdan to'xtagan deb topilishi mumkin:

- sug'urta shartnomasi muddati tugagan taqdirda;
- sug'urtachi tomonidan olingan harcha majburiyatlar to'liq bajarilganda;

- O'zbekiston qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda. Maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha shartnomalar avvalo ularning ota-onalari, shuningdek, qarindoshlari hamda yuridik shaxslar bilan ham tuziladi.

Sug'urta shartnomalari o'quvchilar bilan tuzilganda, asosan, kunduzgi o'quvda o'qiyotganlar, umumiy xalq ta'limi tizimi (gimnaziya, litsey, kollej va boshqa o'quv yurtlari)dagi o'quvchilar bilan tuziladi.

O'quvchilar sug'urtasida sug'urta shartnomasi bir yilga tuziladi hamda sug'urta badali sug'urta pulidan 0,5 foiz miqdorda belgilanadi. Sug'urta badallarini korxonalar, tashkilotlar, muassasalar (shuningdek, maktablar ham) o'z mablag'lari hisobidan naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan to'lashlari mumkin.

Sug'urta shartnomasi o'quvchi boshqa umumta'lim maktabiga o'qiganida ham, uning yashash joyi o'zgargan taqdirda ham amalda bo'ladi.

Qonunda quyidagi hodisalar sug'urta hodisasi sifatida ko'rsatiladi:

- sug'urtalanuvchi ko'ngilsiz hodisa tufayli shikastlanganda;
- sug'urtalanuvchi oziq-ovqat mahsulotlardan zaharlanib, (kal'monelyoz, ichburuq va hokoza) aziyat chekkanda, xorijdan keltirilgan o'simliklar, sifatsiz sanoat va maishiy iste'mol mahsulotlari va dori-darmonlardan zaharlangan taqdirda;

sug'urtalangan shaxs kana hamda emlashdan keyingi eksesfalit (eksefalimielit), pooleomiclit, gemotogen, osteomilit bilan kasallanganda.

Sug'urta hodisasi yuz berganida sug'urta puli barcha zarur hujjatlar tayyorlab, topshirilganidan keyin uch kun ichida to'lanadi. Sug'urta kompaniyasi xodimlari aybi bilan pul to'lash kechiktirilganda har bir kechiktirilgan kun uchun to'lanadigan pulning 0,2 foiz miqdorida jarima (penya) to'lanadi.

#### **Shaxsiy sug'urta obyekt va subyekti**

Shaxsiy sug'urtada ham boshqa sug'urta turlari kabi sug'urta subyektlari va sug'urta obyektlari tushunchalari mavjud. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining

subyektidir. Shaxsiy sug'urta subyektlari sug'urtachi va sug'urta to'lovchisi. sug'urta qildiruvchilar bo'lishi mumkin, qoidaga muvofiq qonun bo'yicha ro'yxatdan o'tgan va sug'urtani o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ko'rigining sug'urta badallari departamentining litsenziyasiga ega yuridik shaxslar sug'urtachi bo'lishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchilar esa quyidagilar bo'lishi mumkin:

– 18 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan layoqatli shaxslar (jismoniy shaxslar);

– huquqiy yuridik shaxslar-tashkiliy huquqiy shakllari va mulkchilik shakllarining barcha korxonalari;

– chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Sug'urtalangan shaxslar bo'lib sug'urta qildiruvchilar va ularning oila a'zolari, korxonalar, tashkilot muassasa ishchilari va ularning oila a'zolari bo'lishi mumkin.

Shaxsiy sug'urtaning hayotni aralash sug'urta qilish turi subyektlari sonidan quyidagilar chiqarib tashlanadi:

- 1) birinchi guruh nogironlari;
- 2) alkogolik kasalligi bor bemorlar.

Respublikamizda sug'urta tashkilotlari uch guruhga bo'linadi:

1. Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari. O'z navbatida bunga:

- a) «O'zagrosug'urta» kompaniyasi;
- b) «Kafolat» kompaniyasi;
- v) «O'zbekinvest» kompaniyasi;

2. Xususiy sug'urta kompaniyalari. U:

- a) qo'shma sug'urta tashkilotlari;
- b) xususiy sug'urta tashkilotlaridan iborat.

3. Respublika sug'urta nazorati tashkilotlari.

Sug'urta subyektlariga sug'urta brokerlarini, sug'urta auditori kabilar ham kiradi. Sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchilarni o'zaro shartnomasini bajarishdagi munosabatlarini o'rnatuvchi shaxs broker deb yuritiladi. U sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urtalanuvchilar bilan bevosita ish olib boradi, sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta hodisasi oqibatida ko'rilgan moddiy

zararning qoplama miqdorini aniqlashda, hatto sug'urta qoplamasini sug'urtalanuvchiga topshirishda unga yordam beradi.

Sug'urta hissadorlik jamiyatlari va boshqa xususiy davlat hissadorlik uyushmalarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan mustaqil tekshirishga vakil qilingan maxsus tashkilot yoki shaxs sug'urta auditori deyiladi. Auditor mustaqil ish ko'ruvchi firma sifatida sug'urta tashkilotlari faoliyatini yuqori saviyada har tomonlama tekshirib, o'z xulosasini taqdim etadi.

Ayrim sug'urta tashkiloti yoki sug'urtalanuvchi haqida aniq bir ma'lumot zarur bo'lib qolgan taqdirda auditorlik tashkilotiga murojaat qilinadi. Auditor vazifasini bajaruvchi shaxs o'z xulosalari uchun javob beradi. Bu lavozimni egallash uchun maxsus tayyorgarlik va ko'p yillik tajriba talab qilinadi, qisqa muddatli kurslar esa auditorlarga o'z saviyalarini oshirish imkoniyatini beradi.

Shaxsiy sug'urtaning hayotni aralash sug'urta qilish turi bo'yicha obyekt bo'lib sug'urtalanganlarning mulkli talablari hisoblanadi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Qonun bo'yicha sug'urtaning qanday tarmoqlari bor?
2. Hayot sug'urtasi haqida tushuncha bering.
3. Hayot sug'urtasining jamg'arilish funksiyasini tushuntiring.
4. Hayotni sug'urta qilish klasslari nimalardan iborat?
5. Shaxsiy sug'urtada ta'rif stavkalari qanday o'rnatiladi?
6. Shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha ta'rif stavkalarida qanday imtiyozlar qo'llaniladi?



## V BOB. MULKIY SUG'URTA VA QURILISH-MONTAJ, TADBIRKORLIK VA MOLIVAVIY RISKLAR SUG'URTASI

5.1. Mulkiy sug'urtaning mohiyati va xususiyatlari.

5.2. Korxonalar mol-mulkini sug'urtalash, sug'urta ta'rifini hisoblash, sug'urta mukofotini to'lash va sug'urta polisini rasmiylashtirish.

5.3. Sug'urtada franshiza, subragatsiya va regress.

5.4. Sug'urtalashning asosiy shartlari va shartnomani tuzish.

### 5.1. Mulkiy sug'urtaning mohiyati va xususiyatlari

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlaridan hitan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'lovi to'lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin:

– muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

– fuqarolik javobgarligi xavfi – boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

– tadbirkorlik xavfi – tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Mulkiy sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Bu sug'urtalashda sug'urta usullari bir-hiridan farq qiladi.

2. Sanoat qurilish transport va savdo korxonalarini sug'urtalash qishloq xo'jalik korxonalarini sug'urtalashdan farq qiladi. Fuqarolar mulkini sug'urtalash ham xuddi shunday.

3. Mulk sug'urtasida fuqarolarning hayoti emas, balki ular egalik qilayotgan mulklar sug'urta qilinadi. Mulkiy sug'urtaning shaxsiy sug'urtadan farqi ana shu.

4. Davlat hissadorlik sug'urta tashkilotlari mol-mulkni ham majburiy, ham ixtiyoriy asosda sug'urta qiladilar. Xususiy sug'urta tashkilotlari esa faqat ixtiyoriy sug'urta bilan shug'ullanadilar. Ularning ham farqi ana shu.

5. Xususiy sug'urta tashkilotlarining sug'urta usullari, obyektlari, ta'riflari, qoplamalari hamma xususiy tashkilotlar uchun bir xil emas: shuningdek, davlat aksiyadorlik sug'urta tashkilotlarida ham o'ziga xos usullar va ta'riflar qo'llaniladi.

6. Mulkni faqat mulk egasi emas, balki ijaraga olgan shaxs ham sug'urta qilishi mumkin.

7. Transport vositalarining fuqarolik javobgarlik sug'urtasi faqatgina mulk sug'urtasiga emas, balki Shaxsiy sug'urtaga ham asoslanadi.

Sug'urta haqidagi qonun asosida fuqarolarga tegishli mol-mulk majburiy va ixtiyoriy ravishda sug'urtalanadi.

Fuqarolarga tegishli mol-mulk fuqarolarniki bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasining boyligi hisoblanadi. Ushbu boylikni asrash maqsadida sug'urta qilinadi.

Sug'urta quyidagi hodisalardan sug'urtalanadi:

– favqulodda tabiiy hodisalardan;

– yong'indan;

– kuchli shamoldan yoki bo'ronidan;

– yashin urishdan;

– portlashdan;

– suv toshqinidan;

– seldan;

– yer qimirlashdan;

– uchinchi shaxs tomonidan qasddan yetkazilishi mumkin bo'lgan zarardan;

– santexnika sistemasining avariyasidan;

–kuchli yomg'ir va qordan va boshqa tabiiy ofatlardan;  
–isitish tizimi, vodoprovod, kanalizatsiyaning buzilishi, radioaktiv ta'sir:

–o'g'irlik, transport vositalarini olib qochish va boshqalar.

Mol-mulkni sug'urtalashning iqtisodiy asosi deganda mol-mulk sug'urta hodisasi natijasida zararlanganda, o'g'irlanganda, yonib ketganda sug'urta tashkiloti tomonidan berilgan qoplama asosida tiklanishi tushuniladi.

## 5.2. Korxonalar mol-mulkini sug'urtalash, sug'urta ta'rifini hisoblash, sug'urta mukofotini to'lash va sug'urta polisini rasmiylashtirish

Sug'urta ta'rifi bu sug'urtalash qiymatlarini to'lashni o'tkazish rezerv va boshqa fondlarni tuzish uchun sug'urta tashkilotlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlaydigan miqdorlarda boshlanadigan sug'urtalash bo'yicha to'lovlar stavkalaridir. Sug'urtalashning ixtiyoriy turlari bo'yicha sug'urtalash ta'rifining miqdori tomonlar kelishuviga asosan belgilanadi (10-modda). Sug'urtalashning majburiy turlari bo'yicha sug'urta ta'riflari qonun bilan belgilanadi.

Sug'urta ta'riflari sug'urtalash summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi.

Sug'urta ta'riflari asosida sug'urta mukofotlari hisoblanadi. To'g'ri hisoblangan sug'urta ta'riflarida sug'urtalash jarayonlarining zaruriy moliyaviy barqarorligi va sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar oldida o'ziga olgan majburiyatlarini bajarish imkonini ta'minlanadi.

Ta'riflar juda ko'pligi sababli ularni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Sanoat korxonalarining ta'rif stavkalari. Ular o'z navbatida 3 guruhga bo'linadi:

«neft, kimyo va metallurgiya sanoati;

«atom energiyasi va tog'-kon sanoati;

« mashinasozlik, qurilish, oziq-ovqat sanoati.

2. Sug'urtalash vaziyatlarining turlari bo'yicha ta'rif stavkalari

3. Mulkni to'liq va qisman sug'urtalash bo'yicha ta'rif stavkalari.

4. Bir qancha sug'urtalash vaziyatlardan mulkni sug'urtalash.

Ta'rif stavkalariga muvofiq holda zarar miqdorini aniqlash va sug'urta qoplanishini to'lash amalga oshiriladi. Zarar miqdorini aniqlash va sug'urta qoplanishini to'lash bo'yicha sug'urta kompaniyasining faoliyati birlamchi ahamiyatga ega, chunki unga qarab jamiyatda sug'urtalash ishining roli to'g'risida va konkret sug'urtalovchi to'g'risida xulosa chiqaradilar, shuning uchun sug'urtalanuvchilarda vujudga kelgan zararni tez va sifatli tartiblashtirish juda muhimdir.

Sug'urtalovchining zararini aniqlash va sug'urta qoplanishini to'lash bo'yicha ishi 3 bosqichdan iborat.

1. Sug'urta vaziyatini aniqlash.

2. Zarar miqdorini aniqlash, sug'urtalash to'lovining miqdorini aniqlash va sug'urtalash vaziyati to'g'risidagi aktini tuzish.

3. Sug'urta to'lovini amalga oshirish.

Yuqorida aytib o'tilgan bosqichlarda sug'urtalovchi qanday xatti-harakatlarni amalga oshiradi.

1. Sug'urtalash vaziyatini aniqlash shundan kelib chiqadiki, sug'urtalanuvchi 3 kun davomida sug'urtalovchiga sug'urta vaziyatining ro'y berganligi to'g'risida xabar berishi lozim.

2. Kompaniya zarar miqdorini aniqlaydi va sug'urtalash aktini tuzadi.

Bunda zararni qoplash miqdori shartnomadan belgilangan sug'urtalash miqdoridan oshmasligi kerak. Bundan tashqari sug'urtalanuvchining mulkni saqlash uchun qilingan xarajatlari va faoliyati hisobga olinadi. Zarar ko'rmagan mulkning miqdori zarar miqdoridan chiqariladi. Zarar miqdori 10 kun ichida aniqlanishi lozim. Agar huning iloji bo'lmasa, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchiga xabar qilishi va sug'urta qoplamasining 60% ini to'lashi lozim.

3. Sug'urta qoplamasining to'lovi 20 kun davomida amalga oshirilishi lozim.

Sug'urta mukofoti deganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi tushuniladi.

Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdorini belgilashda sug'urta obyektini va sug'urta xavfi xususiyati hisobga olingan holda o'zi tomonidan ishlab chiqilgan, sug'urta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sug'urta ta'riflarini qo'llashga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sug'urta mukofotining miqdori davlat sug'urta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sug'urta ta'riflariga muvofiq belgilanadi. Agar sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotini bo'lib-bo'lib to'lash belgilangan muddatlarda to'lamaslik oqibatlari ko'rsatib qo'yilishi mumkin. Agar sug'urta hodisasi to'lash muddati o'tkazib yuborilgan navbatdagi sug'urta badali to'lanishidan oldin yuz bergan bo'lsa, sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni yoki Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli miqdorini sug'urta mukofotining o'ziga to'langan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati o'tkazib yuborilgan sug'urta badali summasini hisobga olishga haqli.

Sug'urta mukofotlari sug'urta kompaniyasi tomonidan transport vositasini ro'yxatdan o'tkazgan mamlakatning sug'urta mukofotlari stavkalariga teng miqdorda belgilangan sug'urta summasidan hisoblab chiqiladi (O'zR VM 27.11.2002-y. 413-son qarori tahriridagi band).

1. Sug'urtalanuvchilar sug'urta mukofotlarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kirib kelayotganda to'laydilar (O'zR VM 27.11.2002-y. 413-son qarori tahriridagi band).

2. Sug'urta mukofotlari bevosita bojxona postlarida erkin almashtiriladigan valyutada to'lanadi, keyinchalik bu mablag'lar shartnoma asosida sug'urtalovchining hisobi raqamiga o'tkaziladi (O'zR VM 27.11.2002-y. 413-son qarori tahriridagi band).

Sug'urta mukofotlari naqd pul bilan ham, pul o'tkazish shaklida ham to'lanishi mumkin.

3. Hisoblab chiqilgan sug'urta mukofoti to'langandan keyin sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga belgilangan namunadagi polis beradi.

Qonunchilik sug'urta munosahatlarini rasmiylashtirish vositasi sifatida sug'urta shartnomasini belgilab berar ekan, ushbu shartnoma bitta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiyasi)ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkinligini taqozo etadi. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yoxud sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi.

Sug'urta ishida qo'llaniladigan sug'urta polislari sug'urta faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Ular o'zining original shakli bilan ko'zga tashlanib, asosan, ular qimmat qog'ozlarda ishlangan, suv belgilari va boshqa maxsus himoya belgilari mavjud maxsus blanklar ko'rinishida bo'ladi. Lekin bu sug'urta kompaniyasi moliyaviy ahvolidan barqarorligi kafili emas. Sug'urta polisining huquqiy mazmun-mohiyati uning taraflarning kelishuviga yozma hujjat shaklini berishida, sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi taklif qilgan shartlari bilan rozi ekanligini va sug'urta shartnomasining tuzilganligining isboti bo'lib xizmat qilishida bilinadi.

Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar) turli turkumlarini muayan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug'urtalash sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug'urta shartnomasi – bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin. Bosh polisning ishlatilishi tashki iqtisodiy faoliyat bilan shugullanuvchi tashkilotlar uchun katta qulayliklar tug'dirib, ular chet eldan keltirayotgan katta hajmdagi yuklarini bir hujjat, ya'ni bosh polis orqali sug'urtalab, ushbu yuklarini bir necha partiyalarga bo'lgan holda yoki bir necha turdagi transport orqali bir davlatdan ikkinchi davlatga tashishlari mumkin. Bosh polis ushbu bir turdagi yukning barcha partiyasi va turli

transportda keltirilayotgan yuklarni bir xilda va bir vaqtning o'zida sug'urtalaydi.

Odatda, bosh polisning muddati cheklanmaydi, lekin har ikkala tomon ham taqvim yilining tugashidan kamida ikki oy oldin uni qayta ko'rib chiqish yoki bekor qilish haqida ariza berishga haqli.

Sug'urta qildiruvchining talabi bilan sug'urtalovchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'lgan mulkning alohida partiyalar bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart. Bu qoida tovarning alohida partiyasi uchun sug'urta shartlarini o'zgartirish istagini bildirgan sug'urta qildiruvchining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug'urtalash sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug'urta shartnomasi – bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning har bir turkumi to'g'risida sug'urtalovchiga bunday polisda shartlashilgan ma'lumotlarni unda nazarda tutilgan muddatda, agar muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, ular olinganidan keyin darhol xabar qilishi shart. Agar hatto bunday ma'lumotlarni olish paytigacha sug'urtalovchi to'lashi lozim bo'lgan zarar ko'rish ehtimoli o'tib ketgan bo'lsa ham, sug'urta qildiruvchi bu majburiyatdan ozod bo'lmaydi.

Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning alohida turkumlari bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart.

Sug'urta polisining mazmuni bosh polisga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi.

Asosiy fondlar aylanma fondlardan shu bilan farq qiladiki, ular korxonaning moddiy asosi sifatida, aylanma fondlarga o'xshab bir yil emas, balki uzoq yillar davomida ishlab chiqarishga xizmat qiladilar. Asosiy fondlarga binolar, inshootlar, mashinalar, transport vositalari va boshqa uskunalar kiradi. Bular korxonada ishlab chiqarishining asosiy fondlaridir. Turar-joylar, madaniy -maishiy

tadbirlarga xizmat qiluvchi binolar, noishlab chiqarish asosiy fondlardir

Aylanma fondlar, ya'ni xomashyo, materiallar, yonilg'i, tovarlar va boshqalar ishlab chiqarish fondlar tarkibiga kirsada, ular bir ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadi.

Asosiy va aylanma fondlar korxonada ishlab chiqarishi, ilmiy texnika va ijtimoiy faoliyatining tayanchi hisoblanadi. Bu fondlarga etkazilgan zararlar korxonaning umumiy faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababdan bu fondlarning sug'urtalanishi alohida ahamiyatga egadir.

Asosiy fondlar korxonalar balansida dastlabki qiymatlariga ko'ra hisobga olinadi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida bu fondlar o'zlarining dastlabki qiymatlarini yo'qotib, ular takror hisoblanib turiladi. Asosiy fondlarning dastlabki qiymatlari ular qiymatining asosi hisoblanib, sug'urta davomida ularning eskirgan qismiga ham e'tibor beriladi.

Aylanma fondlar uchun eskirgan qismi degan tushuncha yo'q, shuning aylanma fondlar, shuningdek, muomala fondlari to'la balans hisobida hisob-kitob qilinadi.

### 5.3. Sug'urtada franshiza, subragatsiya va regress

Sug'urta shartnomasi bilan bog'liq masalalar turlichadir. Ulardan asosiylari:

- 1) sug'urtaga arizaning rasmiylashtirilishi;
- 2) sug'urta franshizasini belgilash tartibi;
- 3) shartnomalarini tuzish;
- 4) sug'urta badallarini to'lash tartibi;
- 5) sug'urta polisini rasmiylashtirish;
- 6) tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- 7) sug'urta to'lovlarini tashkil etish jarayoni;
- 8) sug'urta shartnomasini tugatish;
- 9) sug'urtaning asosiy shartlarini aniqlash.

Bu muolajalarning mazmuni O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta to'g'risida»gi qonunida ko'rsatilgan.

Sug'urtaga ariza. Mulkni sug'urta qilish shartnomasi ariza asosida tuziladi.

Agar sug'urta qoidasi mulkni ro'yxatga olish bilan shartnomaning tuzilishini ko'rib chiqsa, u holda ro'yxatga olish arizaga qo'shib beriladi va shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi. Sug'urtachi sug'urta qilinadigan mulkning taxminiy darajasini aniqlashga tegishli sug'urta qildiruvchining barcha savollariga javob berishi shart. Bu zarurdir, chunki bo'lg'usi sug'urta shartnomasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari arizada ko'rsatiladi:

- mulkning sug'urta qiymati;
- uning sug'urta summasi;
- sug'urta badallarining hajmi;
- sug'urta franshizasi va boshqalar.

Sug'urta franshizasini belgilash tartibi qoidalarda yozilgan sug'urtachini belgilangan hajmdan oshmaydigan zararlarni to'lashdan ozod qilishdir.

Franshiza tomonlarning kelishuvi bilan foizda yoki aniq pul summasida o'rnatiladi. Franshiza shartli (hisoblanmaydigan) yoki shartsiz (to'lanadigan) bo'lishi mumkin.

Shartli franshiza franshizani qildiruvchi summa atrofida sug'urtachiga zarar to'lanmasligini anglatadi. Agar zarar franshizadan ko'p bo'lsa, sug'urtachi zararni to'la qoplaydi. Masalan, sug'urta shartnomasida 10 ming so'm bo'lgan shartli franshiza yozilgan.

Zarar summasi: a) 9 ming so'm, b) 11 ming so'mni tashkil qildi.

- a) holatda sug'urta qildiruvchi qoplamani olmaydi;
- b) holatda 11 ming so'm miqdordagi qoplama oladi.

Shartsiz franshiza har qanday hajmdagi zarar bo'lishiga qaramasdan sug'urta franshizasi hisobga olinadi. Masalan: a) holatida sug'urtachi summasi 1 ming so'm bo'lgan to'lovni beradi xolos, ya'ni  $11,0 - 10,0 = 1,0$  ming so'm.

Mol-mulk sug'urtasi qoidasi va shartnomasi franshizani sug'urta qildiruvchining zarani to'lashda shaxsan qatnashishini ko'rib chiqadi. Bunda sug'urta to'lovini to'lash franshiza summasiga qarab amalga oshiriladi. Franshiza hajmidan oshmaydigan zararlar to'lanmaydi. Javobgarlikning har qanday limiti franshiza

summasidan yuqori belgilanadi. Franshiza har qanday sug'urta hodisasida qo'llaniladi.

Regress tushunchasi:

quyidagi haydovchi:

–uchinchi shaxsga zarar yetkazilishini ataylab yuzaga keltirgan;  
–transport vositasini alkogol ichimlik ichish yoki giyohvand modda iste'mol qilish natijasida mast holatda boshqargan va bu bilan sug'urta voqeasini yuzaga keltirgan;

–transport vositasini boshqarishga ruxsatnomasi bo'lmagan;

–transport vositasidan uning egasining ra'yiga qurshi foydalangan va ushbu transport vositasi bilan zarar yetkazgan haydovchi to'langan sug'urta tovonini sug'urtalovchiga qaytarishga majburdir.

Agar sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga zarar yetkazilganligi to'g'risida xabar bermasa yoki o'z vaqtida xabar bermasa, u holda sug'urtalovchi bunday xabar bermaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik oqibatida kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar va sud chiqimlarini qoplash yuzasidan sug'urtalangan shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'ashi mumkin.

Mol-mulkni sug'urtalash shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari bu mol-mulkni meros tartibida qabul qilib olgan shaxsga o'tadi. Mulk huquqi o'tishining boshqa hollarida sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari, agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, sug'urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o'tadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, ushbu shartnoma bilan belgilanadigan huquq va majburiyatlar sug'urtalangan shaxsning roziligi bilan unga o'tadi. Sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishi mumkin bo'lmas uning huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlariga muvofiq uning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi shaxslarga o'tishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomalu

layoqati cheklangan deb topilsa, bunday sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlarini uning vasiyi yoki homiysi oladi. Bunda sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi; sug'urtasi uning muomala layoqati tugagan yoki cheklangan paytdan boshlab tugaydi.

Yuridik shaxs bo'lgan sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi davrida qayta tashkil etilganida uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari sug'urtalovchining roziligi bilan tegishli huquqiy vorisga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda o'tadi.

Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi.

Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tathiq etiladi.

Sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi, quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi, chunonchi:

—sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;

—tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqaroviy javobgarlik xavfini sug'urtalagan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda to'xtatishi.

Sug'urta shartnomasi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha muddatidan oldin bekor bo'lganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), agar voz kechish paytiga kelib sug'urta hodisaning yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasidan muvaffaqiyatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

Sug'urta qildiruvchining zarar qoplanishiga bo'lgan huquqlarining sug'urtalovchiga o'tishi – subragatsiya deyiladi.

Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi. Biroq shartnomaning bila turib zarar yetkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi sug'urtalovchiga o'tishini istisno qiladigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) va zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

#### 5.4. Sug'urtalashning asosiy shartlari va shartnomani tuzish

Sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta puli bilan cheklanadi. Qurilayotgan obyekt to'liq qiymatining 80 foizidan ortiq bo'lmagan qismi yoki ilgari bajarilgan ishlar hajmi, shu jumladan, materiallar qiymati hisobga



olingan holda rejalashtirilayotgan yilda barpo etilayotgan obyekt qiymatining bir qismi tomonlarning kelishuviga ko'ra sug'urta puli bo'lishi mumkin.

Qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun sug'urtalanuvchining javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'voni sug'urtalashning butun muddati uchun sug'urta shartnomasida belgilangan javobgarlik limitlari doirasida belgilanadi.

Sug'urtalovchi uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazilishi bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxs yetkazilgan zarar uchun albatta javob bergan taqdirdagina to'laydi.

Agar sug'urta shartnomasida bir hodisa bo'yicha javobgarlik limiti belgilangan bo'lsa, ayni bir sug'urta hodisasi tufayli kelib chiqqan barcha zararlar bo'yicha tovon puli, shu jumladan zararining oldini olish yoki uni qisqartirish bo'yicha xarajatlar ushbu limitdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Sug'urtalovchi shuningdek sug'urta hodisasidan keyin hududni tozalash bilan bog'liq oqilona xarajatlarni ham to'laydi, biroq u sug'urta pulining 2 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Sug'urta hodisasidan keyin hududni tiklash ishlarini olib borish uchun yaroqli holga keltirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan xarajatlar tozalash bo'yicha xarajatlar deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchining javobgarligi sug'urtalangan mol-mulk qurilish maydoniga tushirilgan paytdan boshlanadi, biroq sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta uchun sug'urta to'lovi amalda to'langan sanadan va sug'urta shartnomasida qayd etilgan sanadan oldin boshlanmaydi. Sug'urtalovchining javobgarligi qurilish, montaj qilish, asbob-uskunalarni bo'sh va ish holatida sinashning butun davri mobaynida davom etadi hamda obyektни foydalanishga topshirish paytida, biroq sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sanadan kechikmay tamom bo'ladi.

Nizomga muvofiq tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha quyidagilar natijasida bevosita yoki bilvosita paydo bo'ladigan zararlar qoplanmaydi:

–har xil harbiy harakatlar yoki harbiy tadbirlar va ularning oqibatlari, minalar, bombalar, boshqa urush qurollarining ta'siri, xalq g'alayonlari va ish tashlashlar, terrorizm, musodara qilish, rekvizitsiya, mol-mulkni xatlab qo'yish, harbiy yoki fuquro ma'murlari va biror bir siyosiy tashkilotlarning farmo'yishiga ko'ra mol-mulkning yo'q qilinishi yoki shikastlantirilishi;

–yadro portlashi, radiatsiya va radioaktiv zaharlanish;

– sug'urtalanuvchining, foydasiga sug'urta tuzilgan shaxsning yoki ularning vakillarining qasddan qilgan harakati yoki qo'pol ehtiyotsizligi;

–sug'urtalanuvchiga, foydasiga sug'urta tuzilgan shaxslarga yoki ularning vakillariga sug'urta hodisasi boshlangungacha ma'lum bo'lgan xatolar, kamchiliklar yoki nuqsonlar;

–loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilmagan ishlarning qisman yoki umuman to'xtatilishi;

–ayrim buyumlarning korroziyaga uchrashi, chirishi, tabiiy eskirishi, o'zidan-o'zi yonishi yoki boshqa tabiiy xossalari, bunda ushbu hodisalar keltirib chiqargan baxtsiz hodisalar natijasida boshqa sug'urta qilingan buyumlar shikastlanishidan ko'rilgan zararning o'mi qoplanishi shart;

–loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilmagan tajriba yoki tadqiqot ishlari;

–qurilish texnikasi va transport vositalari ichki tomonining tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan holda sinishi natijasida shikastlanishi.

Sug'urtalovchi, shuningdek, obyektlar qurilishida foydalaniladigan nuqsonli materiallar, buyumlar yoki ularning qismlari almashtirilishi, tuzatilishi yoki sozlanishi qiymatini, shuningdek, ishlarni amalga oshirishdagi xatolar qiymatini ham to'lamaydi. Ushbu istisno daxl qilingan nuqsonli materiallar va buyumlar bilangina bevosita cheklanib holadi, ammo materiallar yoki ishlardagi bunday nuqsonlar natijasida to'g'ri qurilgan obyektlar va buyumlarga yetkazilgan zarar qoplanishini istisno qilmaydi.

Yonilg'i-moylash materiallari, kimyoviy moddalar, sovutish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallar, sug'urta qilingan

obyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (sug'urtalangan tavakkalchiliklar uchun zarur bo'lgan qurilish obyektlaridan tashqari), qimmatbaho metallar, toshlar, san'at asarlari, hujjatlar va qimmatli qog'ozlarning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi, shuningdek, faqat xatlov paytida aniqlangan zarar, boy berilgan foyda yoki shartnomaviy jarimalar singari biror-bir bilvosita zarar sug'urta bilan qoplanmaydi.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining yozma ariza-anketasi asosida tuziladi, unda tavakkalchilik darajasi to'g'risida bir fikrga kelish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlar to'g'risidagi axborot mavjud bo'ladi va sug'urtalovchi tomonidan imzolangan sug'urta polisi bilan rasmiylashtiriladi.

Sug'urtalanuvchi ariza-anketa bilan bir vaqtda tavakkalchilik darajasini baholash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etadi.

Shartnoma tuzilgandan keyin unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlar imzolagan, sug'urta shartnomasi va sug'urta polisining uzviy qismi bo'lib qoladigan qo'shimcha bitimlar bilan rasmiylashtiriladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta uchun sug'urta to'lovini to'lashga majbur. Sug'urta to'lovini to'lash boshlangungacha sug'urta shartnomasining sug'urtalovchining majburiyatlariga oid qismi kuchga kirmaydi. Sug'urta to'lovi foizdagi to'lov stavkasini jami sug'urta summasiga ko'paytirgan holda hisoblab chiqariladi.

Sug'urta to'lovi miqdori sug'urtalash muddatlarining davomiyligiga va tomonlarning ahdlashuvi bo'yicha sug'urta to'lovining umumiy miqdoriga bog'liq holda tabaqalashtiriladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urtalovchini sug'urta summasi o'zgartirganligi, shuningdek, tomonlar sug'urta to'g'risidagi shartnomani imzolashgandan keyin tavakkalchilikda bo'lgan o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilishi shart. Obyekt qiymatini 10 foizdan ziyod ko'paytiruvchi o'zgartirishlar sug'urtalovchiga shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilish huquqini beradi.

Sug'urtalovchi sug'urta hodisalarining oldini olishni ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan oldini olish tadbirlarini qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash uchun tushadigan mablag'larning ikki foizi doirasida mablag' bilan ta'minlashi mumkin.

Agar sug'urtalanuvchiga va sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxsga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ishlar uch oydan ortiq bo'lmagan davrga to'xtatib turilsa, sug'urta shartnomasining amal qilishi tomonlar o'rtasidagi qo'shimcha bitimga muvofiq ko'rsatib o'tilgan davrga to'xtatib turilishi mumkin va u sug'urtalanuvchining yozma shakldagi bildirishnomasidan keyin ishlar qayta tiklanganda, sug'urta davrini ishlar to'xtatib turilgan davrga ko'paytirgan holda, qo'shimcha sug'urta to'lovisiz yangidan kuchga kiradi.

Qurilish obyekti sug'urtalanuvchiga va sug'urtalash uning foydasiga tuzilgan shaxsga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra konservatsiya qilinganda sug'urta shartnomasi bo'yicha holgan davr uchun mutanosib ravishda hisoblab chiqarilgan sug'urta to'lovining bir qismi sug'urtalovchi tomonidan qaytariladi.

Boshqa barcha hollarda sug'urta davri faqat tomonlarning ahdlashuvi bo'yicha, miqdori tomonlar o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanadigan qo'shimcha sug'urta to'lovi to'langan holda uzaytirilishi mumkin.

Agar ishlarni jadallashirish natijasida qurilishning belgilangan muddati sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta muddati tugashidan ilgari tugasa, sug'urta to'lovi qaytarilmaydi.

### **Sug'urta hodisasi boshlanganda tomonlarning o'zaro munosabatlari**

Sug'urta hodisasi boshlanganda sug'urtalanuvchi yoki sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxs, sug'urtalovchining sa'rovnomalarini yoki talablarini kutib o'tirmasdan, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirishning imkoni bo'lgan barcha choralarini ko'rish va 7 kalendar kundan kechikmay sug'urtalovchini sodir bo'lgan hodisadan yozma ravishda xabardor

qilishi shart. Sug'urtalovchi xabarni olgandan keyin 3 kun mohaynida obyektни ko'zdan kechirib chiqishga majbur.

Sug'urtalanuvchi mazkur mol-mulk bo'yicha boshqa sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan barcha sug'urta shartnomalari to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Sug'urtalanuvchi barcha rejalar, spetsifikatsiyalar, topshiriqnomalar, dublikatlar yoki nusxalarni hamda sug'urta hodisasi boshlanishi holatlari va sabablari to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beruvchi boshqa zarur hujjatlarni sug'urtalovchiga taqdim etishi kerak.

Sug'urtalanuvchining yozma arizasi olingandan va sug'urta to'voni to'lash to'g'risidagi masalani hal etish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar olingandan keyin komissiya tuziladi, komissiya tarkibiga sug'urtalanuvchining va sug'urtalovchining vakillari, shuningdek, zarurat bo'lganda, manfaatdor shaxs hisobiga vakolatli tashkilotlarning vakillari kiritiladi.

Sug'urtalovchining vakillari vaziyatni, zarar xarakterini va miqdorini aniqlash uchun sug'urta hodisasi sodir bo'lgan joyga erkin kira olishi hamda sug'urtalanuvchi va sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxsning tegishli hujjatlaridan bimalol foydalana olishi kerak.

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vaziyatlar, zararining xarakteri va miqdori bo'yicha kelishmovchiliklar bo'lgan taqdirda masala ekspert komissiyasi tomonidan hal qilinadi.

Har qaysi tomon o'z ekspertini tayinlaydi va bu to'g'rida ikkinchi tomonni xabardor qiladi hamda o'z eksperti xizmatiga haq to'laydi.

Ushbu qo'ida tomonlarning kelishmovchiliklarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda hal etish bo'yicha huquqlarini cheklamaydi.

Sug'urtalanuvchi shikastlangan mol-mulk va hodisa ro'y bergan joy sug'urtalovchining vakillari tomonidan ko'zdan kechirilgach hamda sug'urta hodisasi oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha xatti-harakatlar sug'urtalovchi bilan yozma ravishda kelishib olingandan keyin, imkoniyatga qarab sug'urta hodisasi oqibatlarini bartaraf etishga (almashtirishga, tuzatishga) kirishishi

mumkin. Sug'urtalovchi yoki uning vakili sug'urtalangan mol-mulkni qutqarishda va saqlab qolishda, huning uchun zarur choralarni ko'rgan yoki ko'rsatgan holda, qatnashish huquqiga ega. Sug'urtalovchining yoki uning vakillarining ushbu xatti-harakatlari sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lash majburiyatini e'tirof etish hisoblanmaydi.<sup>3</sup>

Sug'urta tovonini sug'urta hodisasi e'tirof etilgandan va ko'rilgan zarar miqdorini hamda to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta tovonini summasini aniqlovchi dalolatnoma komissiya tomonidan imzolagandan keyin besh bank kuni mohaynida to'lanishi kerak.

Nobud bo'lgan mol-mulk uchun tovon summasi uni tiklash yoki sug'urta hodisasi vaqtidagi almashtirishlar qiymati bilan, ushbu summalardan qaysi biri kamroqligidan kelib chiqqan holda, cheklanadi.

Shikastlangan mol-mulkni tuzatish xarajatlari uning haqiqiy qiymatidan yoki sug'urta hodisasi vaqtidagi almashtirish qiymatidan ortib ketgan taqdirda u nobud bo'lgan deb hisoblanadi.

Mol-mulk shikastlangan taqdirda uni bevosita sug'urta hodisasi boshlanishidan oldingi holatiga keltirish uchun zarur tuzatish xarajatlari to'lanadi.

Sug'urtalovchi zarami bartaraf etish yoki kamaytirish maqsadida qilingan xarajatlarni, agar ushbu zarar sug'urta shartlariga ko'ra to'lanishi kerak bo'lsa, to'laydi.

Agar aynan bir sug'urta hodisasi sug'urta shartnomasi ular foydasiga tuzilgan bir nechta shaxslarga zarar yetkazgan bo'lsa, umumiy tovon summasi ushbu shaxslar o'rtasida har qaysi shaxs ko'rgan zaraming umumiy zarar summasidagi miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Agar sug'urta hodisasi boshlangan vaqtda sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalangan mol-mulkka nisbatan boshqa sug'urta shartnomalari amal qilayotgan bo'lsa, zarar tovonini har qaysi sug'urtalovchi tomonidan mol-mulk sug'urtalangan sug'urta summalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi va sug'urtalovchi zarar tovonining faqat o'z ulushiga tushgan qisminigina to'laydi.

Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish muddatini o'tkazib yuborganlik uchun

sug'urtalanuvchiga to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'voni summasining 0.15 foizi miqdorida, lekin to'lanishi kerak bo'lgan summaning ko'pi bilan 10 foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

Agar zarar summasi zarar yetkazishda aybdor bo'lgan shaxs tomonidan to'liq to'langan bo'lsa, sug'urtalanuvchi sug'urta tovoniga bo'lgan huquqini yo'qotadi.

Agar zarar qisman yoki to'lanadigan sug'urta tovonidan kamroq miqdorda undirilgan bo'lsa, bu holda u sug'urtalanuvchi yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsdan olgan summani hisobga olgan holda to'lanadi.

Sug'urta to'voni to'langandan keyin sug'urtalanuvchi yoki sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxs yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan zararni to'latishni talab qilish huquqi, to'langan summa doirasida, sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urtalanuvchi barcha hujjatlarni sug'urtalovchiga berishga va aybdor shaxsga nisbatan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha xatti-harakatlarni qilishga majbur.

Agar sug'urta holati:

–sug'urtalanuvchining yoki sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxsning ataylab qilingani isbotlangan, sug'urta hodisasi boshlanishiga yo'naltirilgan xatti-harakatlar sodir etganligi, ularning o'z fuqarolik burchini bajarishi yoki sug'urtalanuvchining yoki uchinchi shaxslarning hayotini, salomatligini, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish bilan bog'liq xatti-harakatlar bundan mustasno;

–sug'urtalash obyekti, tavakkalchilik darajasi, sug'urta hodisasi va uning oqibatlari to'g'risida sug'urtalovchiga soxta ma'lumotlarni qasddan xabar qilganlik;

–sug'urtalovchini tavakkalchilikdagi jiddiy o'zgarishlar, shuningdek sug'urtalanuvchiga va sug'urta shartnomasi ularning foydasiga tuzilgan shaxslarga ma'lum bo'lgan xatolar, kamehiliklar va nuqsonlar to'g'risida xabardor qilmaganlik hamda sug'urtalovchining yoki uning vakilining vaziyatni, zararining xarakterini va miqdorini aniqlashda qatnashishiga to'sqinlik qilganlik;

—O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar oqibatida sodir bo'lganda sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashni rad etishga haqlidir.

Sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi yoki sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxs tomonidan zararni bartaraf etish va qisqartirishga doir oqilona chora-tadbirlar ko'rilmaganligi tufayli yetkazilgan zarar darajasida sug'urta tovonini to'lashni rad etishga ham haqlidir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mulkiy sug'urtaning mohiyati, obykti va subyektlari haqida tushuncha bering.
2. Mulkiy sug'urtaning mohiyati, obykti va subyektlari nimadan iborat?
3. Korxonalar mol-mulkini sug'urtalash, sug'urta ta'rifini hisoblash, sug'urta mukofotini to'lash to'g'risida tushuncha bering.
4. Korxonalar mol-mulkining sug'urta polisi qanday rasmiylashtiriladi?
5. Sug'urta shartnomasi qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Shartli va shartsiz franshiza deganda nimani tushunasiz?
7. Subrogatsiya va regress deganda nimani tushunasiz?
8. Qurilish-montaj, tadbirkorlik va moliyaviy risklarni sug'urtalashning o'ziga xos jihatlari ayting.
9. Sug'urtalashning asosiy shartlari va shartnomani tuzish.
10. Sug'urta hodisasi boshlanganda tomonlarning o'zaro munosabatlarini tushuntiring.



## VI BOB. O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

- 6.1. O'zbekiston sug'urta bozori tarixi va uning rivojlanishi.
- 6.2. Sug'urta bozori infratuzilmasi va uning professional ishtirokchilari.
- 6.3. Sug'urta bozorining turlari.

### 6.1. O'zbekiston sug'urta bozori tarixi va uning rivojlanishi

1918-yilga qadar O'zbekiston hududida, sh.j.dan Buxoro amirligi bilan tutash joylarda Rossiya kapitalistik sug'urta monopoliyalarining filiallari tashkil qilingan. 1918-yilda RSFSR hukumati tomonidan kiritilgan sug'urta monopoliyasi Turkistonda joriy qilindi. 1924-yilda O'zbekiston Moliya Xalq komissari tarkibida sug'urta boshqarmasi tuzildi.

O'zR.ning «Sug'urta to'g'risida»gi qonuni sug'urtaning monopolistik faoliyatiga chek qo'yildi. MV qoshidagi eski «GOSSTRAX» bilan bir qatorda hoshqa sug'urta tashkilotlari tashkilotlari tashkil bo'ldi. Bundan tashqari FK da Sug'urta masalasiga alohida bob ajratilganligi sug'urtaning rivojlanishida keng asosli imkoniyatlarni yaratib berdi. Mulkiylik shakllaridan qat'i nazar sug'urta tashkilotlari tashkil etildi. Ayrim sug'urta tashkilotlari davlat tomonidan tashkil etildi va ularning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Umuman olganda, erkin raqobat tashkil etilganligi sug'urtaning rivojlanishida muhim o'rin egalladi. Hozirgi vaqtda MV huzuridagi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi O'zR.da sug'urtaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda, barcha sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy sohada, sug'urtalash, sug'urta zaxiralarini tashkil etish borasida me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi sug'urtaning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida:

- Mustaqil sug'urta tizimi paydo bo'ldi;
- Sug'urta to'g'risida qonunlar qabul qilindi;
- Xorijiy mamlakatlardagi sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaydi;

-Sug'urta mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvollarini yaxshilandi;

-Sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi;

-Avvalgi yillarga nisbatan majburiy sug'urta doirasi qisqarib, ixtiyoriy sug'urta tadbirlari kengaydi;

-Sug'urtaning xalq farovonligi yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi;

-Bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga e'tibor berildi, sug'urtaning yangi turlarini amalga oshirish ishlari boshlandi;

-Mustaqillik yillarida javobgarlikning qator turlari joriy etildi;

-Sug'urta faoliyati bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasida tegishli munosabat o'rnatildi.

O'zbekiston sug'urta bozori faol ravishda rivojlanmoqda. Bunday rivojlanishning asosiy manbai, so'ngi yildagi milliy iqtisodiyotimiz namoyon etayotgan yuqorisur'atli o'sishlar, hamda davlatimiz va hukumatning amalga oshirayotgan faoliyatidir.

Sug'urta bozori bozor munosabatlari subyektlarining mustaqilligini, ularning sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha teng huquqli hamkorligini ko'zda tutadi.

Sug'urta bozorining subyektlari quyidagilardan iborat:

- O'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urtalanuvchilar).

- Bunday xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar (sug'urtalovchilar).

- Mazkur shaxslar o'rtasidagi vositachilar (sug'urta agentliklari va brokerlari).

- Sug'urtalangan shaxslar.

- Manfaatdor shaxslar (naf oluvchilar).

- Uchinchi shaxslar.

Ichki sug'urta bozorining moliyaviy tarkibini sug'urta tashkilotlarini moddiy va moliyaviy resurslari tashkil qiladi. Sug'urta bozorining asosiy vazifasi sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish (marketing, reklama), shartnomalar tuzish va sug'urta

polislarini sotish, maqsadga muvofiq va egiluvchan ta'rif siyosatini olib borish, o'z infratuzilmasini tartibga solish hisoblanadi.


Bozorning tashqi olami bu – bozorning ichki tizimini qamrab turuvchi va unga ta'sir o'tkazuvchi birgalikdagi harakat qiluvchi kuchlar tizimi (davlatning iqtisodiy siyosati, moliyaning inflatsion holati, valyuta kursi va b.).

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar.

Ma'lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo'ladi hamda ular o'rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayriboshlanadi. Xuddi shunday, sug'urta bozorida ham sotuvchi (sug'urtalovchi) va xaridor (potentsial sug'urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu yerda potentsial sug'urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potentsial sug'urtalanuvchini to'g'ridan to'g'ri sug'urtalanuvchi deb atasak, katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug'urta kompaniyalari bilan hevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug'urta «mahsulotini» sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hal sug'urtalovchilari bilan tegishli sug'urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potentsial sug'urtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sug'urtalovchilar haqidaga piradigan bo'lsak, sug'urtalovchi – bu mamlakat hududida sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug'urtalash o'zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo'lishi va sug'urtaga bog'liq bo'lmagan operatsiyalar shug'ullanmasligi zarur.

Sug'urtalovchilar bozorga o'zlarini ishlab chiqargan o'ziga xos mahsuloti – sug'urta xizmatini taklif etadilar. Ushbu xizmatlar yuzlab, minglab sug'urta kompaniyalari tomonidan sotilishi mumkin. O'z-o'zidan bu holat sug'urta bozorida potentsial

mijozlarni jalb etish uchun sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi va «mahsulot»ning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi potentsial sug'urtalanuvchi har tomonlama o'zining talabini qondiradigan mahsulotga ega bo'ladi. Bayon etilganlar quruq gap emas, balki bugungi kunda iqtisodiy muvaffaqiyatli etgan mamlakatlar bozorida ro'y berayotgan oddiy haqiqatdir. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni quyidagichizmada yaqqol ko'rish mumkin:



**Sug'urta kompaniyalari**

**Sug'urtalanuvchilar**

Sug'urta kompaniyasi o'z mahsulotini bozorda sotar ekan, zimmasiga katta mas'uliyat olganligini unutmasligi kerak. Chunki sug'urtalovchi o'zgina sug'urta badali evaziga yirik miqdordagi riskni qabul qilib oladi va sug'urta hodisasi ro'y berganda zimmasidagi sug'urta qoplamasini to'lashi shart. Shu o'rinda biz sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishni istagan yoki muayyan sug'urta xizmatiga ehtiyoj sezgan shaxslarga sug'urta shartnomasini tuzishdan oldin sug'urta kompaniyasining moliyaviy ahvoli, balansini bilan albatta tanishib chiqishlarini maslahat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayonda sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topmoqda.

Sug'urta hozorini rivojlantirish to'g'risidagi 2007 - 2010 yillarga mo'ljallangan dastur Respublika Prezidenti tomonidan ma'qullandi. Ushbu dasturda sug'urta turlarini rivojlantirish, sug'urta xizmatlari sifatini yaxshilash, sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda sug'urtalashni tartibga solish uslublarini takomillashtirish masalalari o'rin olgan. Jumladan,

ushhu yoʻnalishda qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirish, majburiy sugʻurta turlari boʻyicha qonun loyihalarini tayyorlash masalalari.

Shular qatori sugʻurta bozorida professional qatnashuvchilar tarkibini kengaytirish va ularning faoliyatini amalga oshirishni tartibga solish koʻzda tutilgan. Endilikda sugʻurta bozorida aktuarlar, adjasterlar, syurveyerlar faoliyat yuritadilar.

Sugʻurta xizmatlari hajmini spektini kengaytirish, ularning sifatini oshirish borasida biznes sohasi uchun sugʻurta xizmatlari koʻrsatish boʻyicha yagona talablarni kiritish, sugʻurta tashkilotlarining mintaqaviy boʻlinmalari sonini koʻpaytirish, ayniqsa qishloq joylarida, tadbirkorlik faoliyatini import-eksport operatsiyalarini sugʻurtalash, uzoq muddatli hayot sugʻurtasi boʻyicha yangi sugʻurta mahsulotlarini joriy qilish.

2010-yilgacha moʻljallangan dastur doirasida respublikaning uchta yirik kompaniyalari «Oʻzbekinvest» EIMSK, «Oʻzagrosugʻurta» DASK, «Kafolat» DASK ustav jamgʻarmalaridagi davlat ulushlarini sotish rejalashtirilgan. Hozirda Oʻzbekiston sugʻurta bozorida 30 yaqin har xil mulkchilik shaklidagi sugʻurta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Shulardan 1 ta kompaniya hayot sugʻurtasi boʻyicha, 1 ta kompaniya qayta sugʻurtalash boʻyicha va 28 ta kompaniya umumiy sugʻurtalash boʻyicha.

## **6.2. Sugʻurta bozori infratuzilmasi va uning professional ishtirokchilari**

Sugʻurta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Shu nuqtai nazardan, sugʻurta faoliyatida risklar transferi ham oʻz navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bogʻliqdir.

Shu oʻrinda, «infratuzilma» tushunchasi iqtisodiy ilmiy lugʻatlarda turlicha. Masalan, «asosiy ishlab chiqarish sohalari va aholiga xizmat koʻrsatuvchi iqtisodiy tarmoqlar yigʻindisi» yoki maʼlum tarmoqqa xizmat koʻrsatuvchi ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi tarmoqlar majmuasi» kabi maʼnolarda

qo'llanilishini qayd etib o'tish lozim. Xususan, sug'urta bozori infratuzilmasining mazmun-mohiyatini ochib berishda, iqtisodiyot subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun kafolatli shart-sharoit yaratuvchi faoliyat turlari nazarda tutiladi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek, assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar.

Tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining yana bir asosiy subyekti bu avariya komissaridir. U sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatda ishtirok etadi. Ta'kidlash mumkinki, avariya komissari sug'urta tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. U sug'urta tashkilotining vakili sifatida sug'urta hodisasi oqibatida zarar ko'rgan mulkni ko'rikdan o'tkazadi, uning ko'lamini va sabablarini aniqlaydi hamda avariya sertifikatini tuzadi. Ba'zi mamlakatlarda sug'urta tashkiloti tomonidan avariya komissariga ma'lum limit doirasida yo'qolgan mulkni qidirish xarajatlarini amalga oshirish huquqi ham berilishi mumkin.

Mamlakatimizda aksariyat hollarda sug'urta tashkilotining o'zi yoki hodisaning turiga qarab tegishli tashkilot (yo'l patrul xizmati, baholovchi tashkilot va boshqalar) tomonidan avariya komissarining vazifasi bajarilmoqda. Bu holat, albatta, sug'urta xizmatining sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mazkur jarayonga avariya komissari faoliyatining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi turli subyektlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchlari ortishiga omil bo'ladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida avariya komissari bilan «yonma-yon» syurveyer va dispasherlar kabi subyektlar ham faoliyat ko'rsatadi. Syurveyer – bu maxsus ekspert bo'lib, u sug'urta obyektlarini sug'urta tashkiloti so'roviga asosan ko'rikdan o'tkazuvchi subyekt sanaladi. U sug'urtalanuvchi tomonidan obyektini ko'rikdan o'tkazish uchun ham jalb etilishi mumkin. Ta'kidlash lozimki, uning avavriya komissari bilan o'zaro o'xshash hamda o'ziga xos farqli tomonlari ham mavjud. Bundan tashqari syurveyerning ixtisoslashagnlik darajasi odatda avariya komissariga nisbatan yuqori sanaladi. Shuning uchun avariya komissari ham ba'zan syurveyer xizmatidan foydalanadi.

Sug'urta bozorida avariya komissari va syurveyer bilan birgalikda dispasher ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Mazkur faoliyat dengiz sug'urtasi bilan bog'liqligi sababli asosan dengiz bo'yi davlatlarida rivojlangan. Mol-mulk yoki boshqa obyektlar dengiz orqali manzilga yetkazilish jarayonida yuz berishi ehtimol bo'lgan, turli risklardan sug'urtalanadi. Ma'lumki, dengiz transportida bir necha subyektlarning mol-mulki yuklangan hamda ular sug'urtalangan bo'lishi mumkin. Dengizda sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida mulklarning zararlanishi umumiy avariya deb nomlanadi.

Umumiy avariya holatida har bir mulk egasi qancha zarar ko'rganligini aniqlash lozim bo'ladi. Aynan shunday faoliyatni dispasher amalga oshiradi, hamda u ko'rilgan zararni hisoblash va uni holisona taqsimlash bilan shug'ullanuvchi mutaxassis hisoblanadi. Zararning hisobi bo'yicha tuzilgan hujjat dispasha deb nomlanadi.

Sug'urtachilar uyushmasi unga a'zo bo'lgan subyektlarning manfaatlariga xizmat qilish maqsadida (masalna, 1985-yildan boshlab faoliyat ko'rsatayotgan Britaniya sug'urtachilar assotsiatsiyasi singari) tashkil etilishi mumkin bo'lgan sug'urta bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismini sanaladi. Mazkur uyushma (assotsiatsiya)ning vazifasi keng ko'lamli bo'lib, u sug'urta sohasiga oid bilimlarni ommalashtirish, maxsus bukletlar, statistik ma'lumotlarni nashr etish kabi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida auditorlik tashkilotlari ham o'ziga xos o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq sug'urta tashkilotlari ham auditorlik tekshiruvidan o'tishlari majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Auditorlik tekshiruvi sug'urta tashkilotining so'roviga asosan amalga oshiriladi. Uning natajasiga ko'ra, auditor sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvoli yuzasidan o'z xulosasini beradi. Mazkur xulosada sug'urta tashkilotining moliyaviy holati aks ettiriladi. Sug'urta tashkiloti auditor taqdim etgan xulosadan kelib chiqib, o'zining moliyaviy holatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqadi hamda uni amalga oshiradi.

Sug'urta faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, maxsus (masalan, tijorat banklari buxgalteriyasi kabi) buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuni qayd etish lozimki, sug'urta faoliyatini tekshiruvchi auditor hu soha yuzasidan maxsus bilimga ega bo'lmasa, tomonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan, sug'urta faoliyatini rivojlantirishda uning o'ziga xos bo'lgan buxgalteriya hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan tashqari maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar ham sug'urta bozori infratuzilmasining subyekti sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Mazkur subyektlar jumlasiga ixtisoslashgan va keng qamrovli maslahat byurolari, advokatlik hamda baholovchi firmalarni kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda maslahatchilik xizmatining rivojlanganlik darajasi hozirda yuqori emas va mazkur mutaxassislar sug'urta faoliyatida deyarli ishtirok etishmayapti.

O'zbekistonda 2004-yilning yakuniga ko'ra, sug'urta mukofotlari 32,9 mlrd so'mga yaqin summani tashkil etadi. 2005-yil bu ko'rsatkichning yanada ortishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston sug'urta bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish uning xizmatlari ko'lamini kengaytirishni hamda ularning sifatini oshirishni taqozo etadi.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor infratuzilmasi sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish bilan bir



butunlikda kechadigan jarayondir. O'zbekistonda sug'urta bozori infratuzilmasining shakllantirilishi hirmuncha o'zgacha tarzda kechmoqda. Sug'urta bozori infratuzilmasida alohida mustaqil faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan sug'urta vositachilari, auditorlari, sug'urta obyektlarini baholovchi (ekspert)lar hamda boshqa subyektlar, xorijiy amaliyotdagidan farqli ravishda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining o'ziga birlashtirilgan. Garchi sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishi sust kechayotgan bo'lsa-da, sug'urta tashkilotlarining o'z infratuzilmasini rivojlantirishga bo'lgan harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Xususan, bu borada «O'zbekinvest» EIMSKning yetakchi bo'layotganligini, uning qoshida «Sug'urta olami» nomli sug'urta biznesini o'qitish va «Innovatsiya va sug'urta xizmatlarini rivojlantirish» markazlari, «O'zbekinvest Eksiminform» marketing hamda «O'zbekinvest Assistans» servis agentliklari «O'zbekinvest Sarmoyalari» investitsion kompaniya shuningdek, boshqa sho'ba korxonalar samarali faoliyat ko'rsatayotganligini qayd etish mumkin.

Sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish va uning subyektlari faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish O'zbekistonda sug'urta bozori taraqqiyotini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Xususan, mamlakatimizda sug'urtachilar uyushmasini tashkil etish, aktuariy, syurveyer kabi subyektlarning faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, bu jarayon sug'urta bozori infratuzilmasi subyektlarining alohida ixtisoslashuvini hamda ularning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

### 6.3. Sug'urta bozorining turlari

Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashkiliy-huquqiy va hududiy aspektlari bo'yicha bo'linishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy jihatdan aksionerlik, birgalikdagi, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi.

Hududiy jihatdan esa milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi.

Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalari va ularning faoliyatlarini qamrab oladi. Bunga

O'zbekiston sug'urta bozorini misol qilib olishimiz mumkin. Hozirgi kunda milliy sug'urta bozorimizda yuzga yaqin sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yiriklari davlat mulki ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari bo'lib, ular «O'zagrosug'urta» DASK, «Kafolat» DASK, «O'zbekinvest» EIMSK va «Madad» sug'urta agentliklaridir. Bulardan tashqari, hir nechta chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan xususiy sug'urta kompaniyalari ham o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Jahondagi eng yirik sug'urta bozori AQShda joylashgan. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining qariyb 40% dan ortig'i AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Bu yerda hayotni sug'urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ba'zi birlari dunyo sug'urta bozorida ham oldingi o'rinlarda turadi. Masalan, «Prudential of USA» kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va mavjud aktivlari, to'plagan sug'urta mukofotlari bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda savdo, iqtisodiy va boshqa jihatlardan o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlar hududlarining qamrab oluvchi bozor tushuniladi. Yevropa hamjamiyatining sug'urta bozori yirik mintaqaviy bozordir.

Xalqaro sug'urta bozori sifatida sug'urta faoliyatini olib boruvchi alohida mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Jumladan, hozirgi vaqtda sug'urta bozorining xalqaro darajada muhim o'rni bor va keyingi Yaponiya sug'urtachilari dunyo bozorida yetakchilik qilib kelishmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, 1992-yili jahondagi eng yirik 20 ta hayotni sug'urta qiluvchi kompaniyalar ichida 9 ta yoki 45 foizi Yaponiyaga tegishlidir. Bu kompaniyalarning moliyaviy salohiyati 869 mlrd dollar qilib baholangan.

Sug'urta bozorlari hududiy bo'linish bilan bir qatorda sug'urta bozorlariga qarab ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar amaliyotida sug'urta bozori ikkiga bo'linadi:

1. Hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari bozori.

2. Umumiy sug'urta xizmatlari bozori.

Sug'urta bozorining vositachilari. Shuni alohida qayd etish lozimki, sug'urta bozorining institutsional tarkibi, nafaqat sug'urta kompaniyasidan va sug'urtalanuvchilardan iborat, balki yana shunday subyektlar mavjudki, ularning ishtirokisiz sug'urta bozorini tasavvur qilish qiyin.

Yevropa hamkorlik tizimida qabul qilinishicha, sug'urta tashkilotlari ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan asosda o'z faoliyatlarini tashkil qiladilar. Ixtisoslashmagan sug'urta tashkilotlari sug'urtaning bir necha turlari bo'yicha o'z ishlarini olib boradilar. Ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari 1-2 yo'nalishlarda ixtisoslashgan holda faoliyat yuritadilar.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xalqaro sug'urta bozori va uni tashkil etilishi haqida tushuncha bera olasizmi?
2. Nima sababdan sug'urta faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi?
3. Sug'urta faoliyatining funksiyalari va vazifalari to'g'risida nima deya olasiz?
4. Milliy sug'urta bozorimiz haqida fikrlaringizni ayting.
5. Sug'urta bozorida monopoliyani cheklash kerakmi?
6. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish.

## VII BOB. CHET MAMLAKATLARDA SUG'URTA ISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

7.1. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan chet mamlakatlarda sug'urtaning rivojlantirishning asosiy tendensiyalari.

7.2. Buyuk Britaniya sug'urta bozori va uni davlat tomonidan tartibga solish.

7.3. AQSh da sug'urta ishini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

7.4. Fransiya sug'urta bozori va uning o'ziga xos xususiyatlari.

### 7.1. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan chet mamlakatlarda sug'urtaning rivojlantirishning asosiy tendensiyalari

Sug'urtaning kelib chiqish tarixi uzoq davrni o'z ichiga oladi. Uning dastlabki kurtaklari qadimgi Rim saltanatining hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Dastlab hamkorlarning birlashishi natijasida hamkasb jamiyatlari tuzilgan va bu jamiyat a'zolari diniy marosimlarni o'tkazish uchun «Dafn kassasi»ga o'zaro hadallar (pay) to'lash asosida pul to'plaganlar. Agar jamiyatning birorta a'zosi vafot etsa to'plangan pul uning marosimiga berilar edi. Vaqt o'tishi bilan bu to'plangan pul boquvchisiz qolgan oila a'zolariga ham beriladigan bo'ldi. Shu davrlardayoq Shaxsiy sug'urta turlari shakllana boshlagan edi.

Rimda vujudga kelgan sug'urta jamiyatlari davr o'tishi bilan nemis xalqi orasida shu hududning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda, bir xil bo'lsa ham, shaklan o'zgargan holda qabul qilingan. Germaniyada tashkil bo'lgan savdogarlar palatasi (uyushma) keyinchalik sug'urta hamdo'stlik jamiyati ko'rinishida shakllanish rivoj topgan. Sug'urta muassasalarining o'rta asrlarda pakso bo'lganligi o'z navbatida shu davrlarda yuklarni dengiz orqali yetkazib berish kafolati bilan bog'liq. Savdo sotiqning rivojlanib borishi sug'urta tizimining turli mamlakatlarda rivoji, jamiyatning turli sohalarida sug'urta munosabatlari shakllanishi alohida ahamiyat kasb etib borgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, dastlabki sug'urta uyushmalari XII asrda Islandiyada tashkil etilgan. Bu uyushmalar

orqali shu mamlakatda yashovchi xalqlar o'z mol-mulklarini yong'indan, dehqonlar esa chorva mollarini nobud bo'lishdan saqlash uchun sug'urtalash maqsadida birlashganlar. XIII asrda Yevropada dengizda tashiladigan yuklarni sug'urtalash rivojlanib, XV-asrga kelib dengiz yo'llari sug'urtasi xususiy aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etilgan. Sug'urtapash ishida yuk tashuvchi yuklarini turkumlash va sug'urtalanishini nazorat qilishga Angliya va Germaniya mamlakatlarida ham alohida e'tibor berila boshlagam. Sug'urta to'g'risidagi dastlabki qonunlar o'sha davrlarda qabul qilingan edi. 1446-yili Shleyzi. 1542-yilda Golshteni sug'urta jamiyatlari London va Parijda tashkil etildi. Bu jamiyat aktiv faoliyatlar yuritgani bois jahoida mashhur edi. Yevropa mamlakatlari bo'lgan Germaniya va Shvetsariyada ham qishloq xo'jaligi sohasida chorva mollarini va qishloq xo'jalik ekinlarini sug'urtalash bo'yicha sug'urta jamiyatlari tashkil etildi.

Ayniqsa 17-asrga kelib sug'urta aksiyadorlik kompaniyalari soni ko'payib faol ish yurita boshladilar. Jumladan. Gollandiya Ost Indiya kompaniyasiga 1602-yili asos solindi, 1613-yilda Angliya-Ost Indiya kompaniyasi tashkil etildi. 1726-yili Kopengagenda. 1734-yilda Stokgolmda, 1720-yilda Londonda aksiyadorlik sug'urta jamiyatlari barpo etildi. 18-asrga kelib Yevropa mamlakatlarida sug'urta turlaridan dengiz sug'urtasi, chorva mollari nobud bo'lishidan sug'urtalash, yong'indan sug'urtalash jamiyatlari yuritila boshladi. Yevropa mamlakatlarida sug'urta jamiyatlarining faoliyatidan uning azolari foyda olayotganligini ko'rgan boshqa fuqarolar ham milliy sug'urta jamiyatlariga a'zo bo'la boshladilar. Keyinchalik Angliya, Germaniya, Shotlandiya, Fransiya kabi mamlakatlarida ham sug'urtalash ishlari yaxshi yo'lga qo'yiladi. ayniqsa, mulklarning yashin urishidan sug'urtalash. 20-asrga kelib iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan aholini sug'urtalash tizimi vujudga keltirildi. 20-asrning boshlarida Yevropada ishsizlik o'sih borayotganligini hisobga olib, Angliya va boshqa mamlakatlarda ishsizlikdan sug'urtalash davlat yo'li bilan majburan tashkil etilgan edi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tizimi asta-sekin jamiyat hayotini barcha jabhalariga kirib bordi. endilikda hamma narsani sug'urtalash mumkin bo'lib qoldi. Aholi

o'rtasida sug'urta haqidagi bilimlar keng miqyosda targ'ibot qilinganligi tufayli har bir fuqaro sug'urta kompaniyalaridan xabardor bo'lib sug'urta kompaniyalarining foydalilik faoliyatidan bahramand bo'lganliklari natijasida sug'urtalanuvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Sug'urta faoliyati baynalmillatlashib borib xalqlar orasida munosabatlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Sug'urta bozor iqtisodiyoti infrastrukturasiining tarkibiy qismi va ishlab chiqarish munosabatlarining muhim unsurlaridan biridir. Sug'urta ko'p ukladli xo'jaliklarning har birini sug'urtalashda, ularning mol-mulklarini saqlashda alohida ahamiyatga egadir.

Biz ma'ruzamizning boshida sug'urta dastlab XII asrda Angliyada yuzaga kela hoshlaganligi haqida aytgan edik, keyinchalik sug'urta butun dunyo mamlakatlarida tarqala boshladi, lekin hozir ham xorijiy mamlakatlarda uning rivojlanishi darajasi bir xil emas.

Ba'zi mamlakatlarda, masalan, AQSh, Yaponiya, Shveytsariyada sug'urta katta biznesning bir turiga aylangan bo'lsa, Afrikadagi kichik davlatlarda sug'urta ishlarini xorijiy mamlakatlar kompaniyalari bajaradi. Masalan: Angliyadagi «Lloyd» sug'urta kompaniyasi, Rossiyada «Pul» kompaniyalari.

Xorijiy mamlakatlarda sug'urtaning bir tekis rivojlanmasligiga 4 ta sabab bor:

1. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bir xil emas.
2. Tabiiy olatlar va baxtsiz hodisalarning har bir mamlakat sharoitiga ko'ra turli muddatlarda takrorlanib turishi.
3. Ko'pchilik aholining sug'urta imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun sharoitning yetarli emasligi. Masalan, Afrikadagi dehqonlar sug'urta imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar.
4. Kadrlarning notekisligi.

Hozir o'z sug'urta tizimiga ega bo'lmagan biror mamlakatni izlab topish qiyin. To'g'ri, ayrim Afrika mamlakatlarida milliy sug'urta ishlarini xorijiy mamlakat sug'urta kompaniyalari bajaradi. AQShning sanoatlashgan yirik shaharlaridan tortib to Osiyo va Afrikaning ichkarisida joylashgan kichik mamlakatlarga, Xitoyda, Hindistonda, Avstraliyada sug'urtaning turli shakllari joriy

qilingan. Sug'urta hatto biznes usullaridan biriga aylangan desak ham xato qilmagan bo'lamiz.

Sug'urta tashkilotlari dastlab XII asrda Angiliyada kurtak ota boshlaganini eslatib o'tgandik. Kelsi asrda sug'urta Angiliyadan Rossiyaga ko'chib, dastlab xorijiy sug'urta tashkilotlari, keyinchalik milliy sug'urta tashkilotlari harpo qilingan bo'lsa, XIX asr oxirlariga kelib Turkistonda uning filiallari qad ko'targan.

Jahon mamlakatlari sug'urtaning bir tekis rivojlanmaganligi sabab, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bir xil bo'lmaganligidir. Iqtisodiyoti tez rivojlanmagan mamlakatlarda xususiy monopoliya tashkilotlarining va korxonalarining iqtisodiy taraqqiyoti sug'urtaning tez rivojlanishiga imkoniyatlar yaratib bergan. Biroq mamlakatlarda sug'urtaning xalqaro hisohoti eksport va import kabi namunali yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli har bir mamlakatning jahon tarkibidagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlar yo'q. Bu yo'nalishda jahon bo'yicha qoplangan zararining umumiy miqdorini hisoblab chiqish imkoniyatiga ega emasmiz.

Xorijiy mamlakatlar bo'yicha sug'urtaning umumiy rivojlanishini bitta yoki ikkita ko'rsatkich bilan aniqlash qiyin. Lekin ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar bor shularni ko'rib chiqamiz.

1. Sug'urta tashkilotlarining soni. Bu jihatdan AQSh, Angliya, Kanada oldinda boradi.

2. Sug'urta to'lovlarining hajmi bo'yicha ham bu davlatlar oldinda. Bu mamlakatlarda sug'urta to'lovi hissasi jahon bo'yicha sug'urta to'lovining 40 foizini tashkil qiladi. Yevropada 30, Osiyoda 25, Afrikada 1 foiz atrofida.

1991-yilda butun jahonda sug'urta to'lovlari 14 mlrd dolarni tashkil etdi. Shundan Yaponiyada bo'lib o'tgan «Mireyli» to'fonidan ko'rilgan zarar uchun 5,2 mlrd dollar, AQShda o'rmon yong'inidan ko'rilgan zarar uchun 1,2 mlrd dollar to'langan.

3. Sug'urta to'lovining jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi ko'rsatkichi bo'yicha:

- Shveysariyada 2.5 ming dollar;
- AQSh 2.8 ming dollar;
- Xitoy 2.4 ming dollar.

Rivojlanayotgan bozorlarda hayotiy sug'urtalar 2005-yilga nisbatan 3 baravarga oshdi. Hayot sug'urtasi bilan bog'liq bo'lgan tijoratning samaradorligi o'sib borardi, chunki xarajatlar miqdori kafolat foiz stavkalari keskin qisqartirildi. Bu yangilanishlar hayot sug'urtasiga qo'yilgan kapitalning o'sishiga olib keldi.

Rivojlanayotgan davlatlar bozorida o'sish sur'atining manbai iqtisodiy rivojlanish edi. Biroq umumjahon miqyosida olganda, halokatlar ehtimoli kam bo'lgan joylarda sug'urta stavkalari tushib ketdi. Shu bilan birga yirik halokatlarning kuzatilmaganligi, 2006-yilda bu tizimda rekord daromadlar olinishiga sabab bo'ldi.

Iqtisodi rivojlanayotgan Osiyo davlatlari: Gonkong, Singapur. Tayvan va Janubiy Koreya davlatlari sanoati rivojlangan davlatlar sinfiga kiritildi. Natijada bu davlatlardagi sug'urta mukofotlari 87% dan 92% gacha o'sdi.

Xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab sug'urta tashkilotlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Fuqarolarning barcha tahaqalariga xizmat qiluvchi aksiyalari birja va boshqa yo'l bilan sotiladigan erkin sug'urta kompaniyalari.

2. Xususiy hissadorlik sug'urta kompaniyalari. Bu tashkilotning xususiyati shundan iboratki, ularning aksiyalariga ma'lum doiradagi shaxslar egalik qiladilar. Jamoa qarorlari bilan ularning aksiyalari sotilishi mumkin.

3. Davlat sug'urta kompaniyalari. Bu tashkilotlar aksiyalariga davlat to'la yoki qisman egalik qiladi. Bundan tashqari davlat tomondan ayrim ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari ham harpo qilinishi mumkin. Bu tashkilotlar eksportni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga yordam beradilar.

4. O'zaro sug'urtalash jamiyatlari. Ayrim ishlab chiqarish sohaslarida bunday sug'urta kompaniyalari tuzilib, ularni asosiy maqsadi foyda olish bo'lmasdan murakkab vaziyatlardan bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatiladi. Masalan, Italiyada rivojlangan.

5. Ayrim sanoat va savdo tarmoqlariga xizmat qiluvchi ixtisoslangan sug'urta tashkilotlari. Masalan: aviatsiya sohasida ixtisoslangan sug'urta tashkilotlari mavjud.

6. Sug'urta sindikatlari. Masalan: «Loyd» sug'urta kompaniyasi Angliyada faoliyat ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatilgan



sug'urta tashkilotlarining daromadlari sug'urta to'lovlari, aksiyalar bo'yicha dividendlar hisobiga shakllanadi.

7. Bundan tashqari Yevropa iqtisodiy hamkorlik tizimida 1978-yil 1-yanvardan boshlab ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari tizimi tashkil etildi. Nomi Yevropa sug'urta assotsiatsiyasi. Unda 20 xil qisqa muddatli, 7 xil uzoq muddatli sug'urta turlari mavjud.

Xalqaro sug'urta kompaniyalari. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida sug'urtalovchilarning faoliyati turli xil tashkiliy shakllarda, ya'ni hissadorlik kompaniyalari; davlat va aralash sug'urta tashkilotlari; xususiy tadbirkorlik va birlashmalar, kooperativ sug'urta tashkilotlari; qo'shma korxonalar; avtosug'urtalovchilar parallel shakllarda namoyon bo'ladi. Turli davlatlarda sug'urta jamiyatlarini tuzishda turli xil tashkiliy-huquqiy shakllardan amaliyotda foydalaniladi. AQSh va Germaniyada hissadorlik jamiyatlari, Fransiyada o'zaro sug'urta jamiyatlari, Buyuk Britaniyada esa, sug'urta assotsiatsiyalari ish olib bormoqda.

Italiya va Ispaniyada kooperativ sug'urtalash amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiyada davlat kapitali ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Ular, asosan, xalqaro sohada maydonga chiqadilar.

## **7.2. Buyuk Britaniya sug'urta bozori va uni davlat tomonidan tartibga solish**

Buyuk Britaniya jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Keyingi o'n yil mobaynida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga Buyuk Britaniya sanoatining qo'shayotgan hissasi sezilarli darajada kamaygan, uning tovarlarining Xalqaro bozorlaridagi raqobatdoshligi tushib ketgan bo'lsa-da, Buyuk Britaniyaning moliya-kredit tizimi hamon dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda.

Buyuk Britaniya moliya institutlari birinchi navbatda sug'urta kompaniyalari, sanoat korxonalarining yirik miqdordagi aksiyalarga ega va bu holat sug'urta va sanoat kapitalining birlashishiga olib kelmoqda. Ayrin ma'lumotlarga qaraganda, sug'urta kompaniyalarining qariyb 30% aktivi yirik sanoat kompaniyalarining

aksiyasiga to'g'ri keladi. Faqat bugina emas. Bugungi kunda, Buyuk Britaniyada aholi va korxonalarining vaqtincha bo'sh mablag'larini iqtisodiyotga jalb etishda sug'urta kompaniyalari o'ziga xos mavqega ega. Masalan, 1958 – 1962-yillarda sug'urta kompaniyalar va nodavlat nafaqa fondlari orqali 50 foizga yaqin Shaxsiy omonatlar yig'ib olingan bo'lsa, 1995-yillarda ham bu ko'rsatkich deyarli o'zgarmagan. Shuning uchun ham Buyuk Britaniyada sug'urta kompaniyalarini «Moliyaviy vositachilar» yoki «yirik institutsional investor» sifatida baholashadi.

Sug'urta kompaniyasi uzoq muddatli sug'urta shartnomalarini tuzish yo'li bilan aholidagi vaqtincha bo'sh mablag'larini sug'urta fondiga jalb etadi. Xuddi shunday ular korxonalar va banklar bilan ham mulk sug'urtasi bo'yicha shartnomalar tuzib, katta miqdorda sug'urta fondini shakllantiradi. O'z navbatida, sug'urta kompaniyasi bu fondning mablag'larini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltiradi.

Bozor munosabatlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari Buyuk Britaniya iqtisodiyotining muhim strategik sohasi hisoblanadi. 1995-yilda sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta badallari umumiy 54 million funt sterlingdan oshib ketdi. Bu yalpi ichki mahsulotning 7-8 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yig'ib olingan sug'urta badallarini deyarli 45 foizi sug'urta kompaniyalarining chet mamlakatlarda olib borgan sug'urta operatsiyalariga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniya to'lov balansi strukturasi tahlil qiladigan bo'lsak, valyuta ushurlarining 50 foizi sug'urta badallari hisobiga to'g'ri kelganligini ko'ramiz. Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari jahonning 43 ta mamlakatda sug'urta operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Buyuk Britaniyada sug'urta ishini faol rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Birinchidan, bu yerda tadbirkorlikni erkin yuritish uchun hukumat yoki qonunchilik tomonidan eng kam nazorat tizimi joriy qilingan. Bu holat so'zsiz Buyuk Britaniyada faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sug'urta kompaniyalari uchun ham tadbir etiladi. Hozirgi paytda, Buyuk Britaniya sug'urta bozorida xorijiy mamlakatlarning 150 ga yaqin

kompaniyalari sug'urta operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Ikkinchidan, jahon miqyosida erishilayotgan tijorat bitimlarining anchagina qismi Angliya hissasiga to'g'ri keladi. Agar tuzilgan bitimlarning ijrosi bo'yicha e'tirozlar kelib chiqadigan bo'lsa, sug'urta kompaniyalari darhol bunga sug'urta qoplamasini to'lashadi. Bu, o'z navbatida, biznesni xalqaro darajada rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'nlab yillar davomida Buyuk Britaniyada hamma uchun qulay bo'lgan soliqqa tortish tizimi shakllangan. Amaldagi soliqqa tortish tizimi yirik miqdordagi zaxira jamg'armalarini shakllantirishini va ularni investitsiya qilishni rag'batlantiradi.

Buyuk Britaniya milliy sug'urta kompaniyalari o'zlarining chet mamlakatlardagi bo'lim va filiallari orqali xalqaro sug'urta bozorlarida ishtirok etmoqda. Xorijiy mamlakat sug'urta kompaniyalarini Buyuk Britaniya bozorlariga intilishi, Londonda xalqaro ahamiyatga molik sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish va transmilliy kompaniyalarga xizmat ko'rsatish kabi qiziqishlari bilan bog'liq. Yuqorida qayd etganimizdek, sug'urta kompaniyalari yig'gan sug'urta badallarining katta qismi, ularning chet mamlakatlarda olib borgan operatsiyalari hisobidan shakllanadi. Masalan, «Ro'yyal Inshurens» kompaniyasi sug'urta badallarining 68,4 foizi tashqi manbalardan kelib tushgan. Shuningdek, «Kommershial Yunion» va «Jeneral eksident» kompaniyalarining 60 foizga yaqin sug'urta badallari xorijiy mamlakatlardan kelib tushgan. Bu mablag'larning asosiy qismi AQSh va Kanadadan kelib tushadi.

Sug'urta kompaniyalari vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni, asosan, sanoat, transport, savdo va boshqa aksiyador kompaniyalarni rivojlanishiga yo'naltiradilar. 1995-yil ma'lumotlariga qaraganda Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari London Fond birjasida ro'yxatda tushgan jami aksiyador kompaniyalarning 22 foiz aksiyalarini sotib olgan. Sug'urtalevchilarning o'z mablag'larini bu investitsiya obyektiga katta miqdorda sarf etishini shu bilan tushuntirish mumkinki, aksiyalar yuqoridarajada foyda keltiradilar hamda sug'urta kompaniyani aksiyadorlik kompaniyasining yirik miqdordagi aksiyasini sotib olib, ushbu kompaniya ustidan nazorat o'rnatishi mumkin. Ammo shu bilan bir qatorda, aksiyaning kursi

pasayib ketishi bilan, sug'urta kompaniyalari katta zarar ko'rishi mumkin.

Keyingi yillarda Buyuk Britaniya sug'urtalovchilari kattagina hajmdagi o'z mablag'larini ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalarni moliyalashtirishga yubormoqda. Hozirgi paytda ko'chmas mulkka investitsiya jami investitsiyalarning 15 foizini (uzoq muddatli sug'urta shartnomalari bo'yicha) tashkil etmoqda. Ko'chmas mulkka investitsiya qilishning ijobiy xususiyatlardan biri shundan iboratki, ko'chmas mulk pulning qadrsizlanish jarayonidan ishonchli himoyalangan. Ammo bu investitsiya obyektining ham bir qancha salbiy tomonlari mavjud. Masalan, amaliyotda ko'chmas mulklarni qisqa muddatda foydali narxda sotish ancha mushkuldir.

Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari o'zlarining vaqtincha bo'sh mablag'larini ipoteka kredit resursi sifatida ishlatishi yoxud bankka depozit sifatida saqlashi mumkin. 1995-yilda sug'urta kompaniyalarini investitsiyaga yuborgan pul mablag'lari 260 mlrd funt sterlingni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyalari iqtisodiyotni rivojlanishiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Buyuk Britaniyada 850 ga yaqin sug'urta kompaniyalari fauliyat ko'rsatmoqda. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, sug'urta kompaniyalari alohida sug'urta turlari va toifalari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun savdo va sanoat departamentining maxsus litsenziyasini olishlari zarur. Belgilangan klassifikatsiyaga asosan, 7 ta muddati sug'urta turlari va 18 ta umumiy sug'urta turlari (mulk, fuqarolik javobgarligi va baxtsiz hodisalardan) mavjud. Hozirgi paytda, Buyuk Britaniya aviatsiya sug'urta hozorining asosini tashkil etadigan 426 ta kompaniya samolyotlarni sug'urta qilish, 433 ta kompaniya esa dengiz kemalarini sug'urta qilish bilan shug'ullanmoqda.

Umuman olganda, Buyuk Britaniya sug'urta bozori ikki qismga bo'lingan:

1. Hayotni sug'urta qilish bozori.

2. Umumiy sug'urta bozori.

1995-yilda yig'ib olingan sug'urta hadallarining 55,4 foizi hayotni sug'urta qilish bozori, 44,6 foizi esa umumiy sug'urta bozori

turlariga to'g'ri keladi. Hayotni sug'urta qilish operatsiyalari ushbu sug'urta turlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan kompaniyalar tomondan olib boriladi. Hayotni sug'urta qilish hozorida, asosan, quyidagi sug'urta turlari bo'yicha shartnomalar tuziladi: hayotni individual sug'urtalash; nafaqa va annuitetlar; sog'liqni uzluksiz sug'urtalash, hayotni va nafaqani guruhlub sug'urtalash. Hayotning individual tartibda sug'urtasi bo'yicha soliq imtiyozlarining mavjudligi, ushbu sug'urta turi bo'yicha katta miqdorda sug'urta badallarini yig'ish imkonini beradi. Aytish kerakki, sug'urta kompaniyalari hayotni sug'urtasi bo'yicha katta miqdorda sug'urta qoplamalari ham to'lamoqda. Masalan, 1995-yilda hayotni individual sug'urtasi bo'yicha sug'urtalanuvchilarga jami 17,6 mlrd funt sterling mablag' to'lagan.

Buyuk Britaniyada aholiga va boshqa potensial mijozlarga sug'urta xizmati ko'rsatish shu darajada rivojlanganki, bunda har bir oila va fuqaroning daromadi va manfaati hisobga olinadi. Hozirgi paytda 12 ta sug'urta kompaniyasi daromadi uncha katta bo'lmagan shaxslar uchun hayot sug'urtasini joriy etgan. Bu sug'urta turining o'ziga xos xususiyati shundaki, sug'urta badallari 2 oyda bir marta yig'iladi. Sug'urta badallari agentlar tomonidan yig'iladi va ularning soni 35000 ga yaqin.

1995-yilda Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari umumiy sug'urta turlari bo'yicha 21,7 mlrd funt sterling miqdorida sug'urta badallarini yig'ib olishgan. Bu mablag'larning asosiy qismi yong'indan va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bo'yicha kelib tushgan.

Buyuk Britaniyada rasmiy ro'yxatdan o'tgan sug'urta kompaniyalari tarkibiga kelsak kema egalariining javobgarligini o'zaro sug'urtalash klublari ham kiradi. Hozirgi paytda 6 ta klub faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning eng yiriklari «Yunayted Kingdom» va «Britaniya»dir. Klub, kema egalariining uchinchi shaxsga zarar keltirish javobgarligini sug'urtalaydi. Bundan tashqari, yakka yetkazilgan zarar uchun javobgarlik, kemalarning bir-biriga to'qnashishi javobgarligi, dengizni neft mahsulotlari bilan ifloslanish javobgarligini sug'urtasini ham klublar amalga oshiradi. Kema egalariining klub sug'urta foiziga to'laydigan sug'urta badallari

kemaning yuk ko'tarish qobiliyatiga, klassiga va boshqa texnik parametrlariga nisbatan belgilanadi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, Buyuk Britaniya sug'urtasining quyidagi turlari mavjud:

– Hayotni vaqtinchalik sug'urta qilish. Bu sug'urta o'lim hodisasiga tegishli muddatga sug'urta qiladi. Ushbu sug'urta turi ho'yicha badal miqdori nisbatan kamdir. Masalan, Angliya fuqarosi bir yil muddatga 10000 funt sterlingga sug'urta qilinsa, sug'urta badali miqdori bir oyga 2 funt sterlingni tashkil etadi. Sug'urta badalining miqdori sug'urtalanuvchining yoshiga va sug'urta muddatiga bog'liq.

– Boquvchisini yo'qotish hodisasidan hayotni umrbod sug'urta qilish. Boquvchisini yo'qotish hodisasidan oilaning daromadi sug'urta qilinadi. Sug'urtalanuvchi dastlab katta miqdorda sug'urta hadali to'laydi. Masalan, 35 yoshdagi sug'urtalanuvchi 5000 funt sterling miqdorida 30 yil muddatga o'z oilasiga daromadni kafolatlash uchun 330000 so'mga sug'urta qilinadi.

– Umrbod hayotni sug'urtasi. Sug'urta kompaniyasi, sug'urtalanuvchi qilgan taqdirda, uning oilasiga yoki sug'urta polisida ko'rsatilgan shaxsga tegishli sug'urta summasini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta badali sug'urtalanuvchining butun hayoti davomida yoki keyingi 15-20 yil ichida to'lanishi mumkin.

– Aralash sug'urta. Sug'urtalanuvchi sug'urta badalini har oyda yoki yilda bir marta to'laydi. Sug'urta summasi shartnoma muddati tugashi bilan to'lanadi va unga tegishli murakkab foizlar vositasida hisoblangan foiz ham qo'shib beriladi. Agar sug'urtalanuvchi vafot etgan taqdirda sug'urta badali to'liq to'langanligi yoki to'lanmaganligidan qat'i nazar sug'urta summasi sug'urtalanuvchining qonuniy merosxo'riga to'lanadi.

– Renta sug'urtasi (annuitetlar). Sug'urtalanuvchi sug'urta badalini sug'urta kompaniyasiga bir vaqtini o'zida to'liq miqdorda yoki bir necha yillar davomida to'lashi mumkin.

Sug'urtalanuvchning o'zi to'lagan sug'urta badali summasini butun umr davomida to'lab boriladigan to'lovlar bilan hirga qaytarib olishi mumkin. Boshqacha so'z bilan ifodalanganda, sug'urtalanuvchi 60 yoshida o'zi to'lagan sug'urta badallarini to'liq

qaytarib oladi va undan keyin unga muntazam ravishda daromad to'lab boriladi. Masalan, agar fuqaro 65 yoshida 1000 funt sterling miqdorida sug'urta badali to'lagan bo'lsa, u qolgan umri davomida har yili 118 dan 140 funt sterlinggacha daromad oladi.

–Sog'liqni uzluksiz sug'urta qilish. Sug'urtalanuvchi har xil kasalliklar yoki baxtsiz hodisa tufayli sog'lig'ini yo'qotganda sug'urta kompaniyasi qoplama to'laydi. Sug'urta badali summasi sug'urta qoplamasiga nisbatan juda kam. Masalan, 25 yoshli sug'urtalanuvchi har oyda 15 funt sterlingdan badal to'lasa, unga sug'urta hodisasi ro'y bergan holatda, har yili 1000 funt sterlingdan sug'urta qoplamasi to'lanadi.

–Dengiz sug'urtasi. Kemalar, kemadagi yuklar dengiz falokati yoki avariya hodisalaridan sug'urta qilinadi.

–Injenerlik sug'urtasi. qurilish-montaj risklarini sug'urtasi. ekspluatatsiya jarayonidaai texnik qurilmalarini sug'urtasi.

– Ishlab chiqarish-xo'jalik risklarini sug'urtasi. Korxonalarda ishlab chiqarishni to'satdan to'xtab qolishi, yollanma ishchilarning suiste'mol qilishi, hamkorlarning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajara olmasligi oqibatida zarar ko'rish riski sug'urtalanadi.

I'qarolik javobgarligini sug'urtasi. Sug'urtalanuvchilarning uchinchi shaxs olidagi mulkiy javobgarligini himoya qiladi. Masalan, tadbirkorlikni yollanma ishchilar oldidagi javobgarligini sug'urtalash. Bunda yollanma ishchilarga sug'urta hodisasi ro'y bergan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanadi.

– Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati uchun ishlab chiqaruvchining javobgarligini sug'urtalash. Sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldidagi mulkiy javobgarligini himoya qiladi.

– Kasbiy javobgarlikni sug'urtalash. Bir qator toifa xodimlarning (arxitektorlar, injenerlar, advokatlar, auditorlar, vrachlar, notariuslar va hokazolar) kasbiy majburiyatini sifatti keltirishi mumkin bo'lgan zarari sug'urta qilinadi.

Buyuk Britaniyada sug'urta operatsiyalarining yarmidan ko'pi sug'urta brokerlari yordamida amalga oshiriladi. Bu xususiyat ushbu namlakat sug'urta tizimini boshqa mamlakatlar sug'urta tizimidan

tubdan farq qiladi. Shuni aytish joizki, ayrim rivojlangan davlatlarda xususan, Yaponiyada sug'urta brokerlari instituti umuman yo'q.

Buyuk Britaniyada potentsial sug'urtalanuvchilar, asosan, sug'urta brokerlari yordamida sug'urta shartnomalarini tuzadilar. Mijozlar u yoki bu kompaniyalar bilan sug'urta shartnomasini tuzishga xohish bildirsa, brokerlar ularga kovernota hujjatini topshiradi. Kovernota o'ziga xos hujjat bo'lib, potentsial sug'urtalanuvchining ma'lum bir sug'urta kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasini tuzishga ahd qilganligini bildiradi va bunda hech qanday sug'urta javobgarligi ko'zda tutilmaydi. Sug'urta brokerlari kompaniyalarning manfaatidan ko'ra ko'proq sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya qiladi. Odatda, sug'urta brokerlari o'nlab sug'urta kompaniyalarining sug'urta shartnomalari, moliyaviy holati va sug'urta mukofoti stavkalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Brokerlar nisbatan, aviatsiya, dengiz va avtomobil sug'urtalarida faol ishtirok etadilar. Ularning asosiy vazifasi sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik qilish hamda bu xizmati uchun sug'urtalovchilardan vositachilik haqini olishdir. Hozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik brokerlar qatoriga «Seyjvik grupp», «Villis Faber» va «Aleksandr Xauden grupp»lar kiradi.

Buyuk Britaniya sug'urta tizimida brokerlar muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olib, 1977-yilda mamlakat parlamenti «Sug'urta brokerlarini ro'yxatga olish to'g'risida» qonun qabul qilgan. Ushbu qonunga muvofiq, sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda vositachi hisoblangan barcha sug'urta brokerlari majburiy tartihda davlat ro'yxatidan o'tishi shart. Ularni ro'yxatga olishni, hukumat tomonidan tayinlanadigan 12 ta broker va 5 ta a'zodan iborat Kengash amalga oshiradi. Kengashning asosiy vazifasi sug'urta bozorida qatnashayotgan barcha sug'urta brokerlarining faoliyatini nazorat qilishdan iborat. Bu nazoratning maqsadi sug'urta bozorida faqat sohani yaxshi tushunadigan yuksak malakali mutaxassislar ishlashiga qaratilgan.

Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta brokerlari o'zlarining uyushmalariga birlashgan. Sug'urta brokerlari uyushmasiga a'zo bo'lgan brokerlar jami brokerlik



operatsiyalarining 95 foizini amalga oshirmoqda. Uyushma o'z a'zolarining manfaatlarini hukumat va sug'urta kompaniyalari oldida himoya qiladi.

### **7.3. AQSh da sug'urta ishini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari**

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning moliya-kredit tizimida sug'urta kompaniyalari eng muhim bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarishning gurrkirab rivojlanishi, barqaror iqtisodiy o'sish, pirovardida, bu mamlakatlarda oddiy aholi turmush darajasining farovonligi sug'urta ishini taraqqiy etishi uchun zamin yaratdi. Buni biz birgina bugungi kunda jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari misolida ko'rishimiz mumkin.

1997-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida hosil qilingan yalpi ichki mahsulotning 8,5 foizini sug'urta mukofotlari tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Germaniya, Kanada, Italiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning tegishli ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqoridir. Amerika diyorida sug'urta ishini neehog'li rivojlanganligini nalaqat yuqorida qayd etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkich, balki boshqa ko'rsatkich orqali ham bilib olishimiz mumkin. Jumladan, 1997-yilda yig'ib olingan sug'urta mukofotlarini aholi jon boshiga taqsimlaganda, bir AQSh fuqarosi o'zini va o'ziga qarashli mol-mulklarni sug'urtalashga bir yilda 2571 AQSh dollari sarflagan. Yuqorida ko'rsatilgan mablag'ning 1404 AQSh dollari umumiy sug'urta, 1167 AQSh dollari esa hayot sug'urtasiga to'g'ri keladi.

XX asming so'ngi o'n yili mobaynida sug'urta faoliyati Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya kabi davlatlarda jadal rivojlanib borishiga qaramasdan, Amerika sug'urta kompaniyalari jahonda o'zining yetakchilik mavqeini yo'qotgan emas. 1995-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Kanada bilan birgalikda butun dunyoda yig'ib olinadigan sug'urta mukofotlarining deyarli 34,5 foizini to'pladilar. Ko'rinib turibdiki, bu juda yuqori

ko'rsatkich va ushbu mamlakatlarda sug'urta ishi kundalik hayotning ajralmas qismi ekanligidan darak beradi.

AQShda sug'urta biznesi rivojlanishining eng muhimi yo'nalishlaridan biri, uning yanada baynalminallashuvidir. Amerikalik ekspertlar fikriga ko'ra, bu jarayon kelgusi 10 yillikda yanada kuchayadi. Buni biz O'zbekiston misolida ham ko'rishimiz mumkin. 1991-yilda O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi va bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi munosabati bilan O'zbekistonga rivojlangan davlatlarning, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining qiziqishi ortdi. 1994-yilda mamlakatimizda Amerikaning eng yirik sug'urta kompaniyasi bo'lmish «Ameriken Interneyshnl Grupp» sug'urta korporatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan hamkorlikda «UzAIG» O'zbek-Amerika sug'urta kompaniyasini tashkil etdi. Bu qo'shma sug'urta kompaniyasining ustav kapitalida amerikalik kompaniyaning ulushi 51 foizni, ya'ni 1.1 mln AQSh dollarini tashkil etadi. Ammo shu bilan bir qatorda, xalqaro bozorlarda Amerika sug'urta kompaniyalari jiddiy raqobatga duch kelishmoqda. Amerika sug'urta kompaniyalarining xalqaro bozorlarda faol faoliyat ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri shundaki, amerika savdo-sanoat monopoliyalari, transmilliy korporatsiyalari tobora jahon bozorini ishg'ol qilmoqda. Tabiiyki, bu monopoliya va korporatsiyalar ko'p mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'z ishtiroklarini tarkibiy tuzilmalaridan biri bo'lgan sug'urta kompaniyalarisiz amalga oshirishmaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarini uchta yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan kompaniyalar.
2. Umumiy sug'urta operatsiyalarini (hayotni sug'urta qilishdan tashqari) amalga oshiruvchi kompaniyalar.
3. O'zaro sug'urtalash jamiyatlari.

Hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan Amerikaning eng yirik kompaniyalarini o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bugungi kunda ko'p ming sonli pensiya fondlariga tegishli yuz milliardlab mablag'larni boshqaradilar. Ayrim kompaniyalar aktivining 30-40 foizini, aynan Pensiya fondlariga tegishli mablag'lar tashkil etadi.

Bunda sug'urta monopoliyalarining asosiy vazifasi Pensiya fondlari tomonidan ishonchli boshqaruvga topshirilgan mablag'larni oqilona investitsiya siyosatini yuritish orqali ko'paytirishdan va ishonchli saqlashdan iborat. Sug'urta kompaniyalari bunday xizmatlari uchun Pensiya fondlaridan tegishli vositachilik haqini oladilar. Bu xizmat haqi sug'urta kompaniyalariga millionlab daromad keltiradilar. Ammo bu asosiy emas. Gap shundaki, sug'urta kompaniyalari ixtiyoridagi katta miqdordagi investitsiya resurslari, ularni sanoat korxonalarini ustidan nazorat o'rnatishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Amerikaning eng yirik 100 ta sanoat korporatsiyalaridan 27 tasida sug'urta kompaniyalarining vakillari Direktorlar kengashini boshqargan. Bu ko'rsatkich bo'yicha sug'urta kompaniyalari faqat tijorat banklari va investitsiya kompaniyalaridan keyingi o'rinda turadi.

Umumiy sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar, aytarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalardan keyin turadi. Ammo yig'ib olinadigan sug'urta mukofotlari miqdori va aktivining o'sishi bo'yicha umumiy sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar biroz ilgari harakat qilishmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, keyingi yillarda bu sug'urta turlariga bo'lgan talab sezilarli ravishda kuchaydi.

Mazkur toifaga mansub sug'urtalovchilar mijozlar sonini oshirish maqsadida muntazam yangi sug'urta xizmatlarini taklif etmoqdalar. Jumladan, advokatlarning, vrachlarning va me'morlarning uchinchi shaxsga zarar keltirish bo'yicha kasbiy javobgarligini sug'urta qilish yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir. Hozirgi paytda, birgina «San Paul kompani» sug'urta kompaniyasida 65 mingdan ortiq vrach o'z javobgarligini sug'urta qilishgan. Ushbu sug'urta turi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari miqdori yalpi tushumlarning 15 foiziga yaqinini tashkil etmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarining sug'urta tizimida «m'yuchuels» deb ataluvchi o'zaro sug'urtalash jamiyatlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Agar aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining egalari aksiyadorlar bo'lsa, «m'yuchuels» shaklidagi o'zaro

sug'urtalash jamiyatining egalari, bu jamiyatda o'z hayoti yoki mol-mulkini yoxud javobgarligini sug'urta qilgan jismoniy va yuridik shaxslardir. Bunday sug'urta jamiyatlarining bugun pul mablag'lari sug'urta mukofotlari va foydadan ajratmalar hisobidan shakllanadi. Shuning uchun sug'urta mukofoti bir vaqtning o'zida sug'urtalanuvchining jamiyatga kirish hissasi bo'lib ham xizmat qiladi. Sug'urtalanuvchi o'zaro sug'urtalash jamiyatidan sug'urta polisini sotib olar ekan, u nafaqat sug'urta qoplamasini olishga da'vogarlik qiladi, balki sug'urtalovchi faoliyatining natijalari bo'yicha olingan foydaning bir qismini ham olishga haqlidir.

Dastlab, «m'yuchuels» shaklidagi sug'urta jamiyatlari aksiyadorlik sug'urta kompaniyalariga qarama-qarshi ravishda tashkil etildiki, hunda sug'urtalovchi nafaqat sug'urtani daromad olishning bir manbai sifatida qarashi, balki o'zining hissadorlarini eng qulay sharoitlarda sug'urtalashi zarur edi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, AQShda 2000 dan ortiq o'zaro sug'urta qilish jamiyatlari faoliyat ko'rsatishmoqdaki, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya, Fransiya va Daniyada 100 tadan ortiqni tashkil etadi.

Amerika sug'urta tizimida sug'urta brokerlari o'z mavqelariga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Ko'p sug'urta shartnomalari amalda sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida bevosita tuzilmasdan, balki brokerlar vositasida tuziladi. Jumladan, Amerikaning eng yirik kompaniyalaridan biri «Prudensnal» 22 mingga yaqin agentlarning xizmatidan foydalanishadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, Amerika Qo'shma Shtatlarida sug'urta biznesi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri, uni yanada haynalmilallashtirishdir. Chet eldagi bo'lim va vakolatxonalar soni bo'yicha AQSh hugungi kunda dunyoda ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Amerika sug'urta kompaniyalarining xalqaro miqyosda faol ishtirok etishlarining asosiy sababi shundaki, Amerika transmilliy korporatsiyalari jahon bozorida tobora kuchli pozitsiyalarni egallashmoqda. Bu korporatsiyalarga qarashli mol-mulklar va boshqa manfaatlarni sug'urtaviy himoya etish, shubhasiz uning tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Amerikaning mashhur «ITT» kontserni, o'z sug'urta

operatsiyalarini jahonning 80 mamlakatida amalga oshirayotgan 25 ta sug'urta kompaniyalarini nazorat qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari sug'urta tarmog'idagi eng yirik kompaniyalardan biri bu «SIGNA» sug'urta korporatsiyasidir. Bu korporatsiya 1982-yilda "Konnektiut djeneral korp." va "INA korp." kompaniyalari negizida tashkil etilgan bo'lib, uning shtab kvartirasi Filadelfiyada joylashgan. U amalga oshiradigan asosiy sug'urta operatsiyalari mol-mulkni va javohgarlikni sug'urtalashdir. "SIGNA" sug'urta korporatsiyasining vakolatxonalari jahonning 160 dan ortiq mamlakatida faoliyat ko'rsatyapti. Uning chet eldagi filiallari asosan Shaxsiy sug'urta va mol-mulk sug'urtasi bilan shug'ullanishadi. 1995-yilda korporatsiya ho'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarining sal kam 10,0 foizi chet eldagi filiallar hisobiga to'g'ri kelgan.

Qo'shma Shtatlarning eng yetakchi kompaniyalari haqida to'xtalar ekanmiz. "American International Group (AIG)" sug'urta guruhining ichki va tashqi bozordagi faoliyati alohida tahsinga sazovarligini qayd etmasdan iloj yo'q. Guruh asosan savdo va sanoat tarmoqlari risklarini sug'urtalashga ixtisoslashgan. «AIG» o'zining dastlabki operatsiyalarini 1919-yilda Shanxayda boshlagan bo'lib, keyinchalik shtab kvartirasi Nyu-Yorkka ko'chirilgan. Bugungi kunda guruhning vakolatxonalari va filiallari yer yuzining ko'pgina mamlakatlarida mavjuddir.

#### **7.4. Fransiya sug'urta bozori va uning o'ziga xos xususiyatlari**

Fransiyaning sug'urta tizimi bugungi kunda jahondagi eng yirik va barqaror rivojlanib borayotgan bozorlardan biridir. 1997-yilgi statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, to'plangan sug'urta mukofotlarining hajmi ho'yicha Fransiya yer sharida yettinchi o'rinni egallagan va uning hissasi jahon ho'yicha jami yig'ib olingan sug'urta mukofotlarining deyarli 6,6 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich, o'sha yili Germaniyada 6,4 foiz va Buyuk Britaniyada 7,4 foiz darajasida bo'lgan.

1993-yilda Fransiya sug'urta bozorida 599 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning 132 tasi chet el kompaniyalaridir. Bu ko'rsatkichni 1985-yil ma'lumotlari bilan

taqqoslaydigan bo'lsak, quyidagi manzaraning guvohi bo'lamiz. Ya'ni, 1985-yilda 521 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, uning 163 tasi chet el kompaniyalariga tegishli. O'tgan sakkiz yil davomida kompaniyalar soni 78 taga ko'paygan holda, xorijiy kompaniyalar miqdori 31 taga kamaygan. Shuningdek, 1993-yilda faoliyat ko'rsatgan barcha kompaniyalarning 145 tasi yoki 24.2 foizi hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan, qolgan qismi, ya'ni 75.8 foizi umumiy sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishga ixtisoslashgandir.

Mol-mulk shakliga ko'ra, davlat, aksiyadorlik va aralash mol-mulkka asoslangan sug'urta kompaniyalari mavjud. Faoliyat ko'rsatgan sug'urta kompaniyalarning 258 tasi yoki 43 foizi aksiyadorlik, 202 tasi aralash (davlat va xususiy mulkka aralashgan) va 7 tasi davlat mulkiga qarashlidir. 1993-yilda aksiyadorlik shaklidagi hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalar jami sug'urta tushumlarining 61,3 foizini, davlatga qarashli sug'urta kompaniyalari 29.5 foizini, aralash mulkka asoslangan sug'urta kompaniyalari 7.4 foiz sug'urta mukofotlarini yig'ib olishgan. Fransiya sug'urta bozorida yig'ib olinayotgan mukofotlarning deyarli 59 foizi 10 ta eng yirik sug'urta kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi. Bular jumlasiga GNP, UAP, AGF, GAN, AXA va boshqalar kiradi. Bundan tashqari ushbu kompaniyalar jahondagi eng yirik 100 ta kompaniyalar qatoriga ham kiradi.

Bugungi kunda bu mamlakatning sug'urta sohasida 211,0 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu mehnatga layoqatli bo'lgan jami aholining 1,0 foizini tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 1997-yilda Fransiya sug'urta bozorida 128,9 mln. AQSh dollari miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ib olingan bo'lib, bu ko'rsatkich 1992-yilning tegishli ko'rsatkichidan deyarli 18,4 foiz ko'pdir.

1970 va 1993-yillar davomida yig'ib olingan sug'urta mukofotlari miqdori 30 mlrd frankdan 819,7 mlrd frankkacha ko'paydi. Bu ko'payish, asosan Shaxsiy sug'urta operatsiyalarining kengayishi hisobidan bo'ldi. Aholini sug'urtaning bu turiga bo'lgan ehtiyoji keskin oshdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Shaxsiy sug'urta bo'yicha umumiy tushumlar 1993-yilda 378,4 mlrd frankni

tashkil etgan bo'lib, bu 1992-yilgi ko'rsatkichdan 20,8 foiz ko'pdir. Aksincha, mol-mulknii sug'urtalashda so'ngi o'n yillikda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi va buning natijasida sug'urta mukofotlari miqdori keskin kamayib ketdi. Faqatgina, 1993-yilga kelib, bu sug'urta turini qisman rivojlantirishga erishildi. Jumladan, 1993-yilda jami 169.0 mlrd frank sug'urta mukofoti to'plandi. Shu yili Shaxsiy sug'urtadan 378.4 mlrd frank mablag' kelib tushgan edi. aytarli bu mol-mulk sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlaridan ikki marotaba ko'p.

Fransiya sug'urta tizimining boshqa davlatlar, xususan, Ispaniya sug'urta tizimidan farq qiluvchi asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, Fransiyada 60 dan ortiq majburiy sug'urta turlari mavjud. Bu sug'urtaning aksariyat qismi tarmoq vazirliklari tomonidan joriy etilgan. Jumladan, turli ko'rinishdagi javobgarlikni sug'urta qilish: agar maktabga qatnayotgan o'quvchining ota-onalari uchinchi shaxslar oldidagi uning xatti-harakatini, fuqarolik javobgarligini sug'urtalamas ekan, bola maktabga qabul qilinmaydi. Fransiyada qurilish-montaj risklarini sug'urta qilish keyingi yillarda ancha rivoj topdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, quruvchilar va pudrat tashkilotlari qurilish obyektini foydalanish uchun topshirganlaridan so'ng o'n yil davomida bajarilgan ishlarning sifati uchun uchinchi shaxslar oldidagi o'z javobgarligini majburiy sug'urta qilish talab etiladi.

Milliy sug'urta bozorini himoya etish maqsadida mamlakatdagi uchta yirik sug'urta kompaniyalari birlashib, uning negizida moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lgan «SCOR» qayta sug'urta qilish jamiyati tashkil etildi. Milliy sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta tashkilotlari qabul qilib olgan risklarining hir qismini, albatga, mazkur qayta sug'urta qilish jamiyatida qayta sug'urtalashlari zarur. Lekin, bunday chora-tadbirlar ko'rilganiga qaramay, Fransiya sug'urtalovchilari risklarning ko'p qismini xorijiy qayta sug'urta qiluvchikompaniyalarida joylashtiradilar. Shunisi ajablanarliki, 1990-yil boshlarigacha ular risklarni hamma chet el kompaniyalarida qayta sug'urta qilishga haqli emas edilar, ya'ni Nazorat qo'mitasi

tomonidan belgilab berilgan qayta sug'urta qilish jamiyatidagina qayta sug'urtalashga ruxsat etilardi.

Fransiyada an'anaviy ravishda sug'urta brokerlarining 4 ta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: 1) brokerlik firmalarining vakillari va jismoniy shaxslar; 2) bosh agentlar; 3) sug'urta qilish bo'yicha shartnomalarni tarqatish bilan shug'ullanadigan sug'urta kompaniyalarining xizmatchilari; 4) bosh agentlar toifasiga kirmaydigan jismoniy shaxslar.

Sug'urta kompaniyalari o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida Fransiya sug'urta kompaniyalari Federatsiyasini tashkil etgan bo'lib, bu Federatsiya qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqib huquqiga ega. Yuqoridagi uyushma bilan bir qatorda yana bir qator ixtisoslashgan uyushmalar mavjud. Masalan, mol-mulkning sug'urta qiluvchi kompaniyalar Assambleyasi, Fransiya dengiz va transport sug'urtalovchilari Sindikati («Sezam») va hokazo. «Sezam» tarmoqdagi eng yirik sug'urta tashkilotlarini birlashtirgan va o'z a'zolariga dengiz hamda transport sug'urtasi bo'yicha zarur ma'lumotlarni yetkazib beradi. Bu uyushma sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz bergan vaqtda sug'urta zararlarini hisob-kitob qilish bo'yicha ishlarni ham olib borishadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Dastlab sug'urtaning kurtaklari qayerda paydo bo'lgan?
2. Xalqaro darajada sug'urtaning rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni bilasizmi?
3. Jahon sug'urta bozorining tarkibini bilasizmi?
4. Buyuk Britaniya sug'urta bozori haqida nimani bilasiz?
5. AQShda sug'urta biznesi haqida fikringizni ayting.
6. Fransiya sug'urta kompaniyalari faoliyati nimadan iborat?



## GLOSSARIY

**Sug'urtalovchi** – sug'urta qiluvchi tashkilot. Bunga «O'zagrosug'urta», «Kafolat», «O'zhekinvest» kabi tashkilotlar kiradi. Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

**Sug'urtalanuvchi** – o'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildiradigan korxonalar, tashkilot yoki o'z hayotini sug'urtalovchi fuqaro sug'urtalanuvchi hisoblanadi.

**Sug'urtaning obyekti** – mulk sug'urtasida obyekt sifatida moddiy boyliklar, mol-mulk ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi.

**Sug'urta subyekti** – qonunning 5-moddasida quyidagicha sug'urta subyektiga ta'rif berilgan. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektidir.

**Sug'urta mukofoti** – O'zbekiston Respublikasi FK 942-moddasida sug'urta mukofoti deb sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi tashkilotga to'laydigan summasi tushuniladi deyilgan.

**Sug'urta himoyasi** – ko'zda tutilmagan ofatlardan himoya qilishni talab qiladi. Bu moddiy jihatdan sug'urta fondidir. Lekin sug'urta himoyasi bu faqat fond emas, balki yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu munosabatlar respublika, shahar, tuman miqyosidagi obyektlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilinishini ko'zda tutadi.

**Sug'urta javobgarligi** – sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining shartnomada va qonunda ko'zda tutilgan javobgarligi o'z zimmasiga olgan majburiyatlari va vazifalaridir.

**Sug'urta zaxiralari** – sug'urtachi majburiyatlarining aniq kattaligini anglatuvchi tushunchadir.

**Texnik zaxiralar** – sug'urta zaxiralari guruhlaridan biridir: sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni sug'urtachi tomonidan bajarilishi uchun zarur bo'lgan mablag' summasidir.

**Xavf-xatar funksiyasi.** Sug'urta zaxiralari, sug'urta fondi hosil qilingan. Bu fond hisobidan ofat oqibatlarini tugatish uchun muhtojlarga yordam berilgan. Sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni bajarish ta'minlangan.

**Ogohlantirish funksiyasi.** Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ogohlantirish xavfini oldini olish tadbirlari sug'urta mukofotlarining umumiy tushumidan ajratma sifatida beriladigan mablag'lar hisobiga qoplanadi. Bu mablag'lardan 3 yo'nalishda foydalaniladi:

1. Yong'indan ogohlantirish va unga kurash tadbirlarini amalga oshirishga;

2. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini kamayishiga qarshi tadbirlarga;

3. Chorva mollarida uchraydigan kasalliklarni oldini olish va ularni qirilib ketmaslik tadbirlarini bajarishga.

**Investitsiya funksiyasi.** Sug'urta mukofotlarining yiqilishi va ular hisobidan zararining qoplanishi bir vaqtda emas, balki turli muddatlarda sodir bo'ladi. Vaqtincha bo'sh mablag'lardan foyda (daromad) olish uchun investitsiyaga yo'naltiriladi.

**Omonat funksiyasi.** Omonat kassalarida ma'lum muddatlarida saqlangan davrga nisbatan foiz olish huquqi beriladi. Shaxsiy sug'urta va uning boshqa turlarida, mulk sug'urtasida sug'urtalangan ma'lum muddatga sug'urta mukofotlarini to'laydi. Bu sug'urta mukofotlari sug'urta tashkilotlari ixtiyorida bo'ladi. Agar bu sug'urta davrida biror sug'urta hodisasi ro'y bersa sug'urta tashkiloti yetkazilgan zararni o'z hisobidan qoplaydi. Omonat kassalarida esa bunday xususiyatlar mavjud emas.

**Axborot funksiyasi.** Sug'urta faoliyatini rivojlantirish uchun sug'urtalanuvchilarga har bir tashkilot to'g'risida axborot berishni talab qilinadi. Ma'lumotlarni shakllantirish, sug'urta tashkilotlari bilan birgalikda sug'urta bozorini tashkil etish asosiy vazifalardir.

**Nazorat funksiyasi.** Aniq bir munosabatlarda va shartlarda sug'urta fondlari mablag'larini maqsadli tashkil etish va ulardan qonunda belgilangan talablar asosida foydalanish tushuniladi.

**Sug'urta manfaatdorligi** – sug'urta bilan shug'ullanish unga nisbatan manfaatdorlikdan boshlanadi. Ishlab chiqarish xavf-xatardan holi emasligi sababli sug'urtalash masalalariga qiziqish boshlanadi, chunki sug'urta obyekti zarar ko'rganda sug'urtalanuvchiga unga qoplashga yetadigan summa beriladi. Bu summa sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urtalanuvchi zarar ko'rganda uni qoplash uchun sug'urtalanuvchidan sug'urta summasini olishdan manfaatdor bo'ladi.

**Sug'urta siri** – O'zbekiston Respublikasi FK 933-moddasida sug'urtalovchi tashkilot sug'urtalanuvchi haqida uning sog'lig'i haqidagi, mol-mulk haqidagi ma'lumotlar aytilishi mumkin emasligi yozilgan.

**Subragatsiya** - sug'urtalanuvchi sug'urta qoplamasini to'lagandan keyin sug'urtalanuvchining mol-mulkka bo'lgan huquqining sug'urtalovchiga o'tilishi tushuniladi.

**Qayta sug'urta qilish** – sug'urtalovchi qayta ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchiga o'tkazishi yoki qayta sug'urta qilishi mumkin. Sug'urta tashkiloti sug'urtalovchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib, sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligini to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib qayta sug'urta qilsa bo'ladi.

**Sug'urta vakillari** – sug'urta xodimlari bo'lib, o'zlariga berilgan vakolatga muvofiq sug'urtalovchi nomidan va uning topshiriqlari asosida ishlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir.

**Birgalikda sug'urta qilish** – ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkilotlari bitta sug'urta shartnomasi tuzadi. Unda har bir sug'urtalovchining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlar bo'lishi kerak.

**Sug'urta guvohnomasi** – (polis) mulk yoki shaxsiy sug'urta tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjat. Ixtiyoriy sug'urtada bunday hujjat birinchi hadal to'langandan keyin beriladi. Sug'urta guvohnomasida xo'jaliklarning nomlari sug'urtalangan shaxsning

ism-sharifi, sug'urta summasi yoki qoplamasi, sug'urta ta'rifi, badali va boshqa ma'lumotlar ko'zda tutiladi.

**Sug'urta qoplamasini oluvchi** – sug'urta qoidalari yoki shartnomalarida ko'zda tutilgan sug'urta hodisalari sodir bo'lganda yoki boshqa sabablar tufayli sug'urta tashkilotlaridan ma'lum miqdorda (qoplama) mablag' oluvchi yuridik va jismoniy shaxsdir. Jamoat va davlat xo'jaliklarida bu mablag'lar ularning hisoblariga o'tkaziladi.

**Sug'urta ta'rifi** – sug'urta summasi miqdoriga qarab hisoblanadigan badalning stavkasi. Ta'rif miqdori, asosan, foiz yoki so'm miqdorida belgilanadi. Maxsus adabiyotlarda bu stavka brutto ta'rif deb ataladi, u 2 qismga bo'linadi:

- 1) netto ta'rif;
- 2) yuklama netto ta'rif.

Hisoblangan sug'urta summasi zararlarni qoplashga sarflanadi, qoplama hisobidan sug'urta bo'yicha boshqarish xarajatlariga mablag'lar ajratiladi.

**Sug'urta muddati** – sug'urta obyektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani sug'urta muddati hisoblanadi. Majburiy sug'urtada mol-mulkdan qancha vaqt foydalanilgan bo'lsa, shu muddatga sug'urtalangan hisoblanadi. Shaxsiy sug'urtada muddat – qancha vaqtga sug'urta qilingani shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi va shunga qarab sug'urta to'lovlari hisoblab chiqiladi. Lekin sug'urta muddati bilan uning amal qilish muddati bir-biridan farq qiladi. Sug'urta muddati to'lovning birinchi badali to'langan vaqtdan kuchga kiradi.

**Sug'urta boqimandasi** – sug'urta badallari to'lash muddatlari majburiy sug'urtada dasturi amalda, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan.

**Sug'urtaviy baholash** – mol-mulk sug'urtasi sohasida qo'llaniladi. Sug'urtaviy baholash asosida sug'urta obyektlarining qiymati aniqlanadi va sug'urta badallari hisoblab chiqiladi.

**Sug'urta ta'minoti** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mavjud belgilangan tartib asosida zararlarni hisoblash va shu asosida qoplama miqdorini belgilash usulidir.

**Sug'urta summasi** – sug'urta obyektining qancha summaga sug'urta qilinganidir. Majburiy sug'urtada summa sug'urta obyektining hajmi va ta'rifi asosida hisoblanadi. Ixtiyoriy sug'urtada bu summa sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanib, chipta bahosi tarkibiga kiritiladi. Mulk sug'urtasida bu atama sug'urta ta'minotining pullik ifodasi hisoblanadi.

**Sug'urta yoshi.** Fuqarolarning qaysi yoshdan qaysi yoshgacha sug'urta qilinishi ko'zda tutiladi. Sug'urta chegarasi 75 yosh, nikoh sug'urtasida 18 yosh deb belgilangan.

**Sug'urta to'lovi** – ta'rif asosida hisoblangan sug'urta badalidir. U sug'urtalangan mol-mulkning xususiyatiga va egaliligiga qarab bir yoki bir necha obyekt bo'yicha hisoblanishi mumkin. Jamoa xo'jaliklarida sug'urta to'lovlari yetishtirilgan hosil, boqilayotgan chorva mollari, imoratlar bo'yicha hisoblanib, ularning jami sug'urta to'lovi miqdorini tashkil qiladi

**Sug'urta qoplamasi** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganlik tufayli yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag' sug'urta qoplamasidir.

**Sug'urta dalolatnomasi** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi va uning sabablarini belgilab beruvchi hujjat. Mulk sug'urtasida dalolatnoma asosida zarar va unga to'lanadigan qoplama miqdori aniqlanadi. Sug'urtalanuvchining arizasi va boshqa hujjatlar bilan birga qoplama olishga asos bo'luvchi hujjat.

**Sug'urta rentasi annuteti** – qo'shimcha nafaqani sug'urtalash asosida sug'urtalanuvchiga Oliy Majlis yoki yil davomida to'lanadigan muntazam daromadidir. Qo'shimcha sug'urta nafaqasi, agar bolalar o'z vaqtida to'lab horilgan bo'lsa, nafaqa yoshiga yetib chiqqan oydan boshlab to'lanadi (55 va 60 yoshdan).

**Sug'urta xavf-xatari** – sug'urtada bo'lgan javobgarliklarni ifoda qiladi. Shu munosabat bilan uni xavf- xatarning to'plami, deb

tushuntirish maqsadga muvofiq. Bu tushuncha sug'urtalangan mulk, sug'urta hodisasi, sug'urta xavfi va boshqa tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi.

**Sug'urtada zarar** – sug'urta hodisasi natijasida zararlangan mulk tushuniladi. yetkazilgan zaraming to'la yoki qisman sug'urtalanuvchiga to'lanishi sug'urta qoplamasi deyiladi. Shaxsiy sug'urtada jarohatlangan shaxslarga to'lanadigan pul sug'urtasummasi miqdori deb yuritiladi.

**Sug'urta hozori** – bir necha sug'urta tashkilotlari tashabbusi bilan shakllanadi. Har bir sug'urta tashkiloti vakili o'z ish xonasining faoliyati, taklif qilinadigan sug'urta xillari va shartlari haqida bo'lajak sug'urtalanuvchilarni tanishtiradi va shulardan birortasini tanlashga yordam beradi.

**Sug'urta portfel** – viloyat, shahar, tuman doirasida sug'urtalangan obyektlar va amaldagi shartnomalar sug'urta portfelini tashkil etadi. Uning tarkibiga kirgan obyektlar va shartnomalarning hududiga nisbatan har bir hududda sug'urtaning qanday rivojlanganligini ifoda etadi. Sug'urta portfel atamasi boshqa ma'noda-xuddi to'plangan sug'urta hadallarining umumiy miqdori sifatida ham ishlatiladi.

**Sug'urta bonusi** – transport sug'urtasida qo'llaniladigan atama bo'lib, bu orqali uzoq yillar davomida falokatsiz ishlagan sug'urtalanuvchilarga sug'urta badali hisobidan beriladigan yengilliklaridir. Bu yengilliklar 2-3 oyga sug'urta badalidan ozod qilish yoki sug'urta badaliga nisbatan foiz yengilliklar berishdan iborat.

**Kargo sug'urtasi** – transport vositalarida tashiladigan barcha yuklarni transport vositalarisiz sug'urta qilinishi kargo sug'urtasi deyiladi. Demak, bunda sug'urta tashkiloti faqat sug'urtalangan yuklar uchun javobgar hisoblanadi.

**Kasko sug'urtasi** – bunda faqat transport vositalari sug'urta qilinadi. Agar yuk transport vositasi egasiga qarashli bo'lsa, u holda

har ikki sug'urta vositasidan - kargo va kasko xillaridan foydalanish mumkin.

**PUL deb ataluvchi sug'urta tashkiloti** O'z miqyosi jihatidan ulkan va obyekt jihatidan xavfli sug'urta hodisalaridan birgalikda himoyalaniş uchun tuzilgan sug'urta tashkiloti PUL deb ataladi. Sug'urta tashkilotlariga yagona polis (guvoohnoma) berib, bu hujjatda har bir a'zoning sug'urtalanishdagi hissasi ko'rsatiladi.

**Shamoj sug'urtalash usuli** – ishlab chiqarish turli hodisalar oqibatida to'xtab olish mumkin. Buning natijasida olinishi kutilgan foyda miqdori kamayib ketadi. Shamoj ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni ko'zda tutib, taxminan sug'urtalash usulidir.

**Sug'urta brokerei** – sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchilarining o'zaro shartnomasini bajarishdagi munosabatlarni o'rnatuvchi shaxs broker sug'urtalanuvchilar bilan bevosita ish olib boradi. Sug'urta shartnomasini tuzishda, sug'urta hodisasi oqibatida zarar miqdorini aniqlaydi va sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasini topshirishda unga yordam beradi.

**Sug'urta auditori** – sug'urta tashkilotlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan mustaqil tekshirishga vakil qilingan maxsus shaxs yoki tashkilot sug'urta auditoridir. Auditor mustaqil ish ko'ruvch firma sifatida sug'urta tashkilotlari faoliyati yuqori saviyada har tomonlama tekshirib, o'z xulosasini taqdim etadi. Auditor vositasini bajaruvchi shaxs yoki tashkilot o'z xulosasi uchun javob beradi. Bu lavozimni egallash uchun maxsus tayyorgarlik va ko'p yillik tajriba talab qilinadi.

**Sug'urta agenti** – sug'urtalanuvchi ish yurituvchi maxsus shaxs yoki tashkilot. Demak, o'z sug'urta tashkiloti nomidan ish olib boradi.

**Sug'urta franshizasi** – turli sabablar bilan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning umumiy miqdorini sug'urta tashkiloti hisobidan qoplanmaydigan qismi sug'urta franshizasi deyiladi.

**SIF** kelishuvi inglizcha «tovar bahosi, sug'urta, fraxt» so'zining bosh harfidan olingan. Bu kontraktning asosiy turi bo'lib,

unda oldi-sotdi. masalan, tovarning buzilishi, shikastlanishi riski xaridorga o'tishi vaqti; hisob-kitob tartibi masalalari hal etiladi. CIF kelishuvi shartlariga ko'ra sotuvchi yukni portga olib kelishi, kemaga yuklashi, fraxtni to'lashi, xaridorga yetib kelgunga qadar dengiz risklaridan sug'urtalashi va xaridorga yukni yuborganligi haqidagi hujjatlarni jo'natishi shart.

**KAF** kelishuvi inglizcha «baho va fraxt» so'zlarining bosh harflaridan kelib chiqqan. Sotuvchi o'z hisobidan yukni kemaga ortishi, kontraktga belgilangan joygacha yukni dengiz orqalietkazib berishi shart. Sug'urtalash mas'uliyati xaridor bo'yniga.

**FOB** kelishuvi inglizcha «bortga erkin» iborasidan olingan kelishuv shartiga ko'ra sotuvchi yukni kema bortiga ortishi shart. fraxtovkani xaridor amalga oshiradi. Yukni tashish vaqtdan belgilangan manzilgacha (oxirgi manzil) sug'urtalashni xaridor o'z bo'yniga oladi.

**FAS** kelishuvi inglizcha "bort oldigacha erkin" so'zidan olingan. Bu kelishuv FOB kelishuvi shartlariga o'xshashdir. Lekin bu yerda sotuvchi yukni faqat prichal oldiga (kema oldiga) olib kelishi kerak. Yuk bilan bog'liq boshqa javobgarliklar xaridor bo'yniga tushadi.



## Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

### Asosiy adabiyotlar

1. G'ulomov S. S., Boyev X. I. Xorijiy mamlakatlar sug'urta tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish. – Buxoro, 2005.
2. G'ulomov S. S., Boyev X. I. Aholini ijtimoiy himoyalashda ijtimoiy sug'urta. – Buxoro, 2004.
3. George E. Rejda «Principles of Risk Management and Insuarence», 10th ed.p.cm, 2008.
4. Страховой дело: учебник в 2-х т. (иср. с нем О.И.Кюргеа и Т.А.Федоровой).- Т.1 основы страхования. под ред О.И.Кюргеа- М.: Москва экономисти. 2007- 447 стр.
5. Xo'jayev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma.-T.: Soliq akademiyasi. 2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar.

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016-yil 7-dekabr'. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 48 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish ho'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni.
10. Qishloq joylarda yashovchi fuqarolarga tegishli mol-mulkni majburiy sug'urtasi haqida yo'riqnoma, 1997-yil 6-iyul.
11. Qishloq axolisiga qarashli chorva mollarini ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalari. 1997-yil 17-iyun.
12. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qoidalari, Toshkent

1997-yil 27-may, O'zagrosug'urta.

13. Fuqarolarni qo'shimcha pensiyaga sug'urta qilish qoidasi. Toshkent. 1997-yil.

14. Rustamov N. Tag'oyev. A. «Sug'urta ishi» fanidan ma'ruzalar to'plami. Buxoro – 2004.

15. Saidov M. Tag'oyev A. «Sug'urta ishi» fanidan ma'ruzalar to'plami. Buxoro – 2007.

16. Saidov M. Tag'oyev A. «Sug'urta ishi» fanidan amaliy darslarni o'tish uchun uslubiy qo'llanma. Buxoro – 2007.

17. Saidov M. Amonov, B. «Sug'urta ishi» fanidan mustaqil ishlari topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Buxoro – 2008.

#### Internet saytlari

1. [www.antimon.uz](http://www.antimon.uz): O'zbekiston respublikasi tadbirkorlik va raqobatchilikni qo'llab-quvvatlash, monopoliyadan chiqarish davlat komiteti .

2. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz): Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi.

3. [www.bir.uz](http://www.bir.uz) “Madad” sug'urta kompaniyasi.

4. [www.uzbekinvest.uz](http://www.uzbekinvest.uz), <http://www.uzbekinvest.uz>. “O'zbekinvest”.

5. [www.agros.uz](http://www.agros.uz), <http://www.agros.uz>. “Uzagrosug'urta”.

6. [www.kafolatdask.uz](http://www.kafolatdask.uz) “Kafolat” sug'urta kompaniyasi.

## MUNDARIJA

1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari, atama va tushunchalari.....	3
1.2. Sug'urta bozori va uning tarkibiy tuzilishi.....	16
<b>II BOB. SUG'URTA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TASHKILIIY-HUQUQIY SHAKILLARI.....</b>	<b>19</b>
2.1. Sug'urta huquqi va uning mazmuni.....	19
2.2. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni: uning tuzilishi va mazmuni.....	73
<b>III BOB. SUG'URTA TA'RIF SIYOSATI VA SUG'URTA FAOLIYATI KLASSIFIKATORI.....</b>	<b>31</b>
3.1. Sug'urta ta'rif va unga ta'sir etuvchi omillar.....	31
3.2. Sug'urta stavkasi turlari va ularni hisoblash.....	32
3.3. Umumiy sug'urta tarmog'i va unga oid asosiy sug'urta klasslari.....	37
<b>IV BOB. HAYOT SUG'URTASI VA SHAXSIY SUG'URTA.....</b>	<b>45</b>
4.1. Hayot sug'urtasi haqida tushuncha va uning jamg'arilish funksiyasi.....	45
4.2. Hayot sug'urtasining asosiy turlari (klasslari).....	47
<b>V BOB. MULKIY SUG'URTA VA QURILISH-MONTAJ, TADBIRKORLIK VA MOLIYAVIY RISKLAR SUG'URTASI.....</b>	<b>54</b>
5.1. Mulkiiy sug'urtaning mohiyati va xususiyatlari.....	54
5.2. Korxonalar mol-mulkini sug'urtalash, sug'urta ta'rifini hisoblash, sug'urta mukofotini to'lash va sug'urta polisini rasmiylashtirish.....	55
5.3. Sug'urtada franshiza, subragatsiya va regress.....	61
5.4. Sug'urtalashning asosiy shartlari va shartnomani tuzish.....	65
Sug'urta hodisasi boshlanganda tomonlarning o'zaro munosabatlari.....	69

<b>VI BOB. O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH</b> .....	74
6.1. O'zbekiston sug'urta bozori tarixi va uning rivojlanishi .....	74
6.2. Sug'urta bozori infratuzilmasi va uning professional ishtirokchilari .....	78
6.3. Sug'urta bozorining turlari .....	82
<b>VII BOB. CHET MAMLAKATLARDA SUG'URTA ISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> .....	85
7.1. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan chet mamlakatlarda sug'urtaning rivojlantirishning asosiy tendensiyalari .....	85
7.2. Buyuk Britaniya sug'urta bozori va uni davlat tomonidan tartibga solish .....	90
7.3. AQSh da sug'urta ishini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari .....	98
7.4. Fransiya sug'urta bozori va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	102
<b>GLOSSARIY</b> .....	106
<b>I'oydalanilgan adabiyotlar va manbalar</b> .....	114



**D.D.Alimova, D.X.Jumayeva**

## **SUG'URTA ISHI**

**"TURON NASHIRIYOT"**



13.10. 2021 yilda 1050970-son bilan ro'yxatga olingan.  
Toshkent sh. Yunusobod tumani, Nizomiy ko'chasi 59 uy.

**Muharrir: *I. Nishanbayeva***

**Dizayner: *D. O'rinova***

**Sahifalovchi: *I. Nishanbayeva***

**Musahhih: *A. Nizomov***

Bosishga 12.12.2021-yilda ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 60×84 <sup>1/16</sup>  
Nashr tabog'i 7,5. Shartli bosma taboq 7,5. Adadi 10 dona.  
Buyurtma № B-17.

“Turon Nashriyat” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh. Yunusobod tumani, Nizomiy ko'chasi 59 uy.







9 789943 761285



TARON NASHRIYOTI